

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI

Pedagogika va psixologiya kafedrasida

**“Shaxs psixologiyasi. Maxsus psixologiya. Iqtidorli
bolalar psixologiyasi”**

fanidan

MA'RUZA MATNI



Bilim sohasi: 100000 – Gumanitar
Ta'lim sohasi: 110000 – Pedagogika
Ta'lim yo'nalishi: 5110900-pedagogika va psixologiya

Namangan-2019

Fanning ishchi o'quv dasturi O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi 201__ yil "___" ___dagi ___ - sonli buyrug'i bilan (buyruqning ___ - ilovasi) tasdiqlangan "Shaxs psixologiyasi. Maxsus psixologiya. Iqtidorli bolalar psixologiyasi" fani dasturi asosida tayyorlangan.

Tuzuvchi:

D.Oribboyeva – o'qituvchi

Taqrizchilar:

Taqrizchilar: Z.Qurbonova, NamDU, pedagogika va psixologiya kafedrası katta o'qituvchisi

S.Akbarov, NamDU, pedagogika va psixologiya kafedrası katta o'qituvchisi

Ma`ruza matni Namangan davlat universiteti Kengashininig 2019 yil "..."
avgustdagi "... " - son yig'ilishida ko'rib chiqilgan va foydalanishga tavsiya etilgan.

Kafedra mudiri:

dots. B.Madaminov

Kelishildi: O`quv-uslubiy boshqarma boshlig`i:

1-Modul Shaxs psixologiyasining nazariy-metodologik asoslari

1-Mavzu: Shaxs psixologiyasi faniga kirish

Reja:

- 1.Shaxs borasidagi tadqiqotlarning qisqacha tarixi.
- 2.Shaxs psixologik bilish predmeti sifatida. Shaxs psixologiyasi fan sifatida.
- 3.Shaxs borasidagi eksperimental tadqiqotlar metodologiyasi.

Tayanch so'z va iboralar: shaxs, tarix, jamiyat, odam, tajriba, biosotsial, biofizik, falsafiy yondoshuv.

Odatda shaxs ijtimoiy fanlarning o'rganish predmeti bo'lib, ular insoniyat tarixida shaxs shakllanishining umumiy qonuniyatlarini, jamiyatning rivojlanish jarayonida inson hayotining ijtimoiy sharoitlariga bog'liq holda shaxsning o'zgarishi bilan aloqador masalalarning mohiyatini ochib beradi.

Shaxs muammosini tadqiq qilishga biologiya, kognitiv, ijtimoiy fanlar va falsafa fani murojaat qiladi. "Shaxs" kategoriyasi psixologiyaning eng muhim, tayanch tushunchasi bo'lsa, "shaxs psixologiyasi" bo'limi uning asosini tashkil etadi. Psixologiyaning bu sohani bilish har qanday mutaxassisga samaraliroq ishlash imkonini beradi. Shaxs psixologiyasi XX asrning birinchi o'n yilligida eksperimental fanga aylandi. Biroq nazariy tadqiqotlar ancha oldinroq amalga oshirila boshlangan.Shaxsni o'rganish tarixida uchta asosiy davrni ajratish mumkin:

- falsafiy-adabiy;
- klinik;
- sof eksperimental.

Falsafiy-adabiy davr. Dastlab shaxs psixologiyasi muammolari faylasuf va yozuvchilar asarlarida o'z aksini topgan. Frantsuz faylasufi Et̄en de Kondilyak o'zining " Sezgilar haqidagi traktat"ida shaxsni turli sezgi parchalaridan yig'ishga harakat qilgan. F.M. Dostoevskiy har bir kishi uchun xos bo'lgan "yashirin odam" haqida yozadi.. Uning fikricha, mazkur "yashirin odam" tashqariga chiqishga urinib ko'radi, shuningdek har bir kishining "niqobi" ham mavjud bo'lib uning

haqiqiy qiyofasini yashirib turadi.

Falsafiy-adabiy davrdagi shaxs psixologiyaining asosiy muammolari uning axloqiy va ijtimoiy tabiatini, xatta-harakatlari va xulq-atvorini o'rganishga bag'ishlangan edi. Dastlabki ta'riflarga ko'ra shaxs o'z tarkibiga barcha xususiy narsalarni- uning biologiyasi, psixologiyasi, mol-mulki, xulq-atvori, madaniyati va boshqalarni oladi. Badiiy ijod, falsafa va boshqa ijtimoiy fanlarda bunday qarash to'liq o'z tasdig'ini topgan. Biroq psixologiya uchun bunday ta'rif juda kengdir.

Klinik davr. XIX asrning birinchi o'n yilligida shaxs psixologiyasi muammosi bilan ko'proq shifokor-psixiatrlar shug'ullanishgan. Ular birinchilardan bo'lib klinik sharoitlarda bemor shaxsini tizimli kuzatish olib borishga muvaffaq bo'lishgan, inson shaxsining tabiati to'g'risida umumilmiy xulosalar chiqarishgan. Klinik davrda alohida fenomen sifatida shaxs haqidagi tasavvurlar qisqartirib yuborilgan. Psixiatrlarning diqqat markazida bemor kishilarda kuzatilgan shaxs xususiyatlari turgan. Keyinchalik aniqlanishicha, sog'lom kishilarda kuchsiz ifodalangan xususiyatlar bemorlarda juda kuchli (gipertrofiya) holatida bo'ladi. SHifokor-psixiatrlarning shaxsga bergan ta'rifi bilan normal, patologiyaga ega va aktsentuatsiyaga ega kishilarni ham tavsiflash mumkin. Bunday ta'riflar psixoterapevtik vazifalarni yechish uchun to'g'ri bo'lishi mumkin, biroq normal shaxsning mohiyatini anglash uchun torlik qiladi.

Eksperimental davr. XX asrning birinchi o'n yilligida shaxsni o'rganish bilan professional psixologlar shug'ullana boshlashdi. Ular avvallari bilish jarayonlari va shaxs holatlariga alohida e'tibor berishgan edi. Bu sohadagi tadqiqotlarda sezilarli muvaffaqiyatlarga erishila boshlandi. Biroq du davrda psixologiya fanining inqirozi yuz berdi. Bunga inson tabiatini o'rganishga atomistik qarashlarning kirib kelishi sabab bo'ldi. Mazkur yondashuv inson psixolgiyasini jarayon va holatlarga bo'lishni talab qilardi. Unga ko'ra inson alohida psixik funktsiyalarning yig'indisi bo'lib, ulardan shaxsni yig'ish va ijtimoiy xulq-atvorining kompleks shakllarini tushunish qiyin bo'ladi.

SHaxsni eksperimental o'rganish Rossiyada A.F.Lazurskiy, angliyada G.Ayzenk va R.Kettellar tomonidan boshlab berilgan. Olimlar mavjud

tadqiqotlarga eksperiment tusini berib, ishonchli ma'lumotlar olish, farazlarni aniq tekshirish, ular asosida tajribada tekshirilgan nazariyalarni yaratish uchun natijalarni tahlil qilishning matematik-statistik usullarini joriy etishdi. Eksperimental davrning eng muhim vazifasi normal shaxsni baholashning ishonchli va validlikka ega test metodlarini ishlab chiqishdan iborat. XX asrning 30-yillarini oxirida shaxs psixologiyasida tadqiqot yo'nalishlarining faol differentsiatsiyasi boshlandi. Natijada XX asrning ikkinchi yarmida shaxs psixologiyasida o'rganiladigan ko'plab yondashuv va nazariyalar vujudga keldi.

Tadqiqot ob'ekti sifatida shaxs o'ziga xos murakkab va ko'p qirralidir. U o'zida konkret insonning borlig'ining o'zaro bog'langan jismoniy va ma'naviy mazmunini aks ettiradi. SHaxs insonning kechinma va xulq-atvorida namoyon bo'ladigan, boshqalar qanday idrok qilsa shunday ko'rinishlarning birlili va uzluksizligini ifodalovchi turli psixik tizimlardan iborat deb qaraladi. Ko'p hollarda shaxs ijtimoiy rivojlanish jarayonida o'zlashtirib borilgan ijtimoiy va hayotiy muhim sifatlar yig'indisi sifatida ta'riflanadi. Hozirda shaxsning ko'plab ta'riflari mavjud bo'lib, mualliflar turli metodologik nazariyalarga asoslanishadi. Biroq bir xil mazmunga ega va to'liq ta'rif berish imkoni yo'q. Olport adabiyotlar tahlili asosida "shaxs"ning ellikdan ortiq ta'rifini aniqladi. Ilmiy adabiyotlardagi har bir ta'rifeksperimental tadqiqotlar bilan mustahkamlangan va nazariy jihatdan asoslangan bo'lib, shaxs tushunchasini ta'riflashda ularga e'tibor qaratish mumkin. K.Xoll va Lindsey bu ta'riflarni tizimlashtirish maqsadida ko'plab mezonlarni ajratib ko'rsatishgan.

Biosotsial ta'riflar – shaxsni individning "ijtimoiy qo'zg'atuvchi qadriyati" deb qarashadi. Bu nuqtai-nazarga ko'ra shaxs "boshqariladigan do'stdir". Agar atrofdagilarning reaksiyasi bo'lmasa individ hech qanday shaxsga ega bo'lmaydi.

Biofizik ta'riflar – shaxsni sub'ektning sifatlari va xususiyatlari bilan bir deb qabul qilishadi. SHaxs individning ob'ektiv ta'riflash va o'lchash mumkin bo'lgan maxsus xususiyatidir.

Omnibus- ta'riflar – shaxsni sanab chiqish orqali ta'riflash.

Integratsiyalovchi ta'riflar – shaxs individning turli alohida

reaktsiyalariga nisbatan tuzilma. Bu tuzilma shaxs faolligining natijasidir. SHaxs individual xulq-atvor turlarini o'zaro muvofiqlashtiruvchi va tartibga keltiruvchidir. Bu ta'riflar shaxsni xulq-atvorning noyob va individual jihatlari bilan aynan bir narsa sifatida izohlaydi.

Ayni paytda ta'kidlash joizki, hech bir ta'rifni umumiy ta'rif sifatida qabul qilib bo'lmaydi. Mualliflar tomonidan berilgan ta'riflar ularning nazariy qarashlari mahsulidir. Ko'p hollarda shaxs xususiy empirik tasavvurlar, kuzatuvchi tomonidan foydalanilgan shaxs nazariyalariga asoslanadi. Taxminan qancha shaxs muammolari bilan shug'ullanuvchi mutaxassislar bo'lsa, shuncha shaxs ta'rifini keltirish mumkin. Biroq ularning har birida umumiylik mavjudligini aniqlash mumkin: har bir kishi o'ziga xos betakror bo'lsa ham barcha insonlarni ta'riflash uchun foydalanish mumkin bo'lgan sifatlarga ega; bu xulq-atvor xislatlari motivlar bilan ijobiy korrelyatsiyalanadi va ijtimoiy xulq-atvorga ta'sir ko'rsatadi; shaxs sifatlari davomiyligiga ko'ra barqaror va turg'un bo'lib, turli ijtimoiy vaziyatlarda o'zaro hamkorlikda namoyon bo'ladi; inson shaxsini tushunish uchun uni tahlil qilish mumkin va shart, bunda uning maxsus va fundamental qismlarini ajratish zarur.

SHaxs tushunchasining murakkab va ko'p qirrali bo'lishiga qaramay mutaxassislar tomonidan "shaxs"ga umumiy ilmiy ta'rif berishga urinib ko'rilgan. R.S.Nemov shaxsni quyidagicha ta'riflaydi: "SHaxs-bu ijtimoiy tabiatga ega, o'z mohiyatiga ko'ra barqaror ijtimoiy aloqa va munosabatlari, o'zi va boshqalar uchun muhim ahamiyatga ega bo'lgan kishining axloqiy hatti-harakatlarida namoyon bo'ladigan psixologik tavsiflarga ega kishidir".

SHaxs psixologiyasi kishining alohida psixik funktsiyalar (motivatsiya, hissiyot, xotira, iroda, qobiliyatlar va boshqalar)ini emas, balki uni bir butun holda ko'p qirrali psixik funktsiyalarni qamrab olgan holda o'rganishi kerak. SHuning uchun ham aytish mumkinki, shaxs psixologiyasining ob'ekti yaxlit bir butun odamdir. Biroq shaxs psixologiyasining predmetini aniqlash biroz mushkul. Buning sababi shaxs fenomeni jula ko'p qirralidir. U inson hayotini jamiyat taraqqiyoti va shaxsiy hayotida naqadar ko'p qirrali ekanligini aks ettiradi.

SHuning uchun ham shaxsni o'rganishning empirik sohasi har qanday bilishning dastlabki masalasi sifatida murakkab va munozaralidir.

SHaxs psixologiyasiga oid tadqiqotlarda shaxsning namoyon bo'lishiga aloqador ko'plab sohalar: faoliyat motivlari, individual bioximik xossalar, ijtimoiy rollar, ONf tiplari, tashqi ko'rinishi, qobiliyatlar, ma'naviy qiyofasi, o'zini-o'zi anglashi, ehtiyojlar, mayllar, xarakter xislatlari, kayfiyat, his-tuyg'u, muloqot uslubi, qadriyatli orientatsiyalar, iqtidor, intellekt, hatti-harakatlar, iroda va boshqalar o'rganiladi. SHunday qilib, shaxs turli fenomenlarning mozaikasidan iborat ekanligi uchun ham murakkabdir. Bu fenomenlarning har biri alohida ajratilgan kishiga nisbatan tadbiiq etilganda shaxs deb kvalifikatsiya qilib bo'lmaydi. SHu sababdan ham shaxs psixologiyasi alohida motivatsiya, hissiyotlar, iroda, individual tafovutlar psixologiyalariga bo'linadi. Bundan tashqari tadqiqotchining maqomiga ko'ra shaxs psixologiyasi uchun asos qilib olinadigan material ham turlicha (faoliyat-A.N.Leont'ev, munosabat-V.M.Myasishev, yo'l-yo'riqlar (ustanovka)- D.N.Uznadze, mayllar- Z.Freyd, motiv va qadriyatlar Maslou) bo'lishi mumkin. Boshqacha qilib aytganda, tadqiqotchining maqomi shaxs xususiyatlarini baxolash uchun zarur faktlar va tadqiqot metodikalarini tanlash imkonini belgilaydi. Ilmiy fakt sifatida mazkur hodisa mavjudmi yoki tadqiqotchining xayoli ekanligi olimning metodologik ustanovkasiga bog'liqdir.

SHaxs psixologiyasida ko'plab nazariy qarashlar ishlab chiqilgan bo'lib, ularning ba'zilar umumiylikka ega bo'lsa, boshqalari esa umuman bir-biri bilan mos tushmasligi mumkin. SHunga qaramay umumiy holda shaxs psixologiyasining predmeti yo'nalishi va xususiyatlarini aniqlash mumkin. A.G.Asmolov shaxs psixologiyasining predmetini shaxs taraqqiyotini yo'naltirib turuvchi biologik va muhit ta'sirlarining o'zaro aloqasi, insonning butun hayoti davomida biologik va ijtimoiy omillar o'zaro ta'sirining psixik jarayonlari va mexanizmlari; shaxsiy mansublik va individuallikni uzluksiz his qilish, individlararo tafovutlar, ya'ni boshqa kishilardan ajratib turuvchi xulq-atvor an'analari va xislatlari, shaxsning ichki muvofiqligi va boshqalardan iborat deb

biladi.

SHaxs psixologiyasining predmeti – individual faoliyat olib borish va individual tafovutlarning o'zaro muvofiqligini tadqiq etishdir. Dodonovning ko'rsatishicha, shaxs psixologiyasi aniq vaziyatlarda inson individualligining qanday shakllanishi, bu vaziyatlarda bolaning ma'naviy hayoti yetuk kishining ma'naviy hayotiga qanday aylanishi, kishining jamiyatdagi o'zgarishi va ijtimoiy amaliyot bilan bog'liq holda keyingi rivojlanishini o'rganadi.

Psixologiya fanida inson faoliyat sub'ekti, o'z shaxsining shakllanishida muhim rol o'ynovchi sifatida qaraladi. SHundan shaxs o'zini o'zi rivojlantirish va takomillashtirishga qobiliyatli o'zini-o'zi boshqaruvchi tuzilma sifatida qaraladi.

A.G.Asmolovning ko'rsatishicha, shaxs psixologiyasi o'z ichiga quyidagilarni oladi:

- shaxsning tarkibi- sub'ektning faoliyat sub'ekti sifatida namoyon bo'lishi, o'zligini anglash hissini shakllantirish va barqarorligini ta'minlash;

- umumiy psixik jarayonlar, insonga shaxsiy va individual tajriba orqali boshqarish imkonini beradi;

- individual tafovutlar va individual xususiyatlar;

- o'zini-o'zi boshqarishga va bashorat qilishga qobiliyat.

SHaxs psixologiyasida ko'plab nazariyalar va mualliflarning nazariy kelishmovchiliklari mavjudligiga qaramay tadqiqotchilar shaxsning amal qilishining ba'zi jihatlari haqida yagona qarashni qo'llab-quvvatlaydilar.

Zamonaviy shaxsni o'rganuvchi tadqiqotchilarning ko'pchiligi quyidagi umumiy nazariy tamoyillarga asoslanishadi.

SHaxs psixik tuzilma va jarayonlarning murakkab tizimi bo'lib, u ko'plab osttuzilmalarning o'zaro ta'siri natijasidir. Tug'ma neyrofiziologik mexanizmalari genetik jihatdan ta'minlangandir. Biroq asab tizimining ontogenezda qanday rivojlanishi nafaqat genetik dasturlarga, balki organizmga boshqa omillarning ta'siriga ham bog'liqdir. Rivojlanish organizm va muhitning o'zaro ta'siridir. Faoliyat sub'ekti va murakkab konstruktsiya sifatida shaxs muhit bilan muntazam ta'sir jarayonida rivojlanadi va vazifalarni bajaradi.

Ijtimoiy borliq bilan o'zaro ta'sir faoliyat sub'ekti sifatida shaxsning shakllanishi uchun zamin yaratadi. Agar shaxsni insonni bir butun yaxlit tuzilma sifatida qabul qilinsa va tarkibini butun hayoti davomini tahlili qilish orqali tushunilsagini o'zaro muvofiqlikka ega va uzluksiz deb tavsiflash mumkin.

SHaxsni kishining ichki tajribasi, uning xulq-atvori zamirida yotuvchi ichki motivlar sifatida ta'riflash mumkin (Kloninger S).SHunday qilib shaxs tushunchasining betakrorligi va ko'pqirraliligi sababli psixologiyada shaxs psixologiyasi oid yaxlit (yagona) yondashuv mavjud emas..

SHaxs psixologiyasiga oid zamonaviy nazariy va empirik tadqiqotlarda ikkita katta yo'nalish va blokni ajratish mumkin. Birinchi yo'nalish– shaxs psixologiyasiga oid umumnazariy muammolarni umumilmiy va umummetodologik muammo sifatida ifodalash zarur. Ikkinchi yo'nalish – inson tabiatini turli tadqiqotchilarning yondashuv va qarashlari asosida o'rganish kerak. Boshqacha qilib aytganda zamonaviy shaxs nazariyalari inson tabiati to'g'risidagi personologlarning tasavvurlarini asos qilib olishi kerak. Personolog termini Genri Myurrey tomonidan kiritilgan bo'lib shaxs psixologiyasi sohasida faoliyat olib boradigan eksperimentator va nazariyotchilarni ifodalash maqsadida qo'llagan.

A.G.Asmolov shaxs psixologiyasi predmeti o'rganish uchun tayanch nuqta sifatida quyidagi yo'nalishlarni olishni taklif qiladi:

Birinchi yo'nalish- “individ” va “shaxs” tushunchalarini ajratish. “SHaxs ≠ individ; Bu individ tomonidan jamiyatda, ijtimoiy munosabatlar jarayonida o'zlashtiriladigan muhim xususiyatdir. Boshqacha qilib aytganda shaxs tizimli “yuqorisezuvchan” sifat bo'lib, bu sifatning tashuvchisi to'la his qila oladigan, ma'lum jismoniy tuzilishga ega tug'ma orttirilgan xususiyatlar sohibi bo'lgan individdir”. (Leont'ev A.N., 1983, 385 bet). Mazkur tushunchalarni bunday ajratish shaxsda biologik va ijtimoiylikning o'zaro ta'siri masalasi bilan to'qnashtiradi.

Ikkinchi yo'nalish – shaxsning rivojlanish determinatsiyasini ajratish.

Uchinchi yo'nalish- predmetli faoliyatni shaxsning tizim hosil qiluvchi asosi sifatida ajratish.

SHaxs haqida ma'lumot to'plashning uchta asosiy metodlari farqlanadi.

Birinchi metod- inson xulq-atvorini kundalik hayoti davomida qayd etib borish. Bu usul tashqi kuzatishga asoslanib shaxsning aniq sa'i-harakatlari va muvaffaqiyatlarini tashqi kuzatish va qayd etishga asoslanadi. Mazkur usul yordamida olingan ma'lumotlarni L – ma'lumotlar deb atash qabul qilingan. Ko'p hollarda L – ma'lumotlar boshqa metodning validligini o'lchash maqsadida tashqi mezon sifatida qo'llaniladi. Uning kamchiligi ortiqcha sub'ektivligidir.

Ikkinchi metod- o'ziga o'zi hisob berishga asoslangan turli so'rovnoma va metodikalarni qo'llash. SHunga o'xshash tadqiqot natijalari Q – ma'lumotlar deb atalib, ular o'zining qulayligi, axborot olishning osonligi bilan shaxsga oid tadqiqotlarda markaziy o'rinni egallaydi. Biroq bu metod ham kamchiliklardan xoli emas. Mazkur metod o'ziga o'zi hisob berishga asoslanganligi bois ba'ji ma'lumotlar qisqartirilgan bo'lishi mumkin. Bunday qisqarishlar tekshiriluvchilarning madaniy va intellektual taraqqiyotining pastligi, motivatsiyasining tabiati, noto'g'ri etalonlardan foydalanilganligi bois kuzatilishi mumkin.

Uchinchi metod- – ob'ektiv ma'lumotlarni qayd etishga asoslangan. Bunday metodlar yordamida olingan ma'lumotlar T – ma'lumotlar deb ataladi. Mazkur metodning kamchiligi yuqori darajada ko'p mehnat talab qilishi va natijalarni rasmiylashtirishning murakkabligidadir.

Yuqorida sanab o'tilgan metodlardan eng ko'p qo'llaniladigan so'rovnomalardir. Buning sababi ularning soddaligida emas, balki ular yordamida turli shaxs konstruktlerini tuzish imkonining mavjudligi va asosida mualliflarning shaxs xususiyatlari haqidagi tasavvurlari yotishidir. SHuningdek so'rovnomalarning ommaviylashib ketishi yangi metodikalar ishlab chiqishga matematik usullarni qo'llash imkonining mavjudligidir.

So'rovnomalalar asosida shaxsni o'rganishning ikkita asosiy yo'nalishi mavjud: shaxs xislatlarini ajratishga yondashishi – so'nggi bazis sifatlar to'plami mavjudligini taqazo etadi, va shaxs tafovutlari uning ifodalanish darajasiga ko'ra aniqlanadi; tipologik yondashuv – shaxs tipi yaxlit tuzilma bo'lib, alohida shaxs

omillarining shunchaki kombinatsiyasi (birikuvi) emas dugan postulatlan kelib chiqadi. Mazkur yondashuvlarni alohida tahlil qilish mumkin:

Xislatlar bir-biriga bog'liq belgi (psixologik xususiyatlarni birlashtiradi va shu guruhga kiruvchi belgilar haqidagi ma'lumotlarni birlashtiruvchi integral xususiyat sifatida namoyon bo'ladi. Xislatlar miqdori shaxsiy makonning ko'lami bilan belgilanadi. Tiplar o'xshash tekshiriluvchilar guruhini birlashtiradi va boshqa izohlovchi tushunchalar to'plamini tashkil etadi. Bunda tushunchaning nomi sifatida mos tipning nomi qabul qilinadi, mazmuni esa tipik (o'rtacha) ishtirokchining tavsifi bo'yicha amalga oshiriladi. SHunday qilib, xislatlarga asoslangan yondashuv shaxs belgilarini guruhlashtirishni, tiplarga asoslangan yondashuv esa tekshiriluvchilarni guruhlashtirishni talab qiladi. Har ikki vazifani hal etishning maxsus matematik metod va modullari mavjud. Ko'p hollarda belgilarni guruhlashtirish uchun omilli tahlil, tekshiriluvchilarni guruhlashtirish uchun esa avtomatik tasniflash metodidan foydalaniladi. Bu metodlar eksperimental ma'lumotlar ichida umumlashtirishni shakllantirishning ikki usulidir. Ular belgilar tekshiriluvchilar o'rtasidagi aloqalar tarkibining bir xil emasligini qisqartirish imkonini beradi. Zamonaviy kompyuter vositalari test va so'rovnoma natijalarini qayta ishlashni bir muncha osonlashtiradi. SHuningdek psixologik vazifalarni yechish uchun modellashtirish metodlaridan ham foydalanish mumkin.

2-mavzu: Individ, shaxs, individuallik

Reja:

1. SHaxsni tadqiq etishning qisqacha tarixi
2. Individ sifatida odam haqida umumiy tushuncha.
3. SHaxs sifatida odam haqidagi umumiy tasavvurlar
4. SHaxs va individuallik

Tayanch so'z va iboralar: shaxs, individ, individuallik, ijtimoiy-biologik, faoliyat, ob'ekt va sub'ekt.

Inson tabiatini o'rganishdagi eng dolzarb muammolardan biri ijtimoiy-biologik

muammodir. Odam haqida gapirilganda bu soʻzning uch xil mazmunini nazarda tutish mumkin: odam biologik tur sifatida-Homo sapiens, odam individ sifatida, va odam ijtimoiy uyushgan insoniyat sifatida. Bizning muhokamamiz uchun predmeti shaxs tushunchasi ekan, ijtimoiy-biologik munosabatlar nuqtai nazaridan insonni individ sifatidagi jihatlari muhim ahamiyatga egadir. SHaxs va individning munosabatlari bilan bogʻliq muammo shaxs psixologiyasining eng muhim va qiziqarli masalalaridan biridir. Individ nima? “SHaxs” va “individ” tushunchalari bir-biri bilan qanday munosabatda boʻladi? Mazkur savollarga javob berishga harakat qilamiz. Odam tushunchasi inson individi uchun xos boʻlgan turga tegishli xususiyatlarni aks ettiradi va uning odam turiga mansub ekanligini ifodalaydi. “Odam” tushunchasida ong, til, mehnat bilan bogʻliq biologik tuzilishga ega umumiy va turga xos belgilar qayd etiladi. SHuning uchun ham u individningsh eng umumiy va mavhum tavsifidan iborat hamda boshqa yuqorida keltirib oʻtilgan tushunchalar bilan beriladigan qoʻshimcha izohlarga zarurat paydo boʻladi. Individ tushunchasi insoniyat turiga mansub alohida odamni aks ettiradi, u ayni paytda ham tabiat, ham jamiyatga tegishli boʻlganligi sababli ham, “organizm”, “shaxs” degan tushunchalar bilan qayd etiladi. Agar ulardan birinchisi odamning biologik xususiyatlarini ifodalasa, ikkinchisi uning ijtimoiy qiyofasini aks ettiradi. B.G.Ananʼev oʻzining inson individini nazariy tavsiflash haqidagi nazariyasida quyidagi tushunchalar tizimini ilgari surdi:

individ –shaxs (odam faoliyat va bilish jarayonining subʼekti sifatida) – individuallik. «Individ – asosan insonning biologik xususiyatlari yigʻindisi; shaxs – insonning ijtimoiy va psixologik xarakteristikasi: odam faoliyat va bilish jarayonining subʼekti sifatida – uning bilish va psixologik xususiyatlari yigʻindisi; individuallik – individning barcha tomonlari sintezi». B.G.Ananʼev individ tushunchasining mohiyatini toʻla ochib berish uchun inson tabiatiga xos boʻlgan ijtimoiy va biologik xususiyatlarni bir butun holda qoʻllashga muvaffaq boʻlgan. Individ tushunchasi bilan biz insonni biologik jihatdan yoki ijtimoiy jihatdan qabul qilishimizdan qatʼiy nazar har qanday alohida kishiga nisbatan qoʻllanilishi mumkin. Uning biologik tabiatini

ifodalash uchun «organizm» tushunchasi qo'llanilib, insonning biologik mavjudot sifatidagi xususiyatlarining tizimli birligini aks ettiradi. Mavjud ta'riflarga ko'ra, "Individ- alohida, yakka holda qayd etilgan, u yoki bu usullarga asoslanib ajratib olingan predmet, har bir o'ziga xos mavjudot, o'z holicha mustaqil yashovchi tirik organizm, insoniyat jamoasidan farqli o'laroq alohida inson shaxsi". "Inson individi tushunchasi faqatgina insonlik turiga mansublikni ifodalaydi va o'z ichiga hech qanday aniq ijtimoiy va psixologik xarakteristikalarni olmaydi". Individ tushunchasi insoniyat turining alohida vakilini ifodalaydi va u tabiatga tegishli bo'ladi. Alohidalik darajasida biz individ tushunchasiga murojaat qilamiz. Individ –ba'zi jamiyatlarning "birligidir". Ushbu ma'noda individ tushunchasi ko'plab fanlarda qo'llaniladi. "Sotsial individ", "biologik individ" degan tushunchalarni turli fanlarda tez-tez uchratish mumkin. Mazkur tushuncha mavhum bo'lib, u konkret individlar qanday mavjud ekanligini to'liq ko'rsatib bera olmaydi. SHaxssizlik-individning xarakteristikasi bo'lib, u boshqa shaxslar uchun befarq, uning mavjudligi ham, yo'qligi ham ularning hayotida hech qanday ahamiyatga ega bo'lmaydi. Biroq inson dunyoga jamiyatning to'la huquqli a'zosi sifatida keladi va shu daqiqadan boshlab hayvonot olamidanda farqli o'laroq, individ nomini oladi va Homo sapiens(aqlli odam) turining vakili, uzoq taraqqiyotning mahsuli, individual o'ziga xos sifatlar tashuvchisi sifatida namoyon bo'ladi. Aniq inson haqida individ deyish yetarli emas. "Individ"-aniq sub'ektning bo'linmasligi, yaxlitligi va o'ziga xosligini ifodalaydi. Individning shakllanishi filogenezdanda boshlanadi. Yaxlit bir butun tuzilma sifatida individ turning biologik evolyutsiyasi mahsuli bo'lib, bu jarayonda organlar va funktsiyalarning differentsiatsiyasi (ixtisoslashuvi) va integratsiyalashuvi (birlashishi) vujudga keladi.

Individ – avvalo genotipik (nasliy) tuzilma bo'lib, u filogenez mahsulidir. Biroq individ genotipik tuzilma bo'lib qolmasdan, balki uning rivojlanishi ontogenezdanda ham davom etadi. SHuning uchun ham individning xarakteristikasiga ontogenezdanda shakllangan va integratsiyalashgan xususiyatlari ham kiradi. Ontogenez – individual

organizmning rivojlanish jarayoni, insonning tug'ilgandan to umrining oxirigacha bo'lgan individual rivojlanish davri. Ontogenez – individ psixikasining asosiy tuzilmalarining individual rivojlanish davridagi shakllanishidir. Filogenez – 1) inson va hayvon psixikasi va xulq-atvorining paydo bo'lishi, tarixiy rivojlanish jarayoni; 2) insoniyat tarixi davomida inson ongining paydo bo'lishi va rivojlanishi. Biroq biologik mavjudot bo'lish bilan birga individ ayni paytda ijtimoiy hamdir. Ijtimoiy mavjudot sifatida individ, bir tomondan turli-tuman ijtimoiy komponentlarning o'zaro kesishuvi bo'lsa, ikkinchi tomondan insoniyat tuzilmasining noyob, o'ziga xos borlig'idir. SHunday qilib, «individ» tushunchasi uning bo'linmasligi, yaxlitligi, alohida sub'ektga xosligi, alohida tabiiy mavjudotligi, uzoq davom etgan taraqqiyot mahsuli, individual sifatlarning tashuvchisi ekanligini ifodalaydi. Individ o'zida odamning ham biologik, ham ijtimoiy xususiyatlarini namoyon etadi. O'z taraqqiyotida u filogenetik, ontogenetik va ijtimoiy rivojlanish bosqichlarini bosib o'tadi. Individ rivojlanishining ijtimoiy dasturi uning ijtimoiy mavjudot ekanligini ifodalaydi va individ rivojlanishining shaxsiyatli komponentini tashkil etadi.

SHaxs eng ko'p mazmunli tushunchalardan bo'lib, uning bunday ko'pmazmunliligi tushuncha bilan emas, balki uni izohlash bilan bog'liq nazariyalarga aloqadordir.

Eng muhim muammo qanday qilib mavjud turli ta'riflarni bir-biri bilan uyg'unlashtirishdir. Odatiy tasavvurlarda uchta birtomonlama yondashuvlar o'z aksini topadi. Birinchisiga ko'ra, “har bir odam shaxsdir” (shaxsning Homo sapiens bilan ekvivalentligi mezoni), ikkinchisiga ko'ra, “shaxs o'zining mustaqil maqomiga (pozitsiyasi) ega odam” (sub'ektivlik mezoni), uchinchisiga ko'ra, “shaxs- mashhur odam” (odamning jamiyatdagi o'rni mezoni). Psixofiziologik muammo shaxs psixologiyasidagi eng asosiy masala bo'lib, u shaxs va organizm munosabatlari masalasini transformatsiya qiladi (ko'chiradi). Inson individini ifodalash uchun ikkita- organizm va shaxs tushunchalari qo'llanilgan. Organizm odamning biologik tabiatini aks ettiruvchi

barcha xususiyatlarining yig'indisini ifodalaydi va biologiya fanlarining o'rganish predmeti hisoblanadi. SHaxs tushunchasi o'zida inson tabiatining ob'ektiv sifatlarining eng oliy xislatlari va birlashtiruvchi funktsiyalarini aks ettiradi. Insonning tirik mavjudot ekanligi va biologik qonuniyatlarga bo'ysunishi hech kimda shubha tug'dirmaydi. SHuningdek uning ijtimoiy mavjudot ekanligi ham barchaga ma'lum. O'z navbatida individning tabiiy, organik tomonlari va individning sifatlari shaxs tarkibida mavjud hamda ijtimoiy ta'minlangan elementlaridir. SHaxs tarkibidagi biologik xususiyatlari ijtimoiy shaklda namoyon bo'ladi. "SHaxs" va "individ" tushunchalarining birligi va aynan bir narsa emasligi ko'plab savollarni vujudga keltiradi. Ular orasida eng muhimi "shaxs" iborasi bilan ataladigan individning tizimli sifatlari qanday xususiyatlarga ega ekanligidir. A.N. Leont'ev shunday yozadi: «SHaxs individga teng emas; bu maxsus xususiyat o'z tabiatiga ko'ra individ tomonidan jamiyatda, u jalb qilingan ijtimoiy munosabatlar tizimida o'zlashtirib olinadi". "SHaxs" va "individ" tushunchalarini farqlash shaxsni tahlil qilish uchun imkoniyat yaratadi. SHaxs tushunchasi biz tomonimizdan odamga nisbatan uning rivojlanishidagi ma'lum bosqichlaridan boshlab qo'llaniladi. Individning ibtidosi esa embriogenezdanda boshlanadi. Go'dak kattalar bilan munosabatda bo'lmaguncha, ijtimoiy muhitga to'la qo'shilmaguncha shubhasiz individ, hali shaxs emas, u shaxsning shakllanish jarayonida. "Hayvon shaxsi", "CHAqaloq shaxsi" degan iboralarni qo'llamaymiz. Hech kim hayvon va chaqaloq individi, uning individual xususiyatlari (qo'zg'aluvchan, xotirjam, tajovuzkor) deb aytishda qiyinchilikka uchramaydi. Hatto ikki yoshli bolaning shaxsi haqida nafaqat genotipik, balki ijtimoiy muhit ta'sirida o'zlashtirilgan ko'plab xususiyatlarni namoyon etsa ham jiddiy gapirib bo'lmaydi. Individ tushunchasi kabi shaxs tushunchasi ham sub'ektning yaxlitligini ifodalaydi, u alohida xususiyatlar yig'indisi emas, yaxlit bir butun tizimdan tashkil topgan tuzilmadir. SHaxs esa genotipik jihatdan shartlangan, bo'linmas jihat emas, shaxs bo'lib tug'ilmaydi, shaxs sifatida shakllanadi. SHuning uchun ham biz ontogeneznning turli bosqichlaridagi kattalik davridan uncha kam bo'lmagan

individual xususiyatlarga ega bo'lsa ham chaqaloq yoki go'dak shaxsi haqida gapirmaymiz. A.N.Leont'evning ko'rsatishicha, "shaxs inson ontogenetik va ijtimoiy-tarixiy taraqqiyotining nisbatan kechroq mahsulidir". SHaxsning ibtidosi individ ibtidosidan ancha kechroq boshlanadi. SHaxs shakllanishining tarixi individning ontogenetik evolyutsiyasiga ta'siri ontogenezning ma'lum bosqichida namoyon bo'ladi, hamda shaxsning ijtimoiy faolligi oshishi va hayotiy tajriba to'plashi bilan ortib boradi. Individning shakllanishi ontogenetik rivojlanishda ya'ni uning barqaror omillari ta'sirida genotipik xususiyatlarning yetilish jarayoni natijasidir. Aynan mana shunday talqin ko'plab zamonaviy nazariyalar uchun xosdir.

Odam tabiiy mavjudot sifatida individdir, u o'ziga xos gavda tuzilishi (konstitutsiya), asab tizimi tipi, temperament, biologik ehtiyojlarning dinamik quvvatiga ega bo'lib, ontogenetik rivojlanish davomida ularning ayrimlari kengayib borsa, ba'zilar o'zgarib boradi.

Biroq shaxsni odamning tug'ma xususiyatlari o'zgarishi vujudga keltirmaydi. SHaxs maxsus insoniy tuzilmadir. Bir yaxlit tuzilma (individ)ning xususiyati boshqa xususiyat(shaxs)ga shunchaki o'tmaydi. Bu holatda birinchisi yo'q bo'lib ketadi. SHubhasiz, ular individ sifatida saqlanib qoladi. Masalan, individning oliy nerv faoliyati xususiyati hech qachon shaxs xususiyati bo'la olmaydi. A.N.Leont'evning ta'kidlashicha, "asab tizimining faoliyati shaxs shakllanishi uchun asos bo'lib xizmat qilsa ham, shaxs quriladigan "skelet" vazifasini o'tay olmaydi. Bu fikrlarga mos holda quyidagi shaxs ta'rifini shakllantirish mumkin: shaxs psixologik tuzilma va inson ijtimoiy individualligining birligidir. K.Obuxovskiyning fikricha: "SHaxs – odamning ijtimoiy tarixiy jihatdan shartlangan psixologik xususiyatlari tuzilmasi bo'lib, uni yaxshi bilish xatti-harakatlarini oldindan bilish(bashorat qilish) va tushuntirish imkonini beradi. SHuning uchun har qanday nazariyaning oldida undagi psixologik va ijtimoiy jihatlarning o'zaro nisbatini aniqlash vazifasi turadi. SHaxs tizim sifatida psixologik tuzilma va ijtimoiy borliqning birligida namoyon bo'ladi, shaxsning ijtimoiy mohiyatini ifodalaydi. "SHaxs"

tushunchasi yaxlit insonning individual qobiliyatlari va ijtimoiy rollarning bajarilishi birligini ifodalaydi. Ijtimoiy tabiatga ega shaxsning barcha rollari va o'zini-o'zi anglashi ijtimoiy taraqqiyot mahsulidir. SHaxs individ sifatida jarayonlarning integratsiyalashuvi natijasi bo'lib, sub'ektning hayotiy munosabatlarida namoyon bo'ladi. A.N.Leont'evning ko'rsatishicha, shaxs deb atalayotgan tuzilmaning muhim farqi mavjud bo'lib, predmetli faoliyatda namoyon bo'ladigan ijtimoiy munosabatlardir. Predmetli faoliyatning har qanlay turi va shakllari o'zining ichki tuzilishiga ko'ra umumiylikka ega va anglangan holda boshqariladi. Ijtimoiy munosabatlar individning ijtimoiy sifati bo'lgan shaxsning, bir qismi, tomoni, jihatidir. Boshqa tirik organizmlardan farqli o'laroq odamning mohiyatini ijtimoiy munosabatlar yig'indisi tashkil etadi. "SHaxs- tarixiy jihatdan ta'minlangan aql-idrokka, jamiyat oldida mas'uliyatlilikka ega, muayyan ichki sifatlari, huquq va erkinliklaridan foydalanuvchi, o'z sinfi va davrining ideallariga mos keluvchi hayot tarziga amal qiluvchi va jamiyat taraqqiyotiga hissa qo'shuvchi odamdir". Vositali faoliyat nazariyasiga ko'ra shaxsni barqaror shaxslararo munosabatlar tizimida, hamkorlikdagi faoliyatning har bir ishtirokchisi uchun o'ziga xos mazmun, qadriyat, ahamiyatga ega faoliyat jarayonida deb qaralsagina to'g'ri tushunilishi mumkin. SHaxslararo aloqalar jarayonida shaxs individning jismoniy borlig'idan farq qiluvchi o'z borlig'iga ega bo'ladi, ikki individ (uyushma va guruh) shaxsning tashuvchisi sifatida namoyon bo'ladi.

Individuallik shaxs xususiyati sifatida. Individuallikning mohiyati individning o'z borlig'iga ega bo'lishi, aynan o'zi bo'lib qolishi, boshqa yaxlit tizimda mustaqil faoliyat olib borishidir.

Odamning individualligi - har bir individning betakror, biroq u o'zining atrofidagi ijtimoiy borliqdagi biror guruhga mansub bo'lsa ham o'zining mustaqilligini yo'qotmaydi, o'zligiga ega sub'ekt sifatida saqlanib qoladi. Individual o'zlik individuallikning barcha belgilarida aks etadi. Biroq individuallik betakrorligining tub mohiyati individning tashqi qiyofasi bilan bog'liq bo'libgina qolmay, balki faoliyat sub'ekti sifatida o'ziga xos uslublarda

ham namoyon bo'ladi. Individuallikni kishining jamiyatdagi hayot tarzining alohida shakli deb atash mumkin. SHaxs va individuallik tushunchalarini taqqoslar ekanmiz, ularni bir qatorga qo'yib bo'lmaydi, chunki individuallik shaxsning bir xususiyatidir. SHaxs tushunchasida odamning alohida individ sifatida ijtimoiy ahamiyatga ega xislatlari aks etadi. Biroq shaxsning mohiyati ijtimoiy munosabatlari personifikatsiyasi (shaxsiyatlashuvi) bo'lsa, alohida shaxs o'zining ijtimoiy mohiyatini individuallik shaklida namoyon etadi. Individuallikda o'z qiyofasini yaratadi, o'z hatti-xarakatlarining "muallifi"ga aylanadi. "Agar shaxs inson xususiyatlari tarkibining eng yuqori "cho'qqisi" bo'lsa, u holda individuallik shaxs va faoliyat sub'ekining eng chuqur tuzilmasidir. Individuallikdan, o'zligidan xoli shaxs mavhum va real mavjud bo'la olmaydi. Agar inson individi o'zining ijtimoiy mohiyatini o'zlashtirmay turib shaxs bo'la olmas ekan, u holda individuallikka ega bo'lmay turib o'z borlig'ini ham topa olmaydi. SHunday qilib shaxs o'z mohiyatiga ko'ra ijtimoiy, yashash usuliga ko'ra individualdir. Unda ijtimoiylik va individuallik, mohiyat va mavjudlikning birligi mujassamdir. SHaxs va individuallik nafaqat o'zaro bog'liq, balki bir-birini o'zaro ta'minlaydi. Odam shaxsi sifatlarining shakllanishi o'zini-o'zi anglash bilan o'zaro aloqadordir. Alohida olingan odamning xulq-atvori, o'zining ijtimoiy rol va vaifalariga munosabati uning individual ongi, riovjlanish darajasi hamda individual xususiyatlariga bog'litqdir. SHunday qilib, individuallik, nafaqat shaxs bilan aloqador, balki uning eng muhim xislatini ham tashkil etadi. SHuning uchun u ham shaxsning ta'rifi tarkibiga kirish kerak.

Individuallik tushunchasi to'laligicha shaxs tushunchasi bilan mos kelmaydi. Agar shaxs tushunchasi odamning ijtimoiy ta'minlangan jihatlarini, ijtimoiy mamunini ifodalasa, ijtimoiy maqomi va qadriyatlarini aks ettirsa, individuallik tushunchasi uning turmushi shakli va usullarini ochib beradi. Tabiiy xususiyatlar o'z-o'zidan individuallikni shakllantirmaydi. Odam individi individuallikka aylanishi uchun u "birlik", "nusxa" bo'lishdan to'xtab o'z borlig'ida mustaqillikka ega bo'lishi kerak. Individuallik – bu alohida

shaxsning muhim shakllangan xususiyati bo'lib, u tabiiy va ijtimoiy xossalarning, ong va faoliyatning birligidir. SHunday qilib, individuallik predmetli olamda, tabiatda va kishilik jamiyatida namoyon bo'ladi. SHunga muvofiq tarzda uning uchta: predmetli, biologik va ijtimoiy shaklini farqlash mumkin".

Individuallikning eng muhim ta'rifiga ko'ra, u alohida odamning o'zligini aks ettiradi. SHaxs tushunchasi odamni ijtimoiy mamunini ifodalasa, individuallik tushunchasi uning hayot uslubi va shakllarini aks ettiradi. Individuallik tushunchasi odamning individuallashtirish jarayoni o'zligi va betakrorligining shakllanishi va rivojlanishi bilan chambarchas bog'liqdir. Umuman olganda shaxsning individualligi hayoti davomida jamiyatda o'zlashtirib boriladigan, qadriyatlar ierarxiyasida mo'ljal olishni ta'minlaydigan, motivlar kurashi paytida xulq-atvorini naorat qila oladigan, muloqot va faoliyat jarayonida, boshqalarda va o'z-o'zida ohir bo'ladigan mazmunli munosabatlar va yo'l-yo'riqlar yig'indisidir.

3-mavzu: Shaxs shakllanishi va rivojlanishining harakatga keltiruvchi kuchlari va shart-sharoitlari

Reja:

1. Shaxs shakllanishi va rivojlanishining biogenetik yo'nalishi.
2. Shaxs shakllanishi va rivojlanishining sotsiogenetik yo'nalishi.
3. Ontogenezda shaxs shakllanishi.
4. Rus psixologiyasida shaxs tuzilishini o'rganishning turli yo'nalishlari.

Tayanch so'z va iboralar:

Fanning abadiy muammolaridan biri odamdagi biologik va ijtimoiylikning o'zaro ta'siri masalasidir. Psixologiyada bu muammo turlicha nomlar bilan atab kelingan: irsiyat va muhitning munosabati, shaxs shakllanishidagi sub'ektiv va ob'ektiv omillar, "hayvonlik" darajasi va "insoniylik» darajasi; shaxs xulq-atvorining sabablarini tushuntirishda «vaziyat» va «dispozitsiya»(shaxs xislatlari, tajriba, layoqatlar)larning roli; shaxs rivojlanishining ichki va tashqi determinatsiyalari; shaxsning xatti-harakati va olamni idrok qilishida ijtimoiylik va

individuallikning o'zaro nisbati va boshqalar. Bu muammo o'z navbatida shaxs psixologiyasining eng markaiy masalalaridan biridir. "Muhit" nazariyalariga ko'ra, odam unga o'zaro ta'sir etuvchi vaziyatlarning natijasi bo'lib, ularga asoslanib shaxs hayotining umumiy qonuniyatlarini tahlil qilish mumkin. Bola shaxsining bog'chada, maktabda, sport maydonchasida, oilada o'garishi mumkinligini hech kim inkor eta olmaydi. Boshqa kishilar ta'sirida bola turli ijtimoiy rollardan nusxa ko'chiradi, ularga taqlid qiladi. Turli madaniyat kishilarida turli urf-odat, an'ana va xulq-atvor stereotiplarini kuatish mumkin. Mazkur "tashqi" omillar ta'sirin tahlil qilmasdan turib insonning xulq-atvorini oldindan bilish juda qiyin. "Muhit" naariyasi namoyondalari mana shu faktlar asosida o'z qarashlarini ifodalaydilar. "Irsiyat" nazariyasi shaxsning xulqi va shakllanishini tug'ma layoqat, kishining tana tuzilishi (konstitutsiyasi) va genotipi bilan bog'lab tushuntiradilar. Bu nazariya tarafdorlarining fikricha, "muhit" qanchalik xalaqit bermasin, haqiqiy talantlar o'iga yo'l ochib oladi, ularning layoqati hatto eng noqulay tashqi sharoitda ham rivojlanishi mumkin. Biogenetik yondashuv namoyondalari tabiatni odamning rivojlanishi manbai va harakatlantiruvchi kuchi deb bilishadi. Rivojlanishning asosiy determinanti deb irsiyat e'tirof etishadi. Rivojlanish sifat jihatdan yangining paydo bo'lishi emas, balki avval mavjud bo'lgan layoqatlarning namoyon bo'lishi deb qaraladi. Bu yondashuv tarafdorlari psixik rivojlanishning endogen(ichki) sabablariga ko'proq urg'u berishadi. Makur yondashuv tarafdorlarining asoslaridan biriga ko'ra, I.S.Baxlar shajarasida o'nlab musiqachilar bo'lishgan. Ularning fikricha, bu musiqiy qobiliyatlarning bir avloddan boshqasiga o'tishiga yaqqol misol bo'la oladi. Dastlabki biogenetik nazariyalardan biri S. Xollning rekapitulyatsiya nazariyasidir. Uning fikricha, bola o'z taraqqiyotida insoniyat taraqqiyotini qisqacha takrorlaydi. U o'zining qonunini shakllantirdi, ya'ni ontogenez insoniyat jamiyati taraqqiyoti tarixining qisqacha takrorlanishidir.

O'tgan ajdodlarimiz yosh psixologiyasining muammolarini izchil va atroflicha, muayyan yo'nalishda, ma'lum kontseptsiya asosida o'rganmagan bo'lsalar ham, allomalarning asarlarida mazkur holatlarnng aks etishi, namoyon bo'lishi,

rivojlanish va o'zgarishlari to'g'risida qimmatli fikrlar bildirilgan. Bular to'rt xil manbalarda uchraydi. Ularning biri – xalq ijodiyoti: rivoyatlar, maqollar, matallar va masallar; ikkinchisi – maxsus ijodkor kishilar (hatto, hukmdorlar) muayyan shaxsga bag'ishlab yozgan o'g'it-nasihati va hikoyatlar; uchinchi – qomusiy, O'rta Osiyo mutafakkirlarining ilmiy-nazariy qarashlari; to'rtinchi – turli davrlarda ijod qilgan shoir va yozuvchilar ijodining mahsullari, ya'ni badiiy asarlardir.

Abu Nasr Forobiyning inson va uning psixikasi haqidagi axloqiy-falsafiy mushohadalari «Ideal shahar aholisining fikrlari», «Masalalar mohiyati», «Falsafiy savollar va ularga javoblar», «Jism va aksidentsiyalarning shakllariga qarab bo'linishi», «SHarxlardan», «hikmat ma'nolari», «Aql ma'nolari to'g'risida» kabi qator asarlarida bayon etilgan. Abu Rayxon Beruniy o'zining «O'tmish yodgorliklari» kitobida inson hayotiga doir xilma-xil ma'lumotlarni keltiradi. SHu jumladan, olim kishilarning jismoniy tuzilishi, umrlarining uzun-qisqaligi to'g'risida bildirgan muloxazalar diqqatga sazovordir. Beruniy odam uzoq vaqt yashashining sababini biologik va irsiy omillar bilan bog'laydi. Bu jihatdan uning «Xindiston», «Mineralogiya» asarlari, Ibn Sino bilan yozishmalari alohida ahamiyatga ega.

Ibn Sinoning 5 tomlik «Tib qonunlari» asarida organizmning tuzilishi, undagi nervlar va nerv yo'llari, fiziologik jarayonlar bilan borliq psixik jarayonlar haqida ancha muhim ma'lumotlar bor. Uning «Odob haqida» risolasi ham inson shaxsini shakllantirish to'g'risidagi jiddiy asardir.

Yusuf Xos Xojibning «Qutadg'u bilig» asaridagi bosh masalalardan biri komil insonni tarbiyalashdir. Adib o'z asarida eng komil, jamiyatning o'sha davrdagi talabalariga javob bera oladigan insonni qanday tasavvur qilgan bo'lsa, shu asosda o'z printsiplarini bo'yon etadi. A. Jomiyning «Bahoriston», «Xiradnomai Iskandariy», «Tuhfatul ahror», «Silsilatuz zahob» va boshqa asarlarida ilm-ma'rifat, ta'lim-tarbiya, kasb-hunar, o'rganish, yaxshi xislatlar va odoblilik haqidagi fikrlar ifodalangan.

Davoniy o'zining «Ahloqi Jaloliy» nomli asarida insoniy fazilatlarini to'rtta bo'ladi va bular donolik, adolat, shijoat va iffatdir. SHoir, ayniqsa donolik fazilatini

chuqur tahlil qiladi. Uningcha, inson o'zining aqliy qobiliyati va aqliy iste'dodini tarbiyalash uchun zukko, zehni, fahm-farosatli bo'lishi va bilimlarni tez egallashi lozim.

A. Navoiyning «Xazoyinul maoniy», «Mahbubul qulub» va boshqa asarlarida yetuk, barkamol insonning ahloqi, ma'naviyati, odamlarga munosabati, iste'dodi va qobiliyati to'g'risida qimmatli mulohazalar yuritilgan. Ana shu psixologik kategoriyalar ijtimoiy adolat qaror topishi uchun muhimahamiatga ega ekani ta'kidlangan. SHuningdek, Navoiy asarlarida shaxsning kamol topishida ota-onaning roli, ayollarning iffatliligi, insonlarning kamtarligi masalalari alohida o'rin egallaydi. Navoiy «Xamsa»sining har bir dostonida bukilmas iroda, irodaviy sifatlar, qat'iyalilik, shijoat, insonparvarlik tuyg'ulari, ijodiy hayolot, insonning murakkab ichki kechinmalari mohirona yoritilgan.

Yuqoridagilardan tashqari, Bobur, Farog'iy, Majlisiy, Mashrab, Gulxaniy, Nodira, Uvaysiy, Muqimiy, Furqat, Bedil, Zavqiy, Hamza, Avloniy va boshqalarning yoshlar tarbiyasiga, axloq-odob, fe'l-atvor, oilaviy hayot masalalariga, shaxslararo munosabatlarga doir qarashlari ham turli janrlardagi asarlarda ravon va ixcham bayon qilib berilgan.

XVII asrdan boshlab to bizning davrgacha ikki okim ya'ni, falsafa va psixologiya o'rtasida ruxiy taraqqiyot omillari yuzasidan keskin tortishuvlar boradi:

Birinchi okim psixik o'sishni butunlay «tug'ma ideyalar»belgilaydi deydi.

Ikkinchi okim psixik o'sishni butunlay muhitga va turmush tajribasiga bog'liq deydi.

«Tug'ma ideyalar» degan nazariyaning namoyondasi Dekart (1596-1650) edi.

Uning fikricha, tug'ma ideya intellektda boshlang'ich xolatda bo'ladi. Bu ideyalar moyillik sifatida «tug'ma» bo'lib, faqat keyinchalik to'la anglanguncha asta-sekin taraqqiy etadi. Keyinchalik bu nazariya falsafa doirasidan chiqib, burjuaziya ideologlari tomonidan keng foydalana boshlandi.

Italyan antropologi va kriminalisti **Lombrozo** (1836-1909) burjuaziyani oqlab, qashshoq halqda jinoyat qilishga moyillik bor, ya'ni jinoyatchi ota-onadan jinoyatchi bolalar tug'iladi deb davo qiladi. Bu ideologlar mustamlakachilik,

bosqinchilikni oqlab, mazlum halqlar, ayniqsa qora tanli halqlarni xudoning o'zi oq tanli kishilarga tobe qilib yaratgan deb davvo qiladilar. Nemis-fashistlarning irqchilik nazariyasi AQSHda ham ildiz otdi.

Psixologiya lagerining namoyondasi **D. Lokk** edi (1632-1704). U «Tarbiya haqidagi fikrlar» degan kitobida yangi tug'ilgan bolani toza taxtaga o'xshatadi. Psixika hayot tajribasiga bog'liqdir, hamma narsa tashqi muhitga qaramdir. Lokkning fikricha bolaning psixik o'sishi butunlay hayot sharoitiga, muhitga va tarbiya sharoitiga bog'liqdir. Tajribaga katta ahamiyat beradigan bu nazariya bir tomonlama bo'lib, irsiyatning rolini, qobiliyatlarning o'sishiga asos bo'ladigan biologik faktorlarning rolini mutloqo inkor qiladi.

Rossiyada psixologik tadqiqot namunalari SHarq va Garb madaniyati ta'sirida inson ruhiyati bilan bog'liq qator og'zaki va yozma, amaliy va ilmiy asarlarda paydo bo'la boshladi.

Dastlabki pedagogik-psixologik mazmundagi asarlar XVII-XVIII asrlarda diniy-ahloqiy negizda yozilgan edi. XVIII asrdan boshlab bolalar psixologiyasi bo'yicha muayyan tartibga, yo'nalishga va uslubga ega bo'lgan ilmiy fikrlar vujudga keladi. Rus tarixchisi V. N. Tatishchev (1686-1750) ning «Fanlar va bilim yurtlarining foydasi to'g'risida suhbat» kitobida fanlarning tasnifi, bilimlarni egallash zarurligi, tilning xosiyati, yozuvning ahamiyati, yosh davrlarining xususiyati nuqtai nazardan bayon qilingan. N. I. Novikov (1744-1818) bashariyat farovonligini ko'zlab yoshlar bolalar o'rtasida foydali bilimlarni keng yoyish uchun ularni o'ziga xos yo'sinda tarbiyalash kerakligi g'oyasini ilgari suradi. Uning asarlarida insonning kamoloti uchun tafakkur, xotira, ahloq, his-tuyg'u va taqlidchanlik alohida ahamiyat kasb etadi.

Rossiyada ilmiy psixologiyaning rivojlanishiga K. D. Ushinskiy, N. F. Kapterev, I. A. Sikorskiy, A. F. Lazurskiy kabi olimlar katta hissa qo'shdilar. N. F. Kapterovning «Pedagogik psixologiya», I. A. Sikorskiyning «Bola ruhi», A. P. Nechaevning «Hozirgi zamon eksperimental psixologiyasi va uning maktab ta'limiga munosabati», A. F. Lazurskiyning «Maktab o'quvchisining tavsifi» asarlari psixologiyaning rivojlanishiga xizmat qildi.

Rossiyada G. I. Rossolinoning «Yosh psixologiyasi va nevrologiyasi» labarotoriyasi ishga tushdi. Ushbu asarlarda insonning ijtimoiy mavjudotligi tan olinib, unga ilmiy materialistik nuqtai nazardan yondashilsada, insondagi psixologik, fiziologik va biologik jixatlar, tarkibiy qismlar tabaqalanmaydi, tashqi muxitni bosh omil deb tushuntiriladi.

Rus fiziologiyasining otasi I. M. Sechenov psixikaning reflektor xususiyatini kashf qilib, bilish jarayoni, inson his-tuyg'usi, o'zini-o'zi anglashining fiziologik mexanizmini tushuntirishi fan olamida keskin o'zgarish yasadi. I. P. Pavlov kashf etgan qator qonuniyatlar, xossalar, ikkinchi signallar sistemasi eksperimental ishlarni olib borishga puxta zamin hozirladi.

XIX asr oxiri XX asr boshlarida /arbiy Yevropa va AQSH da yosh psixologiyasi va pedagogik psixologiya fanlarida ilmiy tadqiqotlarga asoslangan qator asarlar paydo bo'ldi. Amerikalik psixolog U. Djems «O'qituvchilar bilan psixologiya to'g'risida suhbat» (1902) asarida yosh davrining xususiyatlari haqidagi ilmiy va amaliy ahamiyatga ega bo'lgan ma'lumotlarni chuqur taxlil qildi. K. Byuler xonim (1879-1963) o'zining ilmiy tadqiqotlarida faoliyatining har xil yosh davrlaridagi rolini, faoliyat turlarida fantaziya, tafakkur, nutq jarayonlarining rivojlanishini, aqliy faoliyat hamda uning rivojlanish bosqichlari (instinkt, dressura, intellekt) ni, shaxsning shakllanishida biologik va ijtimoiy omillarning ahamiyatini izchil o'rgandi.

XIX asrda biologiya tez rivojlandi. Texnika taraqqiy etib, nozik va aniq asboblar vujudga keldi. Mikroskopning takomillashtirilishi va undan keng foydalanish mikroorganizmlar dunyosini o'rganish imkonini berdi. Natijada embriologiya fani paydo bo'ldi. Yuksak darajadagi hayvonlarning embrionlari bir-biriga o'xshashligiga, ular urug'lanish (otalanish) paytiga qancha yaqin bo'lsa, o'shancha tafovut qilishiga olimlar e'tibor qilishdi.

E. Gekkel va F. Myuller biologiyada ontogenez – filogenezni qisqacha takrorlaydi degan «biogenetik qonunni» tariflab berishdi. Bu qonunning ma'nosi shuki, individning taraqqiyot tarixi avlodni taraqqiyot tarixini qisqacha va tez takrorlaydi.

Mazkur sohada tubdan farqlanuvchi g'oyalar, nazariyalar yuzaga keldi. Masalan,

amerikalik psixolog S. Xoll (1844-1924) Gekkelning evolyutsiya qonuniyatini psixologiyaga bevosita ko'chiradi. Uning fikricha, «irsiyat» filogenezni ontogenezda takrorlaydi, xolos. Bolalar xulq-atvoridagi har bir fakt insoniyat tarixi bilan bog'landi va tegishli taqqoslash izlab topildi:

- a) bolalar daraxtlarga tirmashib chiqar ekan, demak yovvoyilik davrini takrorlaydi;
- b) bolalar tuproq o'ynab unga cho'p tiqar ekan, dehqonchilik davrini takrorlaydi;
- v) bolalar kamon va o'q yasar ekan, ov va urushlar davrini takrorlaydi;
- g) bolalar marka, etiketka yig'ar ekan savdo-sotiq davrini takrorlaydi.

Ammo bolalar yovvoyilik davrini takrorlaganligi uchun emas, balki xilma-xil harakatlarga extiyoj sezganligi va muskul ishi quvonch hissi baxsh etganligi, bola xulq-atvorining harakatlantiruvchi kuchi bo'lganligi uchun daraxtlarga tirmashib chiqadi. Bolalar «ibtidoiy dehqonlar» bo'lgani uchun emas, balki qum, tuproq, plastik material bo'lganligi uchun o'ynaydilar.

SHveysariyalik psixolog E. Klapared (1873-1940) S. Xolldan farqli o'laroq, ontogenez va filogenezda psixik funktsiyaning o'sishini o'rganish uchun quyidagi holatlarga e'tibor beradi: a) organizm ehtiyojini qondirish; b) reflektor harakat to'siqqa duch kelsa, ongli harakat vujudga keladi; v) unga nisbatan ehtiyoj sezsa, u holda ma'lum faoliyat turiga yo'naltiriladi. E. Klapared «Bola psixologiyasi va eksperimental pedagogika» kitobida qiziqish, motiv, ehtiyojlarning metodologik asoslari, bolalar tafakkurining xususiyatlari va rivojlanish qonuniyatlari, ularda dastlabki umumlashtirishning sinkretligi (aralash holatdaligi), o'xshashlik va farqlanishning bola ongida aks etishi to'g'risida mulohaza yuritadi.

Frantsuz psixologi E. Dyurkgeym (1858-1917) o'sish – kishilarning his-tuyg'usini o'zlashtirish ekanini, shu boisdan, idrok qilingan tashqi fikrlar va emotsiyalar bolaning ruhiy faoliyatini ifodalashini, bola tajriba, an'ana, urf-odatlarni taqlid orqali egallashini, biologiyada irsiyat qanchalik ahamiyatli bo'lsa, taqlid ham jamiyatda shunday o'rin tutishini uqtiradi. E. Dyurkgeymning fikricha, bola taqlid qilish qobiliyati bilan tug'iladi.

Frantsuz psixologi P. Jane (1857-1947) psixik rivojlanishning biologik va ijtimoiy munosabatlar muammosi bilan shug'ullanadi.

Uning nazariyasiga binoan inson psixikasi ijtimoiy munosabatlarga bog'liq, zotan jamiyat va tabiat o'rtasidagi turli aloqalar sistemasining shakllanishi insonning o'sishini belgilaydi. U aloqa deb, xatti-harakatini tushunadi. Bu esa kishining atrof muhitga shaxsi munosabatidan boshqa narsa emas, albatta. P. Janening fikricha, eng qimmatli, ahamiyatli, ijtimoiy harakat hamkorlikdagi faoliyatda o'z ifodasini topadi, shaxslararo tashqi munosabatlar rivojlanishning printsipli hisoblanadi. P. Jane o'z tadqiqotlarida psixikaning to'rt darajasi: a) motor reaksiyasini o'sishi; b) pertseptiv harakatning o'sishi; v) shaxsiy-ijtimoiy harakatning o'sishi (o'zining harakatini boshqa kishilarga moslashtirish) ; g) intellektual sodda xatti-harakatning o'sishi (nutq va tafakkurning rivojlanishi) mavjud ekanligini asoslagan.

SHveysariyalik psixolog J. Piaje (1896-1980) insonning kamol topishini bir necha davrlarga ajratib o'rganishni tavsiya qiladi:

1. Bola – tashqi muhit – ma'lumotlarni qayta ishlash.
2. Tafakkur: a) ijtimoiy davrgacha; b) ijtimoiy davr.
3. Intellekt: a) sensomotor – 2 yoshgacha; b) operatsional davrgacha – 2-7 (8) ; v) yaqqol operatsiya davri – 7 (8) -11 (12) yoshgacha; g) rasman (formal) operatsiya davri-11 (12) -15 yoshgacha.

AQSHlik psixolog Dj. Bruner (1915) shaxsning tarkib topishi bilan ta'lim o'rtasida ikkiyoqlama aloqa mavjudligini aytib, insonning kamolot sari intilishi bilim olish samaradorligini oshirsa, o'qitishning takomillashuvi uning ijtimoiylashuvi jarayonini tezlashtiradi, deb uqtiradi.

SHu tariqa yosh psixologiyasi fani qator rivojlanish bosqichlaridan o'tib, bugungi darajasiga erishdi. Uning rivojlanishiga O'rta Osiyo allomalari, rus va chet ellar psixologlari munosib hissalarini qo'shdilar. Yuqorida aytilgan nazariyalar, amaliy va ilmiy ma'lumotlar, tadqiqotchilar yaratgan metodikalar o'z ahamiyatini saqlab kelmoqda.

Psixologiya fanida yosh davrlarini tabaqalash bo'yicha qator mustaqil nazariyalar mavjud, ular inson shaxsini tadqiq qilishga har xil nuqtai nazardan yondashadi va muammoning mohiyatini turlicha yoritadi. Ularga biogenetik, sotsiogenetik, psixogenetik, kognitivistik, psixo-analitik, bixevioristik nazariyani

kiritish mumkin.

Quyida mazkur nazariyalar va ularning ayrim namoyandalari ifodalangan yosh davrlarini tabaqalash printsiplarini ko'rib chiqamiz.

Biogenetik nazariyada insonning **biologik yetilishi** bosh omil sifatida qabul qilingan, qolgan jarayonlarning rivojlanishi ixtiyoriy bo'lib ana shu omil bilan o'zaro bog'liqdir. Mazkur nazariyaga binoan, rivojlantirishining bosh maqsadi biologik derminantlarga (aniqlovchilarga) qaratiladi va ulardan ijtimoiy-psixologik xusiyatlar kelib chiqadi.

Biogenetik qonunni F. Myuller va E. Gekkel kashf qilgan. Biogenetik qonunga ko'ra, shaxs psixologiyasining individual rivojlanishi (ontogenez) butun insoniyatning tarixiy rivojining (filogenez) asosiy bosqichlarini qisqacha takrorlaydi. Nemis psixologi V. SHternning fikricha, **chaqaloq** xali odam hisoblanmaydi balki faqat sut emizuvchi xayvondir; oltioylikdan oshgach u psixik rivoji jixatidan faqat maymunlar darajasiga tenglashadi, ikki yoshida oddiy odam xoliga keladi, besh yoshida ibtidoiy gala xolidagi odamlar darajasiga yetadi, maktabga kirganidan boshlab ibtidoiy davrni boshidan kechiradi, (ularni ongi o'rta asr kishilari darajasiga yetadi) nixoyat, yetuklik davri (16-18) yoshlaridagina hozirgi zamon kishilarining madaniy darajasiga yetadi.

Amerikalik olim S. Xoll «rekapitulyatsiya qonunini» yaъni (filogenezni qisqacha takrorlashni) psixologik o'sishning bosh qonuni deb hisoblaydi. Uning fikricha, ontogenez filogenezning muhim bosqichlarini takrorlaydi. Olimning talqinicha, go'daklik hayvonlarga xos rivojlanish pallasidan boshqa narsa emas. Bolalarning esa asosiy mashg'uloti ovchilik va baliqchilik bo'lgan qadimgi kishilarning davriga aynan mos keladi. 8-12 yoshlardagi o'sish davri yovvoyilikning oxiri va tsivilizatsiyaning boshlanishidagi kamolotga tengdir. O'spirinlik esa jinsiy yetilishdan (12-13 yoshdan) boshlanib yetuklik davrigacha (22-25 yoshgacha) davom etib, romantizmga barobardir. S. Xollning talqinicha, bu davrlar «bo'ron va tazyiqlar», ichki va tashqi nizolar (ziddiyatlar) dan iborat bo'lib, odamda «individuallik tuyg'usi» vujudga keladi. Yosh davrlarni tabaqalashning bu turi o'z navbatida tanqidiy, mulohazalar manbai vazifasini o'taydi, chunki inson zotidagi

rivojlanish bosqichlari filogenezni aynan takrorlamaydi va takrorlashi ham mumkin emas.

Biogenetik kontseptsianing boshqa turi nemis «konstitutsion psixologiyasi» (insonning tana tuzilishiga asoslangan nazariya) namoyondalari tomonidan ishlab chiqilgan. E. Krechmer shaxs (psixologiyasi) tipologiyasining negiziga bir qancha biologik omillarni (masalan, tana tuzilishining tipi va boshqalarni) kiritib, insonning jismoniy tipi bilan o'sishining xususiyati o'rtasida uzviy bog'liqlik mavjud, deb taxmin qiladi. E. Krechmer odamlarni ikkita katta toifaga: tsikloid (tez qo'zg'aluvchi, his-tuyg'usi o'ta beqaror) va **shizoid** (odamovi, munosabatga qiyin kirishuvchi, his-tuyg'usi cheklangan) larga ajratadi. Bu taxminini yosh davrlari xususiyatlariga ham tatbiq etib, o'smirlar **tsikloid** xususiyatli, o'spirinlar esa **shizoid** xususiyatlilikini ta'kidlaydi. Lekin insonning kamol topishida biologik shartlangan sifatlar hamisha yetakchi va hal qiluvchi ro'ly o'ynay olmaydi, chunki shaxsning individul-tipologik xususiyatlari bir-biriga aynan mos tushmaydi.

Biogenetik nazariyaning namoyondalari – amerikalik psixologlar A. Gezell va S. Xoll rivojlanishning biologik modeliga tayanib ish ko'radilar, bu jarayonda muvozanat, integratsiya va yangilanish tsikllari o'zaro almashinib turadi, degan xulosaga keladilar.

Psixologiya tarixida biologizmning eng yaqqol ko'rinishi Zigmund Freyding shaxs talqinida o'z ifodasini topgan. Uning ta'limotiga binoan shaxsning barcha xatti-harakatlari (xulqi) ongsiz biologik mayllar yoki instinktlardan kelib chiqadi, birinchi navbatda, jinsiy (seksual) maylga bog'liqdir. Bunday biologizatorlik omillari inson hulqini belgilovchi birdan-bir mezon yoki betakror turtki rolini bajara olmaydi.

Biogenetik nazariyaning qarama-qarshi ko'rinishi **sotsiogenetik** nazariyadir. Bu nazariyada shaxsda ro'y beradigan o'zgarishlarni jamiyatning strukturasi, ijtimoiylashish (sotsializatsiya) usullari, atrofidagi odamlar bilan o'zaro vositalari asosida tushuntiriladi. Ijtimoiylashish nazariyasiga ko'ra inson biologik tur sifatida tug'ulib, hayotdagi ijtimoiy shart-sharoitlarning bevosita ta'siri ostida shaxsga aylanadi.

K. Levin tavsiya qilgan «fazoviy zarurat maydoni» nazariyasi o'z davrida muhim ahamiyat kasb etgan. K. Levin nazariyasiga ko'ra, shaxsning hulqi (xatti-harakati) psixologik kuch vazifasini o'tovchi ishtiyoq (intilish), maqsad (niyat) bilan boshqarilib turadi, bu kuchlar fazoviy zarurat maydonining ko'lami va tayanch nuqtasiga yo'nalgan bo'ladilar.

Yuqorida ifodalangan xar bir nazariya shaxsning ijtimoiy hulqini u odam xoxlashi yoki xohlamasligidan qat'iy nazar mazkur muhitga moslashmog'i (ko'nikmog'i) zarur degan g'oidaga amal qiladi.

Psixologiyada **psixogenetik** nazariya tarafdorlari, biogenetik va sotsiogenetik omillarni kamsitmaydi, balki psixik jarayonlarning rivojlanishini birinchi darajali axamiyatga ega deb hisoblaydi.

Psixodinamika nazariyasining namoyondasi amerikalik psixolog E. Erikson insonning umrini o'ziga xos betakror xususiyatlarga ega **8** ta davrga ajratadi.

Birinchi davr – go'daklikda tashqi dunyoga ongsiz «ishonch» tuyg'usi vujudga keladi. Buning bosh sababi ota-onaning mehr-muhabbati, g'amxo'rliqi va jonkuyarligidir. Agar go'dakda ishonchning negizi paydo bo'lmay, borliqqa ishonchsizlik hissi tug'ilsa, voyaga yetgach ularda mahdudlik, umidsizlik vujudga kelishi mumkin.

Ikkinchi davr – ilk bolalikda yarim mustaqillik va shaxsiy qadr-qimmat tuyg'usi shakllanadi yoki aksincha ularning teskarisi – uyat va shubha hissi hosil bo'ladi. Bolada mustaqillikning o'sishi unga o'z tanasini boshqarish uchun keng imkoniyat yaratib, bo'lg'usi shaxs xususiyatlaridan tartib-intizom, mas'uliyat, javobgarlik, xurmat tuyg'ulari tarkib topishiga zamin xozirlaydi.

Uchunchi davr – **o'yin yoshi** deb ataladi va unga 5-7 yoshli bolalar kiradi. Bu davrda tashabbus tuyg'usi qandaydir ishlarni amalga oshirish, bajarish mayli tarkib topadi. Mabodo boladagi hoxish-istakni ro'yobga chiqarish yo'li to'sib qo'yilsa, buning uchun u o'zini aybdor deb hisoblaydi. Mazkur davrda davra, ya'ni guruh o'yinlarga, tengqurlari bilan muloqotga kirishish muhim ahamiyat kasb etadi: bola turli rollar bajarib ko'rishiga, uning xayoloti o'sishiga imkon yaratadi. Xuddi shu davrda bolada adolat tuyg'usi, uni tushunish mayli tug'ula boshlaydi.

To'rtinchi davr – maktab yoshi boladagi asosiy o'zgarishlar: ko'zlagan maqsadiga erishish uchun intilish, uddaburonlik va tirishqoqlik bilan ajralib turadi. Uning eng muhim qadriyati omilkorlik va mahsuldorlikdan iboratdir. Bu yosh davrining salbiy jihatlari (illatlari) ham bo'lib, ular ijobiy hislatlari yetarli bo'lmasligi, ong hayotning barcha qirralarini qamrab ololmasligi, muammolarni hal qilishda aql-zakovat darajasining pastligi, bilimlarni o'zlashtirishdagi qoloqlik va hokazolardir. Xuddi shu davrda shaxsning mehnatga munosabati shakllana boshlaydi.

Beshinchi davr – o'spirinlikni betakror xislati, o'ziga xosligi, boshqa odamlardan keskin farqlanishi bilan xarakterlanadi. SHuningdek, o'spirinlik shaxs sifatida noaniqligi muayyan rolni uddalamaslik, qat'iyatsizlik singari salbiy sifatlarga ham egadir. Mazkur davrning eng muhim xususiyati «rolini kechiktirish»ning o'zgarishi hisoblanadi. U ijtimoiy hayotda bajarayotgan rollarning ko'lemi kengayadi, lekin ularning barchasini jiddiy egallash imkoniyatiga ega bo'lmaydi, shuningdek, rollarda o'zini sinab ko'rish bilan cheklanadi, xolos. Erikson o'spirinlarda o'zini o'zi anglashning psixologik mexanizmlarini batafsil taxlil qiladi, unda vaqtni yangicha his qilish, psixoseksual qiziqish, patogen (kasallik qzg'atuvchi) jarayonlarni va ularning turli ko'rinishlari namoyon bo'lishini bayon qiladi.

Oltinchi davr – yoshlik boshqa jinsga psixologik intim yaqinlashuv qobiliyati va ehtiyoji vujudga kelishi bilan ajralib turadi. Bunda ayniqsa, jinsiy mayl alohida o'rin tutadi. Bundan tashqari, yoshlik tanholikni yoqtirish va odamovilik kabi yoqimsiz xususiyat bilan ham farqlanadi.

Ettinchi davr – yetuklik davrida hayotiy faoliyatning barcha sohalarida (mehnatda, ijodiyotda, g'amxo'rlikda, pusht qoldirishda, tajriba uzatish va boshqalarda) mahsuldorlik tuyg'usi uzluksiz hamroh bo'ladi va ezgu niyatlarning amalga oshishida turtki vazifasini bajaradi. SHuningdek, mazkur davrda ayrim jihatlarda turg'unlik tuyg'usi salbiy xususiyat sifatida hukm surishi ham mumkin.

Sakkizinchi davr, yani qarilik inson sifatida o'z burchini uddalay olganligidan, turmushning o'mrovliligidan qanoatlanish tuyg'ulari bilan xarakterlanadi. Salbiy xususiyat sifatida esa hayot faoliyat noumidlilik, ko'ngil sovish tuyg'ularini aytish

mumkin. Donolik, soflik, gunohlardan forig' bo'lish har bir holatga shaxsiy va umumiy nuqtai nazardan qarash bu yoshdagi odamlarga xos eng muhim jihatlardir.

Personologik nazariyaning yirik namoyondalari E. SHpranger, K. Byuller, A. Maslou va boshqalar hisoblanadilar.

E. SHpranger «O'spirinlik davri psixologiyasi» nomli asarida bu davrga 13-19 yoshli qizlarni, 14-22 yoshli yigitlarni kiritishni tavsiya qiladi. Uningcha, bu yosh davrida yuz beradigan asosiy: a) shaxsiy «Men»ni kashf qilish; b) refleksiyaning o'sishi; v) o'zining individualligini anglash va shaxsiy xususiyatlarini e'tirof qilish; g) hayotiy ezgu rejalarning paydo bo'lishi; d) o'z shaxsiy turmushini ongli holda qurishga intilish va hokazolardir. 14-17 yoshlarda vujudga keladigan inqiroz o'smirlarda o'zlariga kattalarning bolalarcha munosabati doirasidan qutulish tuyg'usi paydo bo'lishidan iboratdir. 17-21 yoshlilarning yana bir xususiyati ularda tengqurlaridan «ajralish» inqirozi va tanholik istagining paydo bo'lishidir. Bu holat tarixiy shart-sharoitlardan kelib chiqadi.

Kognitivistik nazariyaning asoschilari qatoriga J. Piaje, Dj. Kelli va boshqalarni kiritish mumkin.

J. Piajening aql-idrok nazariyasi, aql-idrok funktsiyalari hamda uning davrlari haqidagi ta'limotni o'z ichiga oladi. Aql-idrokning asosiy funktsiyalari uyushqoqlik va moslashish, ko'nikishdan iborat bo'lib, aql-idrokning funktsional invariantligi deb yuritiladi.

Kognitiv-genetik nazariyachilar L. Kolberg, D. Bromley, A. Vallon, G. Grimm va boshqalar hisoblanadilar.

A. Vallon (frantsuz) nuqtai nazaricha yosh davrlarini quyidagicha bosqichlarga ajratadi:

- 1) homilaning ona qornidagi davri;
- 2) impulsiv harakat davri – tug'ilgandan 6 oylikkacha;
- 3) emotsional (his-tuyg'u) davri – 6 oylikdan 1 yoshgacha;
- 4) sensomotor (idrok bilan harakatning uyg'unlashuvi) davri – 1 yoshdan 3 yoshgacha;
- 5) personologizm (shaxsga aylanish) davri – 3 yoshdan 5 yoshgacha;

6) farqlash davri – 6 yoshdan 11 yoshgacha;

7) jinsiy yetilish va o'spirinlik davri – 12 yoshdan 18 yoshgacha;

Yana bir frantsiyalik yirik psixolog R. Zazzo o'z vatanidagi ta'lim va tarbiya sistemasining printsiplaridan kelib chiqqan holda, mazkur muammoga boshqacharoq yondashib va uni boshqacha talqin etib, insonning ulg'ayib borishini quyidagi bosqichlarga ajratishni tavsiya qiladi:

Birinchi bosqich – bolaning tug'ilganidan 3 yoshgacha davri.

Ikkinchi bosqich – 3 yoshidan 6 yoshigacha.

Uchinchi bosqich – 6 yoshidan 9 yoshigacha.

To'rtinchi bosqich – 9 yoshidan 12 yoshigacha.

Beshinchi bosqich – 12 yoshidan 15 yoshigacha.

Oltinchi bosqich – 15 yoshidan 18 yoshigacha.

Yosh davrlariga ajratishidan ko'rinadiki, R. Zazzo inson rivojlanishining bosqichlariga shaxs sifatida tarkib topish, takomillashuv nazariyasidan kelib chiqib yondoshgani shaxs shakllanishi pallasining yuqori nuqtasi, ya'ni ijtimoiylashuvi bilan cheklanishga olib kelgan. SHuning uchun uning ta'limoti insonning tug'ilganidan umrining oxirigacha psixologik takomillashuvi, o'zgarishi, rivojlanishi xususiyatlari va qonuniyatlari to'g'risida mulohaza yuritish imkonini bermaydi.

G. Grimm ontogenezda insonning kamolotini quyidagi davrlarga ajratishni lozim topadi: 1) chaqaloqlik – tug'ilgandan 10 kunlikkacha; 2) go'daklik – 10 kunlikdan 1 yoshgacha; 3) ilk bolalik – 1 yoshdan 2 yoshgacha; 4) birinchi bolalik – 3 yoshdan 7 yoshgacha; 5) ikkinchi bolalik – 8 yoshdan 12 yoshgacha; 6) o'smirlik – 13 yoshdan 16 yoshgacha o'g'il bolalar, 12 yoshdan 15 yoshgacha qizlar; 7) o'spirinlik – 17 yoshdan to 21 yoshgacha yigitlar, 16 yoshdan 20 yoshgacha qizlar; 8) yetuklik – birinchi bosqich: 22 yoshdan 35 yoshgacha erkaklar, 21 yoshdan 35 yoshgacha ayollar; ikkinchi bosqich: 36 yoshdan 60 yoshgacha erkaklar, 36 yoshdan 55 yoshgacha ayollar; 9) keksayish (yosh qaytishi) – 61 yoshdan 75 yoshgacha erkaklar, 55 yoshdan 75 yoshgacha ayollar; 10) qarilik – 76 yoshdan 90 yoshgacha (jinsiy tafovut yo'q) ; 11) uzoq umr ko'ruvchilar 91 yoshdan yuqorisi.

Biz chet el psixologiyasidagi yosh davrlarini tabaqalashning yo'nalishlari va nazariyalariga qisqacha to'xtalib o'tdik. Ulardan ko'rinib turibdiki, bu sohada bitta umumiy nazariya hali ishlab chiqilmagan.

Rus psixologiyasida yosh davrlarini tabaqalash muammosi dastlab L. S. Vigotskiy, P. P. Blonskiy, B. G. Anan'ev singari yirik psixologlarning asarlarida o'z aksini topgan.

L. S. Vigotskiy muayyan rivojlanishni vujudga keltiruvchi ruhiy yangilanishlarga tayanib yosh davrlarini quyidagi bosqichlarga ajratadi:

- 1) CHaqaloqlik davri inqirozi.
- 2) Go'daklik davri – 2 oylikdan 1 yoshgacha. Bir yoshdagi inqiroz.
- 3) Ilk bolalik davri – 1 yoshdan 3 yoshgacha. 3 yoshdagi inqiroz.
- 4) Maktabgacha davri – 3 yoshdan 7 yoshgacha. 7 yoshdagi inqiroz.
- 5) Maktab yoshi davri – 8 yoshdan 12 yoshgacha. 13 yoshdagi inqiroz.
- 6) Pubertat (jinsiy yetilish) – 14 – 18 yosh. 17 yoshdagi inqiroz.

L. S. Vigotskiyning tabaqalash nazariyasi ilmiy-tarixiy ahamiyatga ega bo'lib uning olg'a surgan g'oyalari hozirgi kunning talabiga mosdir.

D. B. El'koninning davrlashtirishi bo'yicha har qaysi rivojlanish pallasida, yetakchi faoliyat turining ustunlik qilishiga asoslanadi.

- 1) Go'daklik davri – tug'ilgandan 1 yoshgacha; yetakchi faoliyat - bevosita xissiy muloqot.
- 2) Ilk bolalik davri – 1 yoshdan 3 yoshgacha; yetakchi faoliyat - predmetlar bilan harakatlar qilish.
- 3) Maktabgacha davr – 3 yoshdan 6-7 yoshgacha; yetakchi faoliyat – rolli o'yinlar.
- 4) Kichik maktab yoshi davri – 7 – 10 yoshgacha; yetakchi faoliyat – o'kish.
- 5) Kichik o'smirlik davri – 10-15 yoshgacha; shaxsning intim munosabati.
- 6) Katta o'smirlik yoki o'spirinlik davri – 16-17 yoshgacha; asosiy faoliyat o'qish, kasb tanlash.

Hozirgi zamon psixologiyasining yirik vakili A. V. Petrovskiy inson kamolotiga,

shaxsning tarkib topishiga sotsial-psixologik nuqtai nazardan yondashib, yosh davrlarini o'ziga xos tasnifini yaratdi. A. V. Petrovskiygacha psixologlar shaxsning bir tekis kamol topishini o'rgangan bo'lsalar, u shaxs shakllanishining prosotsial (ijtimoiy qoidalarga muvofiq) va asotsial (aksilijtimoiy) bosqichlari ham bo'lishi mumkinligini isbotlab berishga harakat qiladi: shaxsning kamol topishi uchta makrofazadan iboratligini qayd etib, birinchisi – bolalik davriga to'g'ri kelishini, unda ijtimoiy muhitga moslashish, ko'nikish (adaptatsiya) ro'y berishini; ikkinchisi – o'smirlarga xos individuallashtirish; uchinchisi – o'spirinlikda, ya'ni yetuklikka intilish davrida o'ziga xos holatlarni muvofiqlashtirish (birlashtirish) xususiyatlari paydo bo'lishini bayon qiladi, shaxsning shakllanishi quyidagi bosqichlarda amalga oshirishini ta'kidlaydi:

- 1) Ilk bolalik (maktabgacha tarbiya yoshidan oldingi davr) – tug'ilganidan 3 yoshgacha.
- 2) Bog'cha davri – 3 yoshdan 7 yoshgacha.
- 3) Kichik maktab yoshi davri – 7 yoshdan 11 yoshgacha.
- 4) O'rta maktab yoshi (o'smirlik) davri – 11 yoshdan to 15 yoshgacha.
- 5) Yuqori sinf o'quvchisi (ilk o'spirinlik) davri – 15 yoshdan 17 yoshgacha.

Psixologlar tomonidan yosh davrlarini tabaqalashtirishning puxta ilmiy-metodologik negizga ega bo'lgan qator nazariyalari ishlab chiqilgan bo'lib, ular ontogenetik qonuniyatlarni yoritishga katta hissa qo'shgan.

2-Modul. Shaxs nazariyalarini psixodinamik yo'nalishi

4-Mavzu: Z.Freydning psixoanalitik ta'limoti

Reja:

- 1.Psixodinamik yo'nalishga qisqacha tavsifnoma.
- 2.Ongsizlik Z.Freyd bo'yicha insoniy mavjudligikning asosi sifatida.
- 3.Z.Freyd bo'yicha psixikaning tuzilishi.
- 4.Z.Freyd bo'yicha shaxs tuzilishini shakllanishi (psixoseksual rivojlanish bosqichlari).

Tayanch so'z va iboralar: **libido, ong, ongsizlik, ong osti holatlari, psixoanaliz,**

freydizm, edip kompleksi, eydetik, ehtiros

Z.Freyd hayoti haqida *Zigmund Freyd 1856 yilda Freyburgda, o'sha paytdagi Avstriya Vengriya imperiyasining* hozirgi kunda Chex respublikasiga taaluqli qismida tug'ildi. U tibbiyotni Venada o'rgandi va shu erda Avstriyani natsistlar 1938 yilda anneksiya qilgunlariga qadar yashadi. YAhudiy sifatida u vatanini tashlab ketishga majbur bo'ldi va Londonga borib o'rnashdi, o'sha erda 1939 yilda vafot etdi. Uzoq yillar davomida u bedavo saraton kasalligi bilan kurashib yashadi.

Uning eng mashhur asarlari quyidagilar: "Tushlarning ta'biri", "Psixoanalizga kirish bo'yicha ma'ruzalar", "Lazzat tamoyili ortida", "Bir illyuziyaning kelajagi", "Madaniyatdan norozilik", "Musso va monoteizm

Ontogenezda rivojlanish psixikasi tushunchasiga psixoanalitik yondashuv asoslari Z.Freyd tomonidan kiritilgan. Psixik rivojlanish psixoanalizida qiziqishlar, motivlar va tuyg'ular sohasini murakkablashishi jarayoni bilan shaxs rivojlanishi hamda uni tuzilishi va funktsiyalarini takomillashishi bilan tenglashtiriladi.

Z.Freyd inson psixikasini 3 bosqichga ya'ni psixik jarayonlarni printsiptial anglash imkoniyati mezoni bo'yicha ong, ongosti va ongsizlikka ajratadi. Uning ilmiy qiziqishlari birinchi navbatda jinsiy va agressiv qiziqishlarini majmuasiga qaratilgan. Aynan ongsizlik birinchi bo'lib jamiyatga qarshi turadi. Freyd shaxs rivojlanishini individni tashqi ijtimoiy dunyoga moslashishi sifatida kiritgan hamda unga begona lekin juda ham zarur debhisoblaydi.

Inson shaxsi Z.Freyd bo'yicha o'z tarkibiga tuzilmaviy komponentlarni qamrab oladi:

U

Men

Oliy Men

U (Id)-shaxsning primitiv yadrosi u tug'ma xarakterga ega, ongsizlik joylashgan va qoniqish tamoyiliga bo'ysunadi. Idda tug'ma impulsiv qiziqishlar mavjud (hayot instinkti Eros va o'lim instinkti Tanatos) va psixik rivojlanishni

energetik asosini tashkil etadi.

Men (Ego) shaxsni ratsional va anglanuvchi qism.u biologik etilishga ko'ra,hayotning 12 va 36 oylari orasida yuzaga keladi va reallik printsipli bilan boshqariladi. Egoning vazifasi sodir bo'layotganlarni tushuntirish va insonni xulqini shunday tuzish kerakki, uni instinktiv talablari qondirilishi, jamiyatning va ongning cheklovlari buzilmasligi kerak. Egoning hamkorligida individ va sotsium o'rtasidagi nizo hayot mobaynida sustlashishi kerak.

Oliy –Men (Super Ego) shaxsning tuzilmaviy tarkibi sifatida eng oxirida 3-6 yoshlar orasida shakllanadi. Super Ego insof uni moslashishini ifodalaydi va bu jamiyatda qabul qilingan normalarni amal qilishini qattiq nazoratga oladi.

Id va Super Ego tarafidagi an`analar odatda nizoli xarakterga ega bo'lib, bu xavotirlanish, asabiylashishni keltirib chiqaradi. Bunga javoban Ego bir qator himoya mexanizmlarini yaratadi va qo'llaydi. Ular siqib chiqarish, ratsionallashtirish, sublimatsiya, proektsiya, regressiya va boshqalar.

Himoya mexanizmi atamasi 1894-yilda dastlab Z.Freyd tomonidan fanga kiritildi. Keyinchalik mazkur sohadagi tadqiqotlarning miqdorini ortib borishi natijasida uning amaliy va nazariy ahamiyati ham ortib bormoqda. Psixologik himoya – bu shaxsni salbiy kechinmalardan himoya qilishga yo'naltirilgan anglanmagan psixik jarayondir. Aynan psixologik himoya mexanizmlari qarshilik ko'rsatish jarayonlari asosida yotadi. Shaxsning himoya mexanizmlari uning psixikasida ilk bolalik davrida paydo bo'ladi va butun hayoti mobaynida davom etadi. Psixologik himoya mexanizmlari odamni yoqimsiz emotsional kechinmalardan himoya qiladi, psixologik komfortni saqlab berishga yordam beradi. Psixologik himoyani funktsional vazifani va maqsadi, ongsizlikni instinktiv impulslari va tashqi ijtimoiy muhit talablarini o'zlashtirishi oila va jamiyatning qoida va normalarini o'zlashtirish o'rtasidagi ziddiyatlar bilan shartlangan ya'ni shaxsni ichki nizolarini (havotirlik,siqilish) engillashtirishdan iborat. Psixologik himoya mexanizmlari bu nizolarni engillashtiradi, inson xulq-atvorini himoya qiladi va uni moslashuvchanligi va psixikasini barqarorligini oshirgan holda boshqaradi.

Psixologik himoyalanganlikni ta'minlovchi asosiy mexanizm sifatida shaxsning barqarorlashtiruvchi maxsus boshqaruv tizimi yuzaga chiqadi. Ular nizoni anglash bilan bog'liq bo'lgan havotir tuyg'ularini bartaraf qilish yoki minimumigacha keltirishgacha yo'naltirilgan. Bu yondashuv bilan bog'liq holda uning asosiy funktsiyasi sifatida ong muhitini negativ shaxsni jarohatlovchi kechinmalardan "to'sish" ko'rib chiqiladi.

Keng ma'noda "psixologik himoya" atamasi psixologik diskomfortni bartaraf etish natijasida yuzaga keladigan negativizm kabi shaxs xislatlari faolligini chalkashtiruvchi "yolg'onlar" paydo bo'lishi, shaxslararo munosabatlar tizimini o'zgartiruvchi har qanday xarakterlarni tushuntirishda qo'llaniladi.

Tor ma'noda esa psixologik himoya bir qator himoya mexanizmlarini funktsiyalashuvi natijasida ong tarkibini o'ziga xos tarzda o'zgarishiga olib keluvchi tushunchani anglaymiz. Ular tushkunlik, rad etish, proektsiya, identifikatsiya, regressiya, izolyatsiya, ratsionalizatsiya, konversiya va boshqalarda.

Bu himoya mexanizmlarini faoliyati insonning axborot-yo'nalganlik harakatlari asosini va uning sub`ektiv, shaxsiy munosabatlar tizimini adekvatligini oshirmasdan uni mosligini xatto tushirishi xam mumkin.

Himoya mexanizmi – bu xatar yoki xavotir manbaini buzib ko'rish rad etish yoki qochish mumkin bo'lgan har qanday jarayon. Himoya mexanizmlari, shuningdek, bizning "Men" ligimizni ideallashtirilgan obrazini tartibga solishga hamda o'zimizni qabul qilishimiz qulay bo'lishi uchun yordam beradi. Zigmund Freyd birinchilardan bo'lib, himoyaning ko'p turlarini identifikatsiyalangan va bu mexanizmlar ongsiz tarzda harakat qilishini taxmin qilgan.

Himoya mexanizmlarini juda ko'p qo'llovchi insonlar yaxshi moslashmay qoladilar, chunki ular emotsional energiyalarining ko'pini xavfni nazorat qilish va o'zi haqidagi yolg'on tasavvurlarini saqlab qolishga harakat qiladi. Shunga qaramay himoya mexanizmlarini foydasi mavjud. Ular ko'pincha xavfni engib o'tishga yordam beradi. Bizda xavfdan samarali qutilish va muammoga diqqatni qaratishga vaqt paydo bo'ladi. Agar siz bizning aytganlarimizdan o'zingizga

taalluqliligini olgan bo'lsangiz, bu siz o'zingizni faqatgina himoya qilaverasiz degani emas. Avval ta'kidlaganimizdek hamma ham himoya mexanizmlarini qo'llab turadi.

Himoya mexanizmlarining ikkita asosiy tavsifnomalari mavjud:

1.Reallikni rad etish yoki buzish.

2.Ongsiz darajadagi faoliyat.

Ko'pincha odamlar himoya mexanizmlarini bitta turini emas, balki ularni kompleks tarzda qo'llashni ma'qul ko'radilar. Bundan tashqari ko'pchilik insonlarda bitta mexanizmlarni boshqasidan afzal ko'rish moyilligida, ya'ni xuddi ularning qo'llanilishi odat tusiga aylangandek tuyuladi.

Psixologik himoya mexanizmlarini turlari.

1.Siqib chiqarish – bu yoqimsiz fikr, istak yoki tuyg`ularni ongsiz, beixtiyor ravishda chiqarib tashlash jarayoni. Z.Freyd motivatsion unutish orqali himoya mexanizmini to'liq ifodalab bergan. U simptomlarni shakllanishida muhim rol o'ynaydi. Bu mexanizmni faoliyati xavotirlikni kamaytirish jarayonida etarli bo'lmaganda xamda siqib chiqarilgan ma'lumotni buzilgan holda anglashga yordam beruvchi boshqa himoya mexanizmlari ishga tushadi. Ma'lumki, psixologiya fanida himoya mexanizmlarini ikkita kombinatsiyasi keng tarqalgandir:

A)siqib chiqarish+siljish. Bu kombinatsiya faollik reaksiyalarini yuzaga kelishiga yordam beradi. Siqib chiqarish va siljish mexanizmlari tarkibida bo'lgan bolaga nisbatan dushmanlikka qarshi himoyani ifodalaydi.

B)siqib chiqarish+konversiya – bu kombinatsiya isterik reaksiyalarni asosini tashkil qiladi.

Tushkunlik mexanizmining mohiyati – ongdan jarohatlovchi voqea mohiyati va u bilan bog`liq emotsiyalarni chiqarib tashlashdir. Tushkunlik qo'rquv emotsiyalarini ushlab turish uchun rivojlanadi. Ularning paydo bo'lishi o'zini ijobiy idrok qilish uchun noma'qul shuningdek, agressorga bog`liq bo'lib qoladi. Qo'rquv real stimulni unutish oqibatida qo'rquvni keltirib chiqaruvchi, shuningdek, u bilan bog`liq bo'lgan assotsiativ ob`ektlar, faktlar vaziyatlarning

barchasi yig`iladi.

Regressiya. Muammoli vaziyatda avvalgi yoki bolalikdagi istak va xarakatlarni qoniqish shakliga qaytishdir. Regressiya qisman to`liq yoki simvollik bo`lishi mumkin. Muammoni yordam so`rash oqibatida hal qilish “regressiya” sinfiga shuningdek, “xarakat faolligi” mexanizmiga kiradi. SHuningdek, xavotirlikni kamayishini talab qilish mumkin bo`lmagan istak orqali kelib chiqqan. Regressiv xulq-atvor ko`p hollarda kattalar tomonidan taqdirlanadi xamda simbiotik emotsional munosabatlarni talab qiladi.

Proektsiya – bu individ o`zining ongli darajasida rad qiluvchi fikr, tuyg`u, motiv va istaklarni boshqa shaxs yoki ob`ektga o`tkazish mexanizmi. Mexanizm o`zini va atrofdagilarni ular tomonidan emotsional rad etilishi sifatida qabul qilmaslik tuyg`usini ushlab turish uchun rivojlanadi. Proektsiya o`zini qabul qilmaslik qo`rquvi bilan kurashishni uddalay olish uchun boshqalarning rad etuvchi xarakatiga nisbatan chaqirilgan. Proektsiya atrofdagilarga ularni qabul qilmasliklarining ratsional asosi sifatida turli negativ sifatlarni ularning fonida o`zini qabul qilish uchun yo`naltirishdir. “Agar yomon odam meni rad etsa, demak men yaxshiman yoki yomon odamning fikri men uchun ahamiyatli emas”.

Proektsiyani noaniq shakllarini kundalik hayotda uchratish mumkin. Ko`pchiligimiz o`z kamchiliklarimizga e`tibor bermay, boshqalarda ularni osonlikcha sezamiz. Biz atrofdagilarni o`z tashvishlarimizda ayblashga moyilmiz. Proektsiya zararli bo`lishi xam mumkin, chunki reallikni noto`g`ri anglashga olib keladi. Bu mexanizm kshpincha anglamaydigan va xafa bo`luvchi shaxslarda namoyon bo`ladi.

Introektsiya – inson yoki ob`ektning simvolik internalizatsiyasi (o`ziga kiritishi). Mexanizm xarakati proektsiyaga qarama-qarshidir. Introektsiya yordamida sevgi ob`ektlari va o`zining shaxsi o`rtasidagi farqlar bartaraf etiladi. Ba`zida boshqa odamlarga nisbatan jaxl yoki agressiya o`rniga yo`q qiluvchi tuyg`ular, o`zini o`zi tanqid qilishga, o`zini qadrlamaslikka aylanadi, chunki ayblanuvchida introektsiya sodir bo`lgan. Bunday vaziyat ko`pincha depressiya holatida kuzatiladi.

Ratsionallashtirish – aslida mumkin bo'lmagan fikr, tuyg`u, xulq-atvorlarini oqlashga ishonchli sabablarni topuvchi himoya mexanizmi. Ratsionallashtirish – psixologik himoyaning eng keng tarqalgan mexanizmi, chunki bizning xulq-atvorimiz ko'plab omillar orqali aniqlanadi va biz uni o'zimiz uchun ma'qul bo'lgan yo'l bilan tushuntirganimizda ratsionallashtirgan bo'lamiz. Ratsionallashtirishni ongsiz mexanizmini to'qib chiqarilgan yolg'on, firib yoki mug'ombirlik bilan aralashtirib bo'lmaydi.

Intellektualizatsiya – bu ximoya mexanizmi emotsional xis-tuyg`u va kechirmalarnin bartaraf etish maqsadida namayon bo'ladi. Intellektual zaxiralarni katta miqdorda qo'llashni taqozo etadi.

Kompensatsiya yoki sublimatsiya bu real yoki hayotiy kamchiliklarni ongsiz tarzda bartaraf etish xarakati. Kompensatorlar xarakat universalidir, chunki statusini egallash deyarli barcha insonlarning istagidir. Kompensatsiya ijtimoiy yaroqli (ko'zi o'zining musiqachiga aylanishi) va yaroqsiz (bo'yi past insonni) agressivlik va xokimlikka intilishi bilan kompensatsiyalash nogironlikni qo'pollik va nizolashuvchanlik bilan kompensatsiyalash bo'lishi mumkin. SHuningdek, to'g'ri kompensatsiya (yutuqsiz yutuqqa erishib bo'lmaydigan sohada omadga intilish) va bivosita kompensatsiyaga (o'zini o'zi boshqa muhitda tasdiqlashga intilish) ajratiladi.

Reaktiv tuzilmalar himoya mexanizmini anglash uchun to'g'ri kelmaydigan mayl, istak va tuyg`ularni, ayniqsa, jinsiy va agressiv ma'no jixatdan unga qarama qarshi munosabat yoki xarakatlarni rivojlantirish yoki urg`u berish yo'li bilan almashtiradi. Bu himoya mexanizmini rivojlanishi inson oliy ijtimoiy (axloqiy) qadriyatlarni o'zlashtirishi bilan bog'laydilar. Reaktiv tuzilish xursandchilik emotsiyalarini ushlab turish uchun qo'llaniladi. Bu mexanizm xarakatdagi qarama-qarshi ustanovkalarini amalga oshirishni taqozo etadi. SHu jumladan, qarashlarning mustaxkam belgilanganligi, uyatchanlik, muruvvat hamda raxmdillik va boshqalar.

Himoya ikki bosqich xarakterga ega. Avval mumkin bo'lmagan istak siqib chiqariladi, so'ng uning antitezasi kuchayadi. Masalan, xaddan tashqari vasiylik rad etilganlik hissini xaddan ziyod ijobiy va muloyim xulq dushmanlikni

berkitishlari mumkin va boshqalar.

Reallikni rad etish bu anglanilgan vaziyatda og`riqli bo`ladigan o`y-fikr, tuyg`u, istak, talab yoki reallikni rad etuvchi mexanizm. Rad etish atrofdagilarning befarqligi va rad etilishini ko`rsatsalar, ularni qabul qiluvchi emotsiyalarni ushlab qolish maqsadida rivojlanadi. Xarakterlaridan xuddi muammolari yo`qdek tuyuladi. Rad etish mexanizmining ko`p miqdori bolalar uchun xarakterlidir. Kattalar rad etish mexanizmini inqirozli vaziyatlarda qo`llaydilar.

Siljish (o`rnini almashtirish) – kuchliroq, kattaroq va ahamiyatliroq sub`ekt bilan nizoli vaziyat yuzaga kelganida o`zining agressiya, jaxl emotsiyalarini chiqarib tashlaganda bu xavfga aylanadi.

- **Bolalikdagi jinsiylik** tushunchasiga yondashuvlar Freyd tomonidan 20 asr boshida “Jinsiylik nazariyasi bo`yicha 3 ocherk” nomli asarida yoritilgan. U quyidagi fikrdan kelib chiqqan, inson ba`zi miqdordagi jinsiy energiya bilan tug`iladi (libido) u ma`lum ketma-ketlikda tananing turli a`zolariga ko`chadi.

- Freyd psixojinsiy bosqichlarni ochilishi ketma-ketligini organizmning etilishiga ko`ra, belgilangan (rivojlanishning biologik omillari) va bu bosqichlar universal va barcha insonlarga ularning madaniylik darajasiga qaramay xosdir. Z.Freydning yosh rivojlanishi davrlarini shaxsning psixojinsiy nazariyasi debataldi, chunki uning nazariyasini markazida jinsiy instinktlar turadi, bu keng ma`noda qoniqish deyiladi.

Jinsiy rivojlanish bosqichlari

Psixologiya deb nomlangan ilm-fanning yangi sohasi falsafa va biologiya fanlari negizida rivojlangan. Vundt ham faylasuf, ham psixolog bo`lgan. Zigmund Freyd o`zining shaxs nazariyasiga oid ta`sirli qarashlari bilan mashhur bo`lgan avstriyalik fizik hisoblanadi. SHvetsiyalik biolog Jan Piaje o`tgan asrda bolalarni kuzatish sohasida etakchilardan bo`lgan.

Zigmund Freyd fikriga ko`ra, bolalik davrida hissiyotlarga ko`rsatilganta`sir, keyinchalik shaxsning o`z-o`zini anglashida namoyon bo`ladi. SHundan boshlab 1920-yilda psixologiya “ruhiy hayot” haqidagi fan sifatida vujudga keldi. Freyd nazariyasi gumanistik nazariyaga qarshi qaratilgan hisoblanadi.

B.F.Skinner ham Freyd kabi bixeviorist bo'lib, bixevioristik nazariyaning etakchisidir. Skinner boshqa zamondoshlariga nisbatan o'z-o'zini kuzatishga qarshi bo'lgan. SHuningdek, u xulq-atvor shakllarini o'rganishga hissa qo'shgan.¹

The young science of psychology developed from the more established fields of philosophy and biology. Wundt was both a philosopher and physiologist. Sigmund Freud, who developed an influential theory and personality, was an Austrian physician. Jean Piaget, the last century's most influential observer of children, was Swiss biologist.

Sigmund Freud the controversial ideas of this famed personality theorist and therapist have influenced humanity's self-understanding. Thus, until the 1920 psychology was defined as "the science of mental life". Freudian psychology rebelled against humanistic psychology.

B. F.Skinner was a behaviorist as Freud, and he was leading behaviorist. Skinner rejected introspection and studied how consequences shape behavior.

- 1.Oral bosqich tug`ilgandan 18 oygacha davom etadi. Psixojinsiy rivojlanishning boshlang`ich bosqichida asosiy qoniqish manbai asosiy organik talabni qoniqtirish bilan qo`shiladi va ko`krak bilan oziqlantirish bilan bog`liq harakatlarni qo`shadi: emish,tishlash va yutish.

- Oral bosqichda boshqa odamlarga munosabatiga nisbatan ustanovkalari shakllanadi ya`ni tobelik, tayanch yoki mustaqillik, ishonch ustanovkalari va boshqalar. Ona bolasida jinsiy qiziqishlarni yuzaga keltiradi uni sevishga o`rgatadi. Aynan qoniqishning optimal darajasi (stimul) oral zonada (ko`krakdan oziqlanish, emish) sog`lom mustaqil katta hayot asoslarini yaratadi.

- Hayotining birinchi olti oyida onalik munosabatlarining chegarasi haddan ziyod yoki aksincha etishmayotgan stimulyatsiya shaxsiy rivojlanishni buzadi, oral passivlik fiksatsiyasi sodir bo`ladi. Bu shuni anglatadiki, katta odam atrofdagi dunyoga moslashish usullaridan biri sifatida ishonuvchanlik, nochorlikni namoyish etadi, o`z harakatlarini chetdan ma`qullanishiga yordam sezadi. Haddan

¹David G. Myers "Psychology ninth edition in modules". NY-2010.4-5pages.

ziyod ota-ona mehri jinsiy etilishni tezlashtiradi va bolani “erkatoy” tobe qilib qo’yadi.

- Hayotni birinchi yilining ikkinchi yarimda tishlar chiqishi bilan asosiy e`tibor tishlash va chaynashga qaratilganda oral bosqichni oral sadistik fazasi keladi. Oral sadistik fazasidagi katta odamda shunday xususiyatlarni keltirib chiqaradiki, janjalkashlik, boshqalarga haddan ziyod tadlabchanlik munosabati pessimizm.

- Og`iz qismi Freyd fikricha, odamning butun hayoti mobaynida muhim erogen zona bo`lib qoladi. Libidoni oral zonaga bog`lanib qolishi ba`zida ishlash saqish chaynash va shu kabilarda namoyon bo`ladi.

- 2.SHaxs rivojkatta odamda ham saqlanib qoladi ya`ni ochko`zlik, chekish, tirnoqlarni tlanishini anal bosqichi Egoning yuzaga kelishi bilan bog`liq bo`lib, 1-1,5 yoshdan 3 yoshgacha to`g`ri keladi. Anal erotika Freyd bo`yicha ichakni yaxshi ajratib chiqarish funktsiyalari bilan bog`liq.

- Bu bosqichda ota-onalar farzandlarini hojatga o`rgatadilar, ilk bora unga instiktiv rohatlanishda voz kechishni talab qilib, hojatga o`rgatish usullari kelajakda o`zini nazorat qilish va o`zini boshqarish shakllarini aniqlaydi.

- To`g`ri tarbiyaviy yondashuv bolaning holatiga diqqat qilishga bolalarni doimiy ichagini bo`shatishni rag`batlantirib turishga tayanadi. Ozodalikni emotsional qo`llab quvvatlash o`zini o`zi nazorat qilishni ifodalash sifatida Freyd bo`yicha tartiblilik shaxsiy sog`liq va hatto tafakkur egiluvchanligini shakllanishida uzoq muddatli pozitiv effektga ega.

- Rivojlanishni salbiy variantida ota-onalar o`zlarini haddan ziyod qattiqo`l va talabchan tutadilar, ozodalikni iloji boricha boricha erta talab qiladi. Bu noadekvat talablarga javoban bolalarda norozilik an`analari yuzaga keladi. Bu fiksatsiyalangan reaksiyalar keyinchalik xulq-atvorning boshqa turiga ko`chib o`ziga yarasha shaxs tipini keltirib chiqaradi anal ushlab turuvchi (o`jar, qizg`anchiq) yoki anal itarib chiqarib tashlovchi (xavotirli, impulsiv, buzilishga moyil).

- **3.Faollik bosqichi (3-6 yosh)** –psixoiijtimoiy rivojlanish bosqichi shaxsiy genetal zonalarini inobatga olgan holda. Psixojinsiy rivojlanishning faollik bosqichida bola ko'pincha o'z jinsiy organlarini o'rganadi, bolalarni dunyoga kelishi va jinsiy munosabatlar bilan bog'liq savollarga qiziqish uyg'otadi.

- Aynan bu davrida har bir odamning individual rivojlanishida tarixiy nizo Edip kompleksi yuzaga keladi. O'g'il bolada onani egallash va otasini chetlashtirish istagi yuzaga keladi. Otasi bilan ongsiz raqobatga kirishib bola u tomonidan jazoni qo'llanilishidan qo'rqadi

- Bolaning ambivalent tuyg'ulari (otaga nisbatan muhabbat) nafrat Edip kompleksi bilan kechuvchi 5-7 yosh oralig'ida bartaraf etiladi. O'zini otasi bilan tenglashtirish (intonatsiya, xulq-atvori gaplariga taqlid qilish, me'yor, qoida, ustanovkalarini egallash) super Egoni yoki burchni, shaxsni tuzilmasini so'nggi komponentini yuzaga keltiradi. Qizlarda Freyd etakchi kompleks elektra kompleksni nazarda tutadi. Elektra kompleksini hal etish ham o'zini onasi bilan tenglashtirib otasiga intilishni bosish bilan sodir bo'ladi. Qiz onasi bilan o'xshashligini kuchaytirib, otasiga simvolik yo'lni egallaydi.

- **4.Latent bosqich** –jinsiy sokinlik 6-7 yoshdan 12 yoshgacha o'smirlik yoshi boshlangungacha davom etadi. Asosiy energiya kuchi o'qish, sport, bilishga intilish asosan o'zini jinsidagi tengdoshlari bilan do'stlashishga yo'naltiriladi. Freydning odamni jinsiy shakllanishidagi bu uzilishining ahamiyatini oliy insoniy madaniyatni rivojlanishi uchun sharoit sifatida alohida ta'kidlaydi.

- **5.Genetal bosqich (12-18 yosh)**-pubertat davrda biologik etilish bilan asoslangan va psixojinsiy rivojlanishni yakunlovchi bosqich. Jinsiy va agressiv tuyg'ularni ko'payishi sodir bo'ladi hamda Edip kompleksi qaytadan yuzaga keladi. Autoerotizm yo'qoladi uning o'rniga boshqa jinsiy ob'ektlarga qiziqish paydo bo'ladi. Normada o'smirlikda jamiyatda o'z o'rnini topish, turmush o'rtog'ini izlash, oilasini yaratish harakatlari bo'ladi.

- Bu bosqichning muhim vazifalaridan biri ota-ona qaramog'idan qutilishdir.

Z.Freydning psixoanalizi

Asosiy tadqiqot predmeti	SHaxs rivojlanishi
Tadqiqot metodlari	Klinik vaziyatlar tahlili, erkin assotsiatsiyalar metodi, tushunchalar tahlili
Asosiy tushunchalari	Psixika bosqichlari (ong, ongosti, ongsizlik) shaxs tuzilishi (Id, Ego, Super Ego) psixologik himoya mexanizmlari, jinsiy energiya (libido), jinsiy instinkt, hayot instinkti, o'lim instinkti, psixojinsiy rivojlanish bosqichlari, erogen zonalar, qoniqish tamoyili, reallik tamoyili, edip kompleksi, elektra kompleksi, tenglashtirish
Asosiy g'oyalar	Bola va tashqi dunyoni azaldan kelishmasligi individni ijtimoiy dunyoga moslashuvi sifatida shaxs rivojlanishi. SHaxs rivojlanishining psixojinsiy rivojlanishi. SHaxs rivojlanishi 1-5 yillikda jadal jinsiy etilish tugashi bilan yakunlanadi. SHaxs rivojlanishi bosqichlari o'zgarmas, biologik etishilish ketma-ketligida oral, anal, faollik, latent, genital
Rivojlanish omillari	Ichki (biologik etilish miqdorning o'zgarishi va jinsiy energiyani yo'nalganligi) va tashqi (ijtimoiy jamiyatni ota-onalar bilan qo'shilishi)
Qiymati	Rivojlanishning dinamik kontseptsiyasi, insonning ma'naviy dunyosini birligi, bolalikning ahamiyati, ota-onaning ta'sirining muhimligi va doimiyligi

	ko'rsatilgan. Bolaning ichki dunyosiga munosabatda aniq diqqat g'oyasi
Tanqidga uchraganligi	<ul style="list-style-type: none"> -afsonaviyligi -tadqiqotning talab qilinayotgan shakliy metodlarining yo'qligi, -statistik ma'lumotlarning yo'qligi -tekshirishning murakkabligi; -o'smirlik yoshi chegaralaridan tashqarida rivojlanish imkoniyatlariga qarashlarning pessimistligi

5-Mavzu: A.Adlerning individual psixologiyasi

Reja:

1. Individning psixik hayotining asosi sifatida teleologik determinatsiya tamoyili.
2. A.Adlerning nazariyasida ijtimoiy mayl konsepsiyasi.
3. Hukmronlikka ishtiyoq, ustunlik, mukammallik. 4. Hayotiy reja va yolg'on maqsadlar tushunchasi.

Tayanch so'z va iboralar:

6-mavzu: K.Yungning analitik psixologiyasi

Reja:

1. K.Yungning analitik psixologiyasini umumiy tavsifnomasi.
2. K.Yung bo'yicha psixika tuzilishi.
3. Jamoaviy ongsizlik individ psixik hayotining asosi sifatida.
4. K.Yung bo'yicha shaxs rivojlanishi.

Tayanch so'z va iboralar:

K.G.Yung psixoanalizni qayta ishlab chiqishi natijasida psixologiya, falsafa, astrologiya, arxeologiya, mifologiya, teologiya va adabiyot kabi

bilimlar sohasiga doir murakkab g'oyalar kompleksi vujudga keldi. SHu bois Yung nazariyasi anglanilishi eng murakkab bo'lgan psixologik nazariya hisoblanadi.

Yung qarashiga binoan "ruh" (Yung nazariyasida mazkur termin shaxs tushunchasiga monand) uch alohida, biroq o'zaro ta'sirga kiruvchi tuzilmalardan tashkil topgan. Bular: ego, shaxsiy g'ayrishauriy va jamoaviy g'ayrishauriy (Jung, 1931/1969).

Ego ong doirasi markazi hisoblanadi. U o'zimizning bir butunligimiz, barqarorligimiz, o'zimizni insonday idrok etishimizni ta'minlaydigan o'y-fikrlar, xotiralar, kechinma va sezgilarimizni qamrab oladigan "psyche"dir. Ego o'zligimizni anglash asosidir, u tufayli kundalik ongli faoliyatimiz natijalarini ko'ra olamiz.

SHaxsiy g'ayrishauriylik qachonlardir anglangan, hozirda bosilgan yoki unutilgan xotira va ziddiyatlardan tashkil topgan. Ularga ongda namoyon bo'lish uchun zaruriy yorqinlik yetmaydigan hissiy ta'sirotlar taalluqli. Ushbu jihatdan Yung kontseptsiyasi Freyd kontseptsiyasiga monand. Biroq Yung shaxsiy g'ayrishauriylik sirasiga individuum o'zining o'tmish shaxsiy tajribasi, urug'-aymog'i yoki nasliy tajribasidan kelib chiqqan emotsional shiddatga ega o'y-fikrlar, tuyg'ular va xotiralarni qamrab olgan komplekslarga ega ekanligini alohida ta'kidlaydi (Jung, 1921/1973). Yung tasavvurlariga binoan, oddiy mavzular atrofida yig'ilgan mazkur komplekslar individuum xulq-atvoriga yetarlicha kuchli ta'sir o'tkazishi mumkin.

Masalan, hokimiyat kompleksiga ega odam hokimiyat mavzusi bilan to'g'ridan-to'g'ri yoki ramziy ma'noda bog'liq faoliyatga o'zining psixik energiyasini ko'p sarflashi mumkin. Qachonlardir shakllangan komplekslar inson xulq va dunyoni anglashiga ta'sir ko'rsata boshlaydi. SHaxsiy g'ayrishauriylik har birimizda o'ziga xos, anglash imkoniyati mavjud deb ta'kidlar edi Yung. Pirovardda kompleksning barcha unsurlari yoki uning o'zi to'la anglanilishi va individuum hayotiga kuchli ta'sir ko'rsatishi

mumkin.

Va, nihoyat, Yung jamoaviy g'ayrishaariylik deb nomlagan, shaxs tuzilmasidagi tub qatlam mavjudligi to'g'risidagi fikrni ilgari surgan (Jung, 1936/1969). Jamoa ongsizligi butun odamzot xotirasining yashirin izlarini qamrab oladi. Unda bizning umumiy emotsional o'tmishimizning natijasi bo'lgan, odamzotning barchasiga umum o'y-fikrlar, tuyg'ular o'z ifodasini topgan. Yungning o'zi ta'kidlaganidek, "jamoaviy g'ayrishaariylikda har bir individuum miya tuzilmasida qayta jonlangan insoniyat evolyutsiyasining barcha ma'naviy merosi mavjud" (Campbell, 1971). Demakki, jamoaviy g'ayrishaariylik mazmuni irsiylik sabab barcha odamzot uchun birdir. Jamoaviylik g'ayrishaariylik kontseptsiyasi Yung va Freyd o'rtasidagi asosiy ziddiyat negizi bo'lganligini alohida ta'kidlash joiz.

Arxetiplar.

Yung jamoaviy g'ayrishaariy shiddatli kuchga ega dastlabki psixik obrazlardan iborat ekanligi to'g'risidagi farazni ilgari surgan (Jung, 1968).⁴ Arxetiplar — odamlarni voqea va hodisalarni muayyan tarzda idrok etish, his qilish va javob qaytarishga majbur qiladigan tug'ma tabiatga ega g'oyalar yoki xotiralardir. Aslida mazkur arxetiplar bizning nazdimizdagi xotira yoki obrazlar emas, balki ular ta'siri ostida odamlar o'z xulq-atvor modellarida biror ob'ekt yoki hodisaga nisbatan idrok, tafakkurning universal shakllarini namoyon qilishga undovchi omillar desak to'g'riroq bo'ladi. Tug'malik konkret vaziyatlarda ham emotsional, ham kognitiv, ham xulqiy jihatdan ma'lum tarzda reaksiya ko'rsatishga moyillikka xos. Masalan, ota-ona, sevikli kishi, notanishlar bilan kutilmaganda to'qnash kelgandagi reaksiya. Yung ta'rifini bergan ko'plab arxetiplar qatorida ona, bola, qahramon, donishmand, Quyosh ma'budi, makkor, Tangri va o'lim arxetiplari turadi.

Jadval 1. Yung tavsif etgan arxetiplarga misollar

Arxetip	Ta'rif	Ramz
Anima	Erkak shaxsining anglanmagan ayollik jihati	Ayol, bibi Maryam, Mona Liza
Animus	Ayol shaxsining anglanmagan erkaklik jihati	Erkak, Iso alayhissalom,
Don Juan	Persona ilk bolalik daridagi ta'lim-tarbiya natijasida hosil bo'ladigan va ijtimoiy orziqishlardan kelib chiqadigan odamning ijtimoiy roli	Niqob
Ko'lanka	Individ ongli tarzda qat'iy namoyon qilayotgan jihatning teskari tarafi	SHayton, Gitler, Stalin va h.
O'zlik	SHaxs markazini idora qiladigan butunlik va uyg'unlik ifodasi	Mandala
Donishmand	Hayotiy zakovat va yetuklikning shaxslantirilgan shakli	Nabiy
Tangri	Tashqi olamga ko'chirilgan psixik voqelikning yakuniy ifodasi	Quyosh ko'zi, nigohi

Yung har bir arxetip ob'ekt yoki vaziyatga muvofiq muayyan tuyg'u va fikr ifodasi bilan bog'liq deb bilgan. Masalan, bola o'z onasini idrok etar ekan uning tasavvurlari tarbiya, hosildorlik va tobelik kabi arxetipik onalik sifatlari bilan ongsiz ravishda jilolanadi. Yung arxetipik obrazlar va g'oyalar tushlarda va tasviriy san'at, adabiyot, dinda keng qo'llaniladigan ramzlarda o'z ifodasini topadi deb hisoblagan.

Ayrim eng muhim arxetiplar.

Persona (lotincha «persona», «niqob» so'zidan olingan) — biz o'zimizni boshqa odamlarga namoyon qiladigan, “ommaviy” yuzimiz. Persona biz ijtimoiy talablarga muvofiq o'ynaydigan turfa rollarni ifodalaydi. Yungning tushuntirishicha, persona o'zgalarda taassurot qoldirish yoki o'zgalardan o'z mohiyatini yashirishga xizmat qiladi.

Persona kundalik turmushimizda boshqa odamlar bilan murosa qilib yashash uchun zarur. Biroq Yung agar mazkur arxetip haddan ortiq ahamiyat kasb etadigan bo'lsa unda odam sayozlashib, yuzaki bo'lib qolishi, hayoti bitta rolni bajarishgagina qaratilgan, haqiqiy emotsional tajribadan begonalashishi mumkinligidan ogohlantirib o'tgan. Persona bizni tevarak olamga moslashtirishda qanchalar katta ahamiyat kasb etsa, ko'lanka arxetipi shaxsning siqib chiqarilgan hayvoniy jihatlarini ifodalaydi. **Ko'lanka** bizning ijtimoiy noma'qul shaxvoniy va agressiv impulslarni, aksilaxloqiy o'y-fikrlar va ehtirolarni o'zida Biroq ko'lankaning ham ijobiy tomonlari mavjud. Yung ko'lankani hayotiy quvvat manbai sifatida ko'zdan kechiradi, samimiylik, individuumning ijodiy ibtidosi deb biladi. Yungga binoan egoning funktsiyasi ko'lanka energiyasini uni jilovlash orqali kerakli yo'singa solishdan iborat. O'z impulslarimizni oshkora ifoda eta olish va sog'lom hamda ijodiy hayotdan zavq olish. Anima va animus arxetiplarida K.Yung tomonidan inson androgin tabiatga ega ekanligini e'tirof etish yotadi. **Anima** erkaklardagi ayol

obrazi, uning anglanmagan ayollik jihatlarini o'z ifodasini topsa, *animusda* – ayollardagi erkaklik obrazi, uning anglanmagan erkaklik jihatlarini o'z ifodasini topgan. Mazkur arxetiplar mavjudligi, qisman bo'lsa-da, erkak va ayol organizmida ham testosteron, ham estrogen gormonlari ishlab chiqilishi kabi biologik faktga tayanadi. Mazkur arxetip asrlar mobaynida qarama-qarshi jins vakillari bilan o'zaro ta'sirga kirish tajribasi hosilasi sifatida jamoaviy g'ayrihuuriyda taraqqiy etgan. Ko'plab erkaklar, muayyan darajada, ayollar bilan birgalikdagi turmush tarzi natijasida “femininlashgan” bo'lsa, ayollar “maskulinlashgan”dir. Yung anima va animus shaxs taraqqiyotini to'xtatmaslik uchun, umumiy balansni buzmaganda, uyg'un ifodasini topishi lozim deb hisoblagan. Boshqachasiga aytsak, erkak o'z maskulin sifatlari bilan birga ma'lum darajada femininlik jihatlarini ham namoyon etishi lozim bo'lsa, ayollar ham, o'z navbatida, o'z feminin sifatlari bilan birga maskulin jihatlarini ham kerak bo'lganda namoyon etishlari kerak. Mabodo ushbu zaruriy sifatlar rivojlanmay qolsa shaxsda funktsional buzilishlar vujudga kelishi mumkin.

O'zlik — Yung nazariyasidagi eng muhim arxetipdir. O'zlik shaxs tuzilmasining markaziy qismi – yuragini – tashkil etadi. Qalbning barcha jihatlarini qovishuvi (integratsiyasi) amalga oshganda, inson o'zining birbutunligini, uyg'unlik va xotirjamlikni his etadi. Yung fikriga ko'ra **o'zlikning** taraqqiyoti inson hayotining asosiy maqsadi bo'lishi shart. Arxetipning asosiy ramzi bo'lib mandala va uning turfa ko'rinishlaridir (abstrak doira, valiyalar boshi uzra nur taralishi va h.). mandala kabi shakllar yakunlanganligida o'z ifodasini topadigan “Men” yahlitligi, Yungga ko'ra, tushlarda, fantaziyalarda, afsonalarda, diniy va mistik tajribalarda namoyon bo'ladi.

Yung din insonni to'kislik va butunlik hissini beradigan beqiyos kuch deb hisoblagan. SHu bilan birga, qalb uyg'unligiga erishish – murakkab jarayondir. SHaxs tuzilmalarining asl uyg'unligi, to'kisligiga erishish mushkul. O'zlik arxetipi

qalbning barcha unsurlari, ongli va ongsiz jihatlari integratsiyasi ro'y bermaguncha faolligini namoyon qilmaydi. SHuning uchun, yetuk "Men"ga erishuv barqarorlik, intellekt va katta hayotiy tajriba lozim.

Ego-yo'nalغانlik.

Psixologiya faniga Yung qo'shgan eng salmoqli hissa uning tomonidan tavsif etilgan ikki yo'nalغانlik yoki hayotiy ustanovka: ekstraversiya va introversiya tushunchalaridir (Jung, 1921/1971). Yung nazariyasi binoan mazkur ikki yo'nalغانlik insonda bir paytda mavjud, faqatgina ulardan bittasi o'z ustivorligini namoyon qiladi. Ekstravert ustanovkada boshqa odamlar va predmetlarga – kuchli qiziqish namoyon bo'ladi. Ekstravert harakatchan, sergap, odamlar bilan tez munosabatlar o'rnatadi va bog'lanadi, tashqi omillar uni harakatga keltiruvchi kuchlardan sanaladi. Introvert, aksincha, o'z ichki olami: hayollar, o'ylar, tajribasiga yo'nalغان. U kuzatishni yoqtiradi, og'ir-bosiq, yolg'izlikni sevadi, ob'ektlardan uzoqlashishga intiladi, qiziqishi o'ziga qaratilgan. Mazkur ikki ustanovka o'zaro oppozitsiyada bo'ladi: agar biri yetakchi va ratsional bo'lsa, ikkinchisi yordamchi va irratsional bo'ladi. Ularning o'zar kombinatsiyasi (birikuvi) natijasida xulq-atvor modellari aniq va prognozlash imkoniyati mavjud shaxslar shakllanadi.

Psixologik funktsiyalar.

Yung o'zining ekstraversiya va introversiya kontseptsiyasini ifoda etgandan keyin u ushbu ikki qarama-qarshi yo'nalغانlik yordamida odamlarni olamga bo'lgan munosabatlaridagi tafovutlarni to'kis tushuntirish imkoniyati mavjud emas degan xulosaga keladi. SHu bois u o'z tipologiyasini psixologik funktsiyalarni kiritish yo'li bilan kengaytirishga qaror qilgan. Yung farqlagan asosiy psixologik funktsiyalarga – tafakkur, sezgi, tuyg'u va intuitsiya taalluqlidir (Jung, 1921/1971).Tafakkur va tuyg'uni Yung ratsional funktsiyalar sirasiga kiritgan.Ular hayotiy tajriba xususida mulohaza yuritish imkoniyatini beradi deb hisoblaydi Yung. Mutafakkir toifadagi shaxs u yoki bu

narsalar qiymati to'g'risida mantiq va dalillar yordamida fikr yuritadi. Tafakkurning ziddi bo'lgan tuyg'u bizni reallik to'g'risida ijobiy yoki salbiy emotsiyalar tili yordamida ogohlantiradi. Tuyg'uga tayanuvchi toifadagi shaxs o'z diqqatini hayotiy tajribaning emotsional jihatlariga qaratadi va ashyolar qimmatini xususida "yaxshi yoki yomon", "yoqimli yoki yoqimsiz", "harakatga undovchi yoki zerikarli" kabi kategoriyalarga ko'ra mulohaza yuritadi. Yung fikriga ko'ra, tafakkur yetakchi vazifani bajarganda shaxs maqsadi baholanayotgan tajriba haqiqiy yoki yolg'on ekanini aniqlash bo'lgan, tafakkuriy mulohazalar yuritishga moyil bo'ladi. Tuyg'u yetakchi vazifani bajaradigan bo'lsa shaxs tajriba yoqimli yoki yoqimsiz ekani xususidagi xulosalarni berishga yo'nalgan bo'ladi.

Ikkinchi o'zaro ixtilofda bo'lgan juftlik – sezgi va intuitsiya – funktsiyalaridir. Mazkur juftlik funktsiyalarini Yung irratsional (anglanmagan) deydi. Zotan ular tashqi (sezgi) yoki ichki (intuitsiya) olamda ro'y berayotgan hodisalarni passiv tarzda aks ettirishadi, qayd qilishadi, ularni baholamaydi va mazmunini tushuntirmaydi. Sezgi tashqi olamning bevosita, hech qanday baholashlarsiz idrok etilishidir. Sezgilarga tayanuvchi shaxs ta'm, xid va h., tashqi olamdan keluvchi stimullarga nisbatan ziyrak bo'ladi. Intuitiv shaxs, aksincha, joriy hayotiy tajribani ongsiz idrok etadi. U botiniy sezimlarga tayangan xolda hodisalar mohiyatini tushunib etadi. Yung fikriga binoan, agar odamda sezgi yetakchilik qilsa u voqelikni go'yoki uni sur'atga olayotganday, hodisalar tili yordamida anglaydi. Boshqa tomondan, intuitsiya yetakchilik qilsa, odam anglanmagan obrazlarga, ramzlar va kechinmalarning yashirin ma'nolariga urg'u beradi. Ushbu to'rt psixologik funktsiya har bir odamda mavjud.

Biroq faqat bitta shaxsga doir yo'nalganlik (ekstraversiya yoki introversiya) odatda ustivor, anglangan bo'lsa, huddi shunday tarzda ratsional yoki irratsional juftlikdagi funktsiyalarning faqatgina bittasi ustivorlik qiladi va anglanadi. Boshqa funktsiyalan ongsizlikda mavjud bo'lgani bois inson xulqi regulyatsiyasida yordamchi vazifani o'taydi. To'rt funktsiyalardan har biri yetakchi bo'lishi mumkin. Demakki, individuumlarning fikrga

ergashuvchi, tuyg'uga ergashuvchi, sezgiga tayanuvchi va intuitiv toifalari kuzatiladi. Yung nazariyasiga ko'ra faqatgina ushbu to'rt funktsiyani uyg'unlashtira olgan odamgina hayotiy vaziyatlardan chiqishda ularning har

SHaxs taraqqiyoti

SHaxs xulq-atvori shakllanishida bolalik tajriba katta ahamiyatga ega deb hisoblaydigan Freyddan farqli o'laroq, Yung shaxs taraqqiyotini dinamik, inson hayoti davomida evolyutsiya qiladigan jarayon sifatida ko'zdan kechiradi. Yung bolalikdagi ijtimoiylashuv to'g'risida umuman so'z yuritmagan va Freydning odam xulqini belgilashda o'tmish hodisalar (ayniqsa, psixoseksual nizolar) katta ahamiyat kasb etishi to'g'risidagi qarashlariga qo'shilmagan. Yung fikriga ko'ra inson muttasil ravishda yangi malakalarga ega bo'ladi, yangi maqsadlarga erishadi va o'zini to'kis namoyon qiladi. U individning "o'zlikka egalik qilish" kabi hayotiy maqsadiga kata e'tibor qaratgan. "O'zlikka egalik qilish" shaxsning turli komponentlarini uyg'unlashtirishga bo'lgan intilishi natijasidir.

Yung fikriga ko'ra, pirovard hayotiy maqsad – bu "Men"ni to'kis namoyon etish, ya'ni betakror va uyg'un bo'lgan, butunlikka erishgan individning shakllanishi. Mazkur yo'nalishdagi shaxs taraqqiyoti o'ziga xos bo'lib butun hayot davomida amalga oshadi. Ushbu tiklanish jarayoni individuatsiya nomini olgan. Soddaroq qilib aytadigan bo'lsak, individuatsiya – o'zaro ixtilofda bo'lgan shaxs botinidagi kuchlar integratsiyasining dinamik va tadrijiy o'sishga ega jarayondir. Individuatsiyaning yakuniy ifodasi insonning o'z imkoniyatlarini ongli xolda amalga oshirilishini bildiradi. O'zlik arxetipi shaxs markazini tashkil etadi va shaxs tuzilmasi tarkibiga kiradigan ko'plab qarama-qarshi sifatlarni barqarorlashtiradi. Buning sharofati tufayli davom etayotgan shaxsiy taraqqiyot uchun zarur quvvat vujudga keladi. Individuatsiyani yakunlash osonlik bilan amalga oshmaydi. Individuatsiya kuni o'zlikni namoyon qilish deb nomlanadi.

7-mavzu: B.F.Skinnerning operant o'rganish nazariyasi

Reja:

- 1.Klassik bixeviorizm xulq- atvor haqidagi fan sifatida
- 2.Operant o'rgatish
- 3.B.Skinerning radikal keskin bixeviorizmi
- 4.B.F.Skinnerning operant asoslangan nazariyasi

Tayanch so'z va iboralar: B.Skinner,bixeviorizm, reaksiya, trening, operant, bixeviorizm, radikal

Jon Uotson 1913 yilda "Bixeviorizm" atamasini qo'lladi. Bixeviorizmning maqsadi xulq-atvorni yuzaga keltirgan stimulni hamda natijani (taqdirlash, jazolash yoki neytral effekt) ning o'zaro munosabatini tushuntirishdan iborat².

Klassik bixeviorizmning markaziy xulosasi quyidagilardan iborat psixik taraqqiyot bolaning hayoti davomida sodir bo'lib, asosan ijtimoiy muhitdan bog'liq bo'ladi. Bolaning rivojlanishini o'rganuvchi tadqiqotlarda asosiy e'tibor, o'rgatishga yordam beruvchi yoki to'sqinlik qiluvchi ya'ni stimullar o'rtasidagi aloqani hosil bo'lishi va ular asosida yuzaga keluvchi reaksiyalar sharoitini o'rganishga qaratilgan. Muhit bolaning bevosita jismoniy qurshovi olami aniq hayotiy vaziyatlardan hosil bo'luvchi sharoit sifatida o'z navbatida kuzatuvchilar zanjiriga bo'linishi mumkin va zarur bo'lgan turli stimullar yig'indisidan iborat bo'lgan vaziyat sifatida ko'rib chiqilgan. SHu tarzda, muhit ta'siri stimullar yig'indisi bolaning rivojlanish xarakteri va xulq-atvor mazmunini aniqlaydi.

Hozirga qadar klassik asoslashning mexanizmi insonning psixik rivojlanishida asosiylardan biri bo'lib hisoblanmaydi lekin uning ta'siri xulq-atvorning u qadar murakkab bo'lmagan ba'zi shakllari bilan chegaralangan. Klassik asoslash respondent xulq-atvorini shakllanishiga olib keladi ya'ni har doim mavjud bo'lgan ma'lum stimullarga nisbatan o'ziga xos javob reaksiyalarini hosil bo'lishiga sabab bo'ladi. Masalan, igna bilan ukol qilganda qo'lni tortib olmoq. Dj. Uotson yondashuvining zaifligi shundaki, klassik asoslashda individ repertuarida avval mavjud bo'lgan reaksiyalar va yangi stimullarning bog'lanishi sodir bo'ladi.

² Watson J. (1913). Psychology as the Behaviorist Views it. Psychological Review, 20,158-177

Insonni o'zidan faollikni talab qiluvchi murakkab ko'nikmalarga o'rgatishni masalan, nutq, qiyinmatematik masalalarni echish musiqiy asboblarda o'ynash klassik asoslash nuqtai nazaridan tushuntirish juda qiyin. Individ uchun mutlaqo yangi xulq-atvor shakllarini qanday yuzaga kelish masalasini aniqlashtirish o'rgatishning yangi shakllarini ishlab chiqishni talab qildi.

Erikson hammualliflikda yozilgan "Qarilikda hayotiy qiziqishlar" kitobida 1986 ego-yaxlitlik hissiga erishishda keksa odamlarga yordam ko'rsatish yo'llari haqida fikr yuritgan. Kitob 70 yoshdan oshgan ko'pgina odamlarning tarixini o'rganishga asoslangan. E.Erikson ularning hayot tarixini kuzatib, ular avvalgi bosqichlardagi hayotiy muammolarni qanday engib o'tganliklarini tahlil qilgan. SHu asosda quyidagicha xulosaga kelgan agar keksa odamlar jismoniy va psixologik qobiliyatlarini pasayishi arafasida o'z yashash qobiliyatlarini saqlab qolishni istasalar ular nevaralar tarbiyasi, siyosat sog'lomlashtiruvchi jismoniy tarbiya dasturlari kabi faoliyat ko'rinishlarida ishtirok etishlari kerak. Qisqacha aytganda E.Erikson agar keksa odamlar o'z menining yaxlitligini saqlab qolishga manfaatdor bo'lsa ular o'tmish haqida mulohaza qilgandan ko'ra, biror bir nima bilan ko'proq mashg'ul bo'lishi kerakligini uqtiradi. SHaxs ijtimoiy-psixologik rivojlanishi modeli shaxs va yosh davrlar psixologiyasi uchun juda katta ahamiyatga ega. Nazariya va asosiy tushunchalardagi ayrim mavhumlikka qaramay E.Erikson g'oyalari keng ahamiyatga ega bo'lib ta'lim va ijtimoiy faoliyat doirasida individual va kasbiy maslahat berish sohasida amaliy tatbiqini topdi ayrim empirik tadqiqotlarga masalan, o'smirlardagi identiklikni muvofiqlikni shakllanish shart-sharoitlari va oqibatlarini o'rganish bo'yicha D.Marsianning ishlariga turtki bo'ladi.

Klassik bixeviorizm xulq- atvor haqidagi fan sifatida

Ongning introspektiv nazariyasidan ixlos qaytishi evolyutsion biologiyadagi yutuqlar, inson va hayvonlar xulq-atvorini o'rganishda ob'ektiv metodlarni qo'llashga harakat, XIX-XXasr oralig'ida xulq-atvor psixologiyasi bixeviorizm yangi ob'ektiv kuzatish va tadqiq qilishning yagona mumkin bo'lgan yo'li onga

qarama qarshi inson xulq-atvori haqidagi fan yaratishiga olib keladi. Bu yondashuvning falsafiy asosini ingliz faylasufi Dj.Lokk kontsepsiyasi tashkil qilgan. Dj.Lokk bola dunyoga kelganida uning ongi go'yo top-toza doskaga o'xshashi haqida hamda hayot davomida orttirilgan tajribalar ahamiyati haqidagi tasavvurlarni shakllantirgan. O'rgatish individual rivojlanish, barcha bilimlar manbaining asosiy usuli sifatida tan olingan. Dj.Lokk bolalarni assotsiatsiya qilish, takrorlash, rag'batlantirish va jazolash tamoyillariga o'rgatishni tashkillashtirish haqida bir qator g'oyalarni ilgari surgan.

O'rgatishning aniq mexanizmlarini kashf qilinishi o'rgatishning turli turlarini tashkil etish Dj.Lokk izdoshlari tomonidan yaratilgan qator psixologik nazariyalarda birinchi navbatda bixeviorizm va ijtimoiy o'rganish nazariyasida muhim vazifalarni tashkil qiladi. Tug'ma xarakterdagi ixtiyorsiz shartsiz refleklar asosidagi o'rganishning oddiy turi asosida klassik asoslangan deb nomlanuvchi reaktiv xulq-atvor shakllanadi. Birinchi bo'lib, bunday o'rganish usulini rus fiziologi I.P Pavlov laboratoriya sharoitidagi eksperimentida ovqat hazm qilish tadqiqotida aniqlagan. Kuchukni ovqatlantirish uchun maxsus sharoit yaratilgan. Eksperimental maqsadlarda qo'ng'iroqcha ovozining ko'p marta jaranglashi ozuqaning paydo bo'lishidan darak bergan. Ozuqa shartsiz stimuly hisoblanib, och kuchuk og'ziga tushib, u ixtiyorsiz ravishda so'lak ajralishini ya'ni shartsiz reaksiya yoki refleksi yuzaga keltirgan. Tizimli muvofiqlik asosida qo'ng'iroqcha ovozi va ozuqaga ega bo'lish avvalgi neytral stimuly shartli xarakterga ega bo'ladi. Endi ovozini signal belgisi xuddi shartli stimuly ya'ni qo'ng'iroqcha ovoziga shartli reaksiya sifatida so'lak ajralishini yuzaga keltiradi. SHartli refleksi muhit ta'siriga reaksiya bildirishning yangi shakli sifatida shakllangan. I.P.Pavlov klassik shartlilikning bir qator tamoyillarini eksperimental aniqlagan reaksiyalarning so'nishi stimullar generalizatsiyasi stimullar deferentsiyasi yuqori talablarning ikkinchi va uchinchi shartlili. Masalan, agar uzoq vaqt mobaynida qo'ng'iroqcha ovozida ozuqaning paydo bo'lishi kuzatilmasa shartli refleksi so'nish ehtimoli tajriba yo'li orqali isbotlangan. Lekin tajribadagi tanaffusdan so'ng yangi stimulyni qo'llashda ovozga nisbatan javoban

so'lak ajralishi yana yuzaga keladi, ya'ni shartli refleksi o'z-o'zidan beixtiyor ravishda qayta tiklanishi sodir bo'ladi. O'ziga xos tondagi aniq qo'ng'iroqcha ovozigina nisbatan shartli refleksi hosil bo'lishiga stimullar differentsiyasi erishishi mumkin har qanday qo'ng'iroqchaga o'xshash ovozga reaksiya hosil qilishi mumkin generalizatsiya.

Xulq-atvor reaksiyalarini eksperimental shakllanishi haqidagi ma'lumotlar psixologlar tomonidan foydalanilgan. Bixevioristlar nuqtai-nazaridan psixologiya ya'ni yo'nalish manifestining muallifi Dj. Uotson 1878-1978 fikricha, psixologiya aniq va ishonchli fan bo'lishi lozim. SHuning uchun kuzatish va o'lchashga qulay va ochiq bo'lgan insonning xulq-atvorini o'rganish zarur. Klassik bixeviorizmدا stimuly reaksiya chizmasi S-R xulq-atvorining yangi shakllarini hosil bo'lishi mexanizmi sifatida talqin qilinadi va turli murakkablik darajasidagi xulq-atvor harakatlarining shakllanish jarayonini tavsiflash uchun etarli deb hisoblanadi.

Bolaning psixik rivojlanish yo'nalishining asosiy determinanti bu atrof muhitning ta'siridir. Bu holatni isbotlash uchun Dj. Uotson go'daklik yoshidagi bolalar xulq-atvorini o'rganishga murojaat qilgan hamda quyidagi xulosaga kelgan Bola kam sonli oddiy reaksiyalarni berishi mumkin bo'lgan tirik go'sht bo'lgi sifatida ko'rib chiqish mumkin. Uotson odam bolasida faqatgina 3 ta tug'ma xulq-atvor shakllari reaksiyalari mavjudligini e'tirof etgan. G'azab go'dak harakatlarini chegaralanganlik holati, qo'rquv tayanchni yo'qotganda yoki keskin qattiq tovushda, muhabbat bolada erkalash silash-siy-pash qoniqish hosil qilganida. Astasekin ushbu instinktiv reaksiyalardan shartli reaksiyalar hosil bo'ladi va xulq-atvorning keng oqimlari yuzaga keladi. Mumkin bo'lgan barcha reaksiyalardan hayot sharoitlariga yaxshiroq moslashishiga yordam beruvchilari tanlab olinib mustahkamlanadi.

Dj. Uotson bolada shartsiz reaksiya asosida qanday qilib, yangi stimulyga nisbatan qo'rquv reaksiyasini yuzaga kelishi mumkinligini eksperimental ko'rsatgan. Psixologiya tarixida kichik Albert nomi bilan mashhur bo'lgan, dastavval kalamush oldida qo'rquvni his qilmagan o'n bir oylik bolaga oq rangdagi kalamushni ko'rsatish bilan birga shartli stimuly uning orqasidan bongda qattiq

urish namoyish etilgan shartsiz stimul. Baland ovoqli signalni kalamushni ko'rsatishi bilan muvofiqlikda bir necha marotaba takrorlash oqibatida kalamushni ko'rsatgan zahotiy oq bolalar yig'lab berkinishga harakat qilishlariga sabab bo'lgan. Bu kuchli qo'rquv reaksiyasi hosil qilinganligi haqida dalolat beradi. Albertdagi bu qo'rquv kalamush bilan nimasidir o'xshash bo'lgan ko'pgina predmet- stimullar xususan quyon, po'stin, paxta va oppoq rangdagi soch va soqollar ko'rsatilganida kuzatilgan (salbiy oqibatlari hisobga olinmagan tarzda bola psixikasini o'rganishga ob'ektiv eksperimental yondashuvning bunday usuli katta tanqidga uchradi. Keyinchalik, psixologik tadqiqot xulq-atvorining axloqiy me'yorlari ishlab chiqilgan va psixologni kasbiy axloqiy tamoyillariga rioya qilish masalasi qo'yilgan).

Go'daklar bilan olib borilgan eksperiment natijalaridan kelib chiqib, bixevioristlarning ta'kidlashicha, bolaning xulq-atvorini nazorat qilish mumkin bo'lgan reaksiyalarni oldindan aytib berish, kutilgan xulq-atvor shakllarini yuzaga keltirish va nomuvofiq keladiganlarini (mos kelmaydiganlarini) paydo bo'lib mustahkamlanilgan (qo'rquv, injiqlik, erkalik) qochish uchun muhitni alohida tashkil etish muhimdir. Dj.Uotson tomonidan ta'riflangan benuqson, ideal bola qiyofasiga diqqatingizni qarating: "...bu bola haqiqatdan hali og'riqni his qilgan holatlaridan tashqari hech qachon yig'lamaydi; quvnoqlik bilan o'yin o'ynaydi yoki ishlaydi, atrof-muhitda uchraydigan kichik kamchiliklarni kattalar oldiga yugurmay mustaqil ravishda engib o'tishga tez o'rganadi; hayotiy qiyinchiliklar va baxtsizliklarni engib o'tish uchun sog'lom malakalarga o'z vaqtida ega bo'lib mustahkamlaydi; kattalarni bola bilan birga bo'lishni yoqimli kechishini ta'minlovchi ijtimoiy ko'nikmalarga ega bo'ladi; kattalarning alohida e'tiborini talab qilmagan holda katta hoxish bilan muloqotga kirishad; nima taklif qilsalar shuni istemol qiladi, dam oladi, vaqt o'tishi bilan ikki yog'ini oxirida uch yoshlikdagi ko'nikmalarga ega bo'ladi, o'smirlik yoshiga shunday tayyorgarlik bilan etib keladiki o'spirinlik uning uchun etuklik yoshining tabiiy boshlanishi bo'ladi va nihoyat etuklik yoshida mehnat, ijtimoiy ko'nikmalarda yaxshi toblanganligi sababli hech qanday hayot to'siqlari baxtsizliklar o'z oldiga qo'ygan

maqsadlarga yashashdagi kurashdagi uni sindira olmaydi.

Kattalar uchun qulay bo'lgan bunday bola (“ hech qachon yig'lamaydigan” “ tomomila bajara oladigan”,” tez o'rganadigan” “yordam uchun kattalarga chopmaydigan” “o'z vaqtida ko'nikuvchi” “o'ziga alohida e'tiborni talab qilmaydigan”) o'zini o'zi rivojlantirishga emotsionallikka, faolikka joy qolmagan, yaxshi yo'lga qo'yilgan mexanizmni eslatadi.

Dj.Uotson tarbiyaga nisbatan ilmiy yondashuvni chuqur ishlab chiqishni orzu qilib unga xos bo'lgan keskin uslubda u haqida yozgan: “Agar bolalar tug'ilishini 20 yilga to'xtatish imkoni bo'lsa, eksperiment maqsad bilan tarbiyalanayotgan bolalar rivojlanish qonunyatlarini chuqur o'rganishga bag'ishlab so'ngra egallangan bilimlar asosida ilmiy va mukammalashgan metodlar orqali yangi tarbiyani boshlash shubhasiz insoniyatni ahamiyatli darajada yaxshilagan bo'ladi” Dj.Uotson “Bolani psixologik parvarish qilish” jismonan va ruhiy sog'lom bolalarni tarbiyalashga yordam beruvchi ayrim shartlarni keltirgan. Eng avvalo gap qat'iy kun tartibi, bolaga mos kelmaydigan stimullar ta'siridan himoya qilishi mumkin bo'lgan maxsus xonaning mavjudligi, shuningdek, bolaga nisbatan bo'lgan munosabatga mehribonlikni namoyon qilishdagi me'yorlar haqida ketadi.

Dj.Uotson barcha odamlarda aniq qat'iy belgilangan xulq-atvor modelini shakllanishiga atrof-muhitning bilamchi ta'sir kuchi haqida o'z fikr mulohazalarini bildirgan. U muhit to'g'ri shakllantirilganda rosmiyaning me'yordagi sog'lom go'daklardan har kimini katta qilish mumkinligi haqida ta'kidlagan.

Operant o'rgatish

Edvard Torndaykning psixologiya faniga qo'shgan hissalaridan biri “odam shunchaki fikrlay oladigan boshqa bir jonivor” degan ta'kid edi.

Edvard Tolmen o'zining psixologiyadagi tizimini “Maqbul bixeviorizm” deb atagan. Uning fikricha, organizm xulq-atvori ma'lum bir adaptativ maqsadga yo'nalgan. Bixeviorist bo'lgan Tolmen Kurt Levin tufayli geshtalt nazariyasiga qiziqib qoladi.

Klerk Xallning fikrlariga I.P.Pavlov, CHarliz Darwin, E.Torndayk,

E.Tolmenlar ishlari o'z ta'sirini ko'rsatgan. Uning nazariyasi ushbu tadqiqotchilarning nazariyalari hamda Nyuton fizikasini siznetlashga urinish edi. U gipnoz bilan qiziqadi hamda 1933 yilda shu mavzuda kitob yozadi³.

Haqiqatdan yangi xulq-atvorni egallash shartlarini eksperimental tadqiqi shuningdek, o'rgatish dinamikasi amerikalik psixolog E.Torndaykning diqqat markazida bo'lgan. E.Torndayk ishlarida hayvonlarda muammoli vaziyatlarni hal etish qonuniyatlari ko'proq o'rganilgan. Hayvonlar mushuk, it, maymun maxsus yasalgan muammoli quti yoki labirintdan mustaqil ravishida chiqish yo'lini topishlari kerak edi. Keyinchalik xuddi shunday tajribalarda sinaluvchi sifatida kichik yoshdagi bolalar ishtirok etgan. Labirint yoki eshikni ochish vazifasini hal etish usulini qidirishini namoyon qiluvchi murakkab, ichki sabab natijasida yuzaga kelgan bunday xulq-atvorni tahlil qilishida ma'lum bir reaksiyani yuzaga keltiruvchi stimulni ajratish qiyin. E.Torndayk ma'lumotlariga ko'ra dastavval hayvonlar ko'plab tartibsiz harakat sinovlarni amalga oshirgan va tasodifan muvaffaqiyatga olib boradigan kerakli harakatlarni qilgan. Ushbu qutidan chiqishning keyingi harakatlarida xatolar soni kamayib unga sarflangan vaqt ham qisqargan. O'rgatish turi sinaluvchi odatda, xulq-atvorning turli variantlarini operantlarini –ingloperate harakat qilish anglamagan holda sinashi va ulardan ko'proq to'g'ri moskelganini tanlab olishidir, bu operant asoslash nomini olgan. Intelektual vazifalarni hal etishda sinov va xatolar metodi inson va hayvonlar xulq-atvorini tavsiflovchi umumiy qonuniyat sifatida ko'rib chiqila boshlangan.

Torndayk o'rgatishning to'rtta asosiy qonunini ta'riflagan

1.Takrorlash qonuni mashq qilish stimul va reaksiya o'rtasidagi aloqa qanchalik tez-tez takrorlansa, shunchalik u tezroq mustahkamlanadi va mahkamlanadi.

2.Ta'sir effekt qonuni qo'llab-quvvatlash. Reaksiyalarni o'rganishda qo'llab-quvvatlash bilan birga kuzatilganlardan ijobiy yoki salbiy biri

³Sahakian, W.S. (1976) Kearsley, G. Drive Reduction. Theory. Retrived November 9, /2002 from <http://tip.Psychology.org/hull.html>

mustahkamlanadi.

3. Tayyorlik hozirlik qonuni. Sub`ekt holati ochlik suvsizlik hissini his qilayotgan yangi reaksiyalarni ishlab chiqish uchun ahamiyatsiz emas.

4. Assotsiativ o`zgarish qonuni. Vaqt bilan chegaradoshlik bog`liqlik ahamiyatli muhim bilan assotsiatsiya qilishda bog`liq bo`lgan neytral stimuly ham kerakli xulq-atvorni yuzaga keltira boshlaydi. SHuningdek, E.Torndayk tomonidan bolani o`rgatish muvaffaqiyatining qo`shimcha sharoiti stimuly va reaksiyani farqlashdagi engillik hamda ular o`rtasidagi aloqani anglash ajratib ko`rsatilgan. Operant o`rgatish organizmining yuqori faolligida sodir bo`ladi, uning natijalari oqibatlar bilan nazorat qilinadi aniqlanadi. Umumiy fikr shundaki, agar harakatlar ijobiy natijaga, muvaffaqiyatga olib kelsa, unda ular mustahkamlanib takrorlanadi. E.Torndayk tajribalaridagi labirint atrof muhitning soddalashtirilgan modeli bo`lib xizmat qilgan. Labirint metodikasi haqiqatdan ham ma`lum bir doirada organizm va muhitning munosabatini modellashtiradi ifodalaydi lekin juda tor, bir tomonlama chegaralangan bo`ladi. Bu model doirasida aniqlangan qonuniyatlarni inson ijtimoiy xulq-atvoriga o`tkazish juda qiyin.

B.Skinerning radikal keskin bixeviorizmi

B.F.Skinner ham Freyd kabi bixeviorist bo`lib, bixevioristik nazariyaning etakchisidir. Skinner boshqa zamondoshlariga nisbatan o`z-o`zini kuzatishga qarshi bo`lgan. SHuningdek, u xulq-atvor shakllarini o`rganishga hissa qo`shgan.⁴

Qat`iy bixeviorizmning ko`zga ko`ringan nazariyachisi Skinner 1904-1990 metodlar orqali insonning barcha xulq-atvorini bilish mumkinligini, chunki ob`ektiv ijtimoiy muhit determinallanganligini e`tirof etgan. B.F.Skinner motivlar, maqsadlar, hissiyotlar, anglanmagan fikrlar va shu kabi psixik jarayonlar tushunchasini inkor etgan. Uning ta`kidlashicha, inson xulq-atvori deyarli uni qurshab turgan tashqi muhit ta`sirida butunlay shakllanadi. Ba`zida bunday yondashuvni invayronmentalizm inglenvironment- muhit- atrof deb ataydilar. B.F.Skinner fikriga ko`ra, inson psixikasining qora qutisi empirik tadqiqotlardan

⁴ David G. Myers "Psychology ninth edition in modules". NY, WORTH PUBLISHER-2010. 4-5pages.

chiqarib tashlanishi, bevosita kuzatish mumkin bo'lgan inson xulq-atvorini o'rganishga, oxirgi hisobda inson harakatini aniqlab nazorat qiluvchi muhit omillarini o'rganishga qaratilishi kerak. B.F.Skinner hayvonlar xulq-atvorini kalamush kabutar eksperimental tahili inson va hayvonlar uchun umumiy bo'lgan xulq-atvor tomonlarini ochishga imkon beradi deb hisoblangan. Xulq-atvorning umumiy qonuniyatiga tayanib ta'lim va tarbiyaning muhim amaliy psixologik-pedagogik vazifasini hal etish mumkin. Ijtimoiy muhit o'zgarishlarini manipulatsiya qilib ya'ni bog'liq bo'lmagan o'zgarishlar individning xulq-atvor reaksiyalarini bog'liq o'zgaruvchilar tahmin qilish va nazorat qilish mumkin.

B.F.Skinner xulq-atvorining 2 ta asosiy turi mavjudligini e'tirof etgan respondent va operant. Biroq uning taxminicha anglash mumkin bo'lgan, birlamchi stimullar mavjud bo'lmagan ichki sabablar natijasida vujudga kelgan harakatlar operant xulq-atvordir. Inson va hayvonlar uchun xulq-atvor natijasida yuzaga keluvchi voqea-hodisalar oqibatlar muhimdir. Natijadan oqibatidan bog'liqlikda kelajakdagi kelgusidagi bunday xulq-atvorga nisbatan ma'lum bir fikr shakllanadi. Operant xulq-atvor asta-sekin ixtiyoriy harakatni egallaydi. O'rgatishning operant turi bo'yicha insoniyat xulq-atvorining ko'pgina shakllarining shakllanishi sodir bo'ladi ya'ni kiyinishni bilish, kitob o'qish odati, tajovvuzkorlikni namoyon qilishdan tiyilish g'azabni jilovlash tortinchoqlikni engib o'tish va boshqalar.

Pirovard ijobiy natijaga olib keladigan reaksiyani takrorlashga harakat qiladi. SHunday qilib ko'pgina oilalarda yig'lashga operant o'rgatishni kuzatish mumkin.

Hayqiriq va yig'i bolaning jismoniy noqulaylikka nisbatan shartsiz reaksiyasi sifatida ota-onani bolaga yaqinlashib unga diqqatini qaratib yordam berib, tinchlantirishga undaydi bunday g'amxo'rlik bola yig'isi uchun kuchli ijobiy quvvat bo'ladi va yig'i ota-ona xulq-atvorini nazorat qilishning operant asoslangan omilga aylanadi. SHu vaqtning o'zida, salbiy natija yoki jazolashni yuzaga keltiruvchi reaksiyalarni takrorlanish ehtimoli kamayadi. Agar tanish kimsa sizning salomingizga javoban labini qisib tanimaslikka olsa, biz tezda u bilan salomlashishni bas qilamiz.

Qo'llab-quvvatlash B.F.Skinner kontseptsiyasining tayanch tushunchasidir. Qo'llab-quvvatlash reaksiyani kuchaytirib uni hosil bo'lish ehtimolini ko'paytiradi. Bixevioral o'qitishda qo'llab-quvvatlashning ikki turi tan olingan birlamchi yoki shartsiz suv, ozuqa, jinsiy munosabat ikkilamchi yoki shartli pul ahamiyatli bo'lgan boshqalar tomonidan e'tibor ota-ona, tengdoshlar va o'qituvchilarning maqtovi ma'qullashlari B.F.Skinnergga ko'ra, ikkilamchi qo'llab-quvvatlash stimullari avvalgi tajriba natijasida quvvatlovchiga aylanadi.

Ular ko'pchilik odamlar uchun umumiy bo'lib,ularning xulq-atvoriga kuchli ta'sir ko'rsatadi. SHuningdek, B.F Skinner ijobiy va salbiy qo'llab-quvvatlovchini ajratib ko'rsatgan. Ijobiy quvvatlovchi (quvvatlash) birgalikda reaksiyani kuchaytiradi. Salbiy quvvatlovchi (quvvatlash) ham faqatgina qo'zg'atuvchi stimullarni bartaraf qilish hisobiga (o'rtoqlarning "kichkintoy" "onasini o'g'li" kabi mazaxlaridan qochib intilishga haqoratlovchi so'z va iboralarni qo'llashni boshlaydi). Xulq-atvor reaksiyasini kuchaytiradi. Shuningdek, xulq-atvor jazolash yordamida ham (o'smirning onasi haqoratli so'zlar uchun uni labiga urishi yoki cho'ntak pulidan mahrum qilish mumkin) nazorat qilishi mumkin.

Bunday oqibatga chek qo'yish, xulq-atvor reaksiyasiga barham berish talab etiladi.

Zamonaviy jamiyatda jazolash texnikasi ko'proq qo'llaniladi, lekin B.F Skinner xulq-atvorning bunday nazorati samarasiz (faqat vaqtincha istalmagan xulq-atvorni to'xtatib turadi) ekanligini va undan ham yomoni salbiy zararli ta'sirni (qo'rquv, xavotirlanish o'z-o'ziga bahosini pasayishi, (asotsial) antiijtimoiy xulq-atvorning qo'pol shakllari) yuzaga keltirishga harakat qilgan. B.F.Skinner ijobiy qo'llab-quvvatlash (kutilmagan natijalarni rag'batlantirish) kattalar xulq-atvorini shakllantirishning juda ham ishonchli usuli (metodi) ekanligini ta'kidlagan. Murakkab xulq-atvorga o'rgatish holatida (masalan xat yozish, ko'nikmasi, shaxslaro muloqot tartiblilikni hosil qilish) izchil yaqinlashish yoki shakllantirish metodidan foydalaniladi. Qadam – baqadam bosqichma-bosqich qo'llab-quvvatlash xulq-atvorini kutilgan yo'nalishga o'zgartirishga bir necha marotaba qo'shiladi. O'rgatishning boshqa tamoyili- qo'llab-quvvatlashning

betov'tovligidir. Bolani mustaqil tartibli ovqatlanishga o'rgatishga muntazam qo'llab-quvvatlanadi: boshida bola o'rgatilganlarni tezda yodidan chiqarib qo'ysada, uni ruhlantirish har bir harakatlaridan faxrlanish masalan, bola qo'lga qoshiqni olib og'ziga olib borish harakati uchun uni maqtash kerak. Kutilgan natijaga faqatgina asta-sekin yaqinlashish natijasida bolada kiyim-kechak va stol ozodaligiga hamda tartibligiga erishish mumkin. B.F Skinnerning ta'kidlashicha hatto verbal xulq-atvor yoki og'zaki nutq ham muvaffaqiyatli yoki izchil yaqinlashish orqali egallanadi. Lekin ko'pgina psixologlar operant asoslash tamoyilidan kelib chiqib tushuntirib bo'lmaydigan, ilk bolalik davrida nutqning bu qadar tez rivojlanishiga alohida urg'u berib, bunday tarzda tilni o'zlashtirish mumkinligiga mutlaqo qarshilar.

Insonning ijtimoiylashuvi muammosi B.F.Skinnerning "Erkinlik va qadriyatning boshqa tarafi" (1971) "jamiyat va bixeviorizm haqida fikr-mulohazalar" (1978) kitoblarida kelib chiqilgan. B.F.Skinner ta'limotida bolaning rivojlanish- bu qo'llab-quvvatlash yo'nalishi bilan muvofiqlikda uni me'yoriy xulq-atvoriga o'rgatishdir. Ilk bosqichlarda ijtimoiylashuv omillari va qo'llab-quvvatlash manbalari bo'lib, ota-ona hisoblanadi, keyinchalik, qo'llab-quvvatlash manbalarining soni ortadi: bular qo'ni-qo'shnilar maktab tengdoshlar fikridir. B.F.Skinner "Inson xulq-atvori uning hayoti davomida o'zgaradi va vaqti-vaqti bilan inqirozlar yuzaga keladi degan fikrni qo'llab-quvvatlagan. Inqiroz holati muhitining shunday bir o'zgalari ta'sirida yuzaga keladiki unda individ xulq-atvor reaksiyalarining adekvat to'plamiga ega bo'lmaydi. Muhit bolaning xulq-atvorini doimiy, uzluksiz va ketma-ketlikda shakllantiradi deb hisoblagani uchun bixeviorizmda rivojlanishni yosh davrlarga ajratish (bo'lish) muammosi ko'rib chiqilmaydi. Rivojlanishni davrlashtirish muhitga bog'liq. Ushbu yosh davrida barcha bolalar uchun yagona rivojlanish qonuniyati mavjud emas: muhit qanday bo'lsa ushbu bolaning rivojlanishi qonuniyati ham shunday bo'ladi. Gap faqat ma'lum bir ko'nikmani shakllantirish o'rgatish bosqichlarini belgilash imkonini beradigan (o'yinni rivojlanish bosqichlari yozishga yoki tennis o'ynashga o'rgatish) funktsional davrlashtirishni yaratish haqida ketishi mumkin.

O'rgatishning doimiy tajribasi boshqa psixologik maktablarda "SHaxs" deb nomlanuvchini yaratdi. SHaxs-bu insonning butun umri (hayoti) davomida egallagan tajribasidir. Insonning (noyobligi) o'ziga xosligi irsiyat tavsif va o'rgatishning individual repertuarini o'ziga xos uyg'unligi bilan belgilanadi. Bunday tarzda psixik rivojlanish o'rgatish bilan tenglashtiriladi ya'ni, har qanday bilim, ko'nikma, malakani egallash bilan maxsus o'qitish sharoitlarida va tasodifiy yuzaga kelgan holatlarda bilishga o'rgangan.

B.F.Skinnerning operant asoslangan nazariyasi

B.F.Skinner g'oyalari juda keng amaliy ahamiyatini topdi. Muvaffaqiyatli izchil yaqinlashish strategiyasi va ijobiy qo'llab-quvvatlash texnikasi bixevioral treningining individ xulq-atvorini modifikatsiya qilish metodlari asosini tashkil qilgan. Ular taklifining aniq sohalari o'rtasida turli xil ko'rinishdagi qo'rquv xavotirlanish va "yopishqoq" (miyaga o'rnamshib qoladigan) holatlarni engib o'tish destruktiv xulq-atvorni o'zgartirish muloqot ko'nikmalariga o'rgatish, o'ziga ishonchni mashq qilish, gipertenziya, muskul zo'riqishlari, migren, xavotirni davolashda qayta aloqa bilan treninglar o'tkazish. Operant metodikalar hali maktablarda tarbiya yoshidagi bolalarga ya'ni ruhiy kasalxona bemorlarga, hali qamoqxona mahbuslariga qo'llaniladi. "Jetonli taqdirlash" "Senzibilitatsiya va desensibilyatsiya" "to'xtatilgan vaqt" yoki "taym- aut" metodikalari keng mashhurlikka erishdi. Kompyuterdan foydalanilgan holda dasturlashtirilgan o'qitish B.F.Skinner tomonidan o'ylab chiqilgan tamoyillarga asoslanadi. Ko'pgina mutaxassislar "Xulq-atvor ko'rinishi texnologiyasi" ning samaradorligini tan oladilar biroq, bunda metodning mexanikligini rahbarning avtoritarizmiga moyilligini va rivojlanishning ichki omillarini (inson fikri, hissiyoti, qiziqishi) rad etilishini ta'kidlaydilar va bu metodni haddan ziyod keng qo'llashda qo'llanilishidan ogohlantiriladi.

4-Modul. Ijtimoiy-kognitiv va kognitiv yo'nalish

9-mavzu: Albert Banduraning shaxs ijtimoiy – kognitiv nazariyasi

Reja:

- 1.A.Banduraning ijtimoiy-kognitiv nazariyasining asosiy tamoyillari.
- 2.O'rganish modelirovka vositasida.
3. O'rganishni kuzatish orqali kuchaytirish.

Tayanch so'z va iboralar: ijtimoiy tasavvurlar kommunikativ ijtimoiylashuv, ijtimoiy psixologiya, individual yondashuv, shaxslararo munosabat, shaxslararo moslik

Amerikada XX asrning 30-yillari oxirida ijtimoiy o'qitishning kuchli psixologik yo'nalishi yuzaga kelgan. Individga xulq-atvor namunalari rollar, me'yorlar motivlar, kutuvlar, hayotiy qadriyatlar, emotsiyalarni o'tkazish orqali individning ijtimoiy xulq-atvorini hayotiy shakllantirishni ifodalash uchun N.Miller va D.Dollardlar tomonidan ijtimoiy o'rgatish atamasi kiritilgan edi. Ijtimoiylashuv – biologik mavjudod, go'dakning tamomila oila, guruh umuman olganda insoniyat jamiyatini to'laqonli a'zosiga asta-sekin aylanish jarayoni sifatida, yangi ijtimoiy xulq-atvorni egallash jarayoni sifatida talqin qilinadi. Xulq-atvorning umumiy nazariyasi xulq-atvor namunalari qanday tarzda o'zlashtirilishini va ularning namoyon bo'lishi o'zaro aloqada bo'lgan tashqi va ichki ta'sir manbalari tomonidan qanday tarzda doimo boshqarishini izohlashi kerak. Ushbu ilmiy yo'nalish vazifalarini uning nazariy etakchisi Bandura shunday shakllantirgan. XX asrning ikkinchi yarmida Amerika psixologiyasini rivojlanishi uchun ijtimoiylashuv muammosini asosiy deb hisoblash mumkin. Jamiyat bolalarni umumqabul qilingan me'yoriy muammolar bilan muvofiqlikda o'zlarida tutishlariga undashda qo'llaydigan mexanizmlar ya'ni usullarni etilishi esa uning bosh maqsadidir. Ijtimoiy o'qitish nazariyasi psixoanalizda (misol uchun antogonizm haqidagi dastlabki tezis, bola va jamiyatning qarama-qarshiligi) ba'zi bir holatlarni qabul qilib o'zlashtirgan va ularni o'rgatishning bexivioristik tamoyillari bilan bog'langan. Ijtimoiy o'qitish yo'nalishi nazariyasining butun bir spektridan iborat. O'qitishning aniq mexanizmlariga yondashuvlarda nazariya

mualliflarining qarashlari farqlanadi, biroq ijtimoiy xulq-atvorga o'rgatish g'oyasi ahamiyatini butunlay qo'llab-quvvatlaydilar. Ijtimoiy o'qitish sohasida anhadan beri tadqiqotchilarning bir necha avlodi ishlab kelishmoqda. Bu avlodlar amerika psixologiyasining o'zida ajratib ko'rsatilgan.

Ijtimoiy o'qitish nazariyasining evolyutsiyasi

Birinchi avlod (XX asrning 30-60 yillari) – N.Miller, D.Dollard, R.Sirs , B.Uovayting, B.Skinner bu tadqiqotchilarni xali bexiviorizm ham ijtimoiy o'qitish nazariyasiga kiritadilar)

Ikkinchi avlod (60-70 yil) – A.Bandura, R.Uoters, S.Biju, Dj. Gevirt va boshqalar.

Uchinchi avlod (70-yildan boshlab) V.Xartup, E.Makkobi, Dj.Aronfrid, U. Branfenbrener va boshqalar.

N.Miller va D.Dollard ijtimoiy o'qitish yo'nalishining birinchi namoyondalari bo'lib, bexivioral o'qitishning asosiy tamoyillarini psixoanalitik nazariyaning ba'zi holat va g'oyalari bilan to'ldirishga harakat qilganlar. Empirik asos sifatida ular ham bola va hayvonlar xulq-atvorining eksperimental o'rgatish ma'lumotlarini ayniqsa nevrotiklar xulq-atvoriga oid boy klinnik ma'lumotlarni qo'llash mumkin deb hisoblaganlar. Eksperimental xulq-atvorga o'rgatishda boshqaning (modelning) harakatini kuzatishning ahamiyati ko'rsatilgan bu yangi reaksiyani paydo bo'lgunga qadar vaqtni qisqartirishda, sinov va xatolar sonini kamayishida ifodalaydi. Klassik bexiviorizm nazariyachilaridan farqli ravishda ijtimoiy o'qitish nazariyalari xulq-atvorda ichki motivatsiyaning rolini tan olib avvalo uning qo'zg'atuvchi funksiyasini muhimligini ta'kidlaydilar, ular organik ehtiyojlardan kelib chiquvchi (ochlik, suvsizlik, og'riq) birlamchi qo'zg'atuvchilarni dravy, jahl, ayb, harakatlariga ehtiyoj, qo'rquv, xavotirlanish ikkimlamchi qo'zg'atuvchilarni ajratganlar. Psixoanalizda xulq-atvorning asosiy regulatori qoniqish tamoyili ular tomonidan qo'llab-quvvatlash tamoyiliga (rag'batlantirish) o'zgartirilgan. Dastlab ijtimoiy o'rgatish nazariyasi qat'iy ob'ektiv (pozitiv) empirik bilimlarini egallash metodlarini ishlab chiqishga yaqqol

ifodalangan yaqqol ifodalanga orivintatsiya bilan pozitiv va nopozitiv falsafiy asosiga qurilgan. Psixologik tadqiqot metodologiyasi rejalashtirishning puxtaligini ma'lumotlarni qayd etishning tizimlilikini bog'liq va bog'liq bo'lmagan o'zgaruvchilarni nazorat qilish va o'zlashtirishni miqdoriy baholashning mumkinligi talab qiladi. O'tgan asrning 40-50 yillarida manipulyativ laboratoriya eksperimenti tadqiqotning hukumron metodi bo'ldi.

Ijtimoiy o'rgatishda bolalik o'tib ketuvchi nevroz bilan qiyoslanganda xulq-atvor buzilishi va desariantiya davri sifatiga tushunilgan. Bu tushunchalarda kelib chiqib, bolani ijtimoiylashtirishi uchun ota-onaning vazifasi quydagilardan iborat bo'lgan. Ovqatlanish, tuvakka o'rgatish bolada agressiyaning namoyon bo'lishi uni jinsiy edentifikatsiyasi va me'yoriy xulq-atvorning boshqa xususiyatlari bilan bog'liq bo'lgan yosh davriga oid muammolarni bartaraf qilish

Kuzatish, taqlid qilish orqali o'rgatish fenomeni

Murakkab ijtimoiy xulq-atvorni egallanishini izohlash uchun operant va respondent o'rgatish mexanizmlari etarli emas. Javob topish jarayonida, birlamchi ahamiyatni o'rgatishning o'ziga xos tipi-vizual o'rgatishga yoki kuzatish yordamida o'rgatishga qarata boshlaganlar.

Albert Banduraning 1960-yillardagi erta ishlari bixeviorizmga o'rganishning kognitiv modellari uchun ko'pliklardan biri hisoblanadi. Bunda kuzatish o'rganish jarayoni bo'lib, hech qanday o'quv faoliyatisiz amalga oshadi, kuzatilayotgan model esa hatto kuzatuvchi uchun taqlid manbai bo'layotganini sezmasligi ham mumkin⁵.

A. Bandura 1925-y o'rgatishning bunday usulini ijtimoiy kognitiv, deb nomlagan. Kognitiv o'rgatish o'rgatilayotganning birmuncha katta faolligini nazarda tutadi individ o'rgatiluvchiga aylanadi deb ham aytish mumkin. U o'zining harakatlari oqibatini kuzatadi, ulardan qay biri o'zining natijasiga ko'ra muvaffaqiyatli, qay biri keraksiz yoki zararli ekanligini qayd qiladi va eslab qoladi. Bundan tashqari o'rgatish, biror bir aktda harakatda to'g'ridan to'g'ri ishtirokni

⁵ Bertrand Russell The history of western philosophy NEWYORK 2010 696-700 page

qat'iy majburiy talab qilmaydi, model xulq-atvorining kuzatuvchisi bo'lishni o'zi etarlidir. Oqibatda xulq-atvor namunasi qaytadan ishlab chiqiladigan inson. Bu holatda inson boshqaning harakatlarini ko'zga ko'rinadigan oqibatlariga tayanishi mumkin ma'lumot axborot olish va o'z xulq-atvorini tuzatish kuzatishi xulq-atvorning ma'lum bir shakliga harakatning kognitiv obraziga bixevioral moyillikni yaratadi. Xulq –atvor modeliga amal qilish kodlangan axborot ma'lumotga tayangan holda sodir bo'ladi.

Agressiyani moyillashtirish sharoitlarini o'rganish ijtimoiy o'rgatish nazariyasining tayanch mavzularidan biridir. Ijtimoiylashuv tushunchasi favqulotda keng va ko'p qirralidir, har bir madaniyatda jamiyatning tarkibiy a'zosini sifat va bilishga o'z talablari mavjud. Biroq, xulq-atvorning ba'zi ko'rinishlari ko'proq universal umumiy rol o'ynaydi bu o'zaro ijtimoiy protsial xulq-atvor hamkorlik, o'zaro yordam altruizm polorolevoy xulq-atvor, agressiyaning maqbul shakllari hayotning bunday aspektoriga o'rganish har qanday hamjamiyatda mutlaqo zarurdir.

A.Bandura bolalar va o'spirinlardagi agressiyaning laboratoriya va dala tadqiqotlarini o'tkazgan. Masalan, bir qator eksperemental tadqiqotlarda 4 yoshli bolalar guruhiga modellar uchun turli oqibatlariga olib keluvchi rag'batlantirish yoki jazolash, zo'ravon xulq-atvor namunalarini ifodalovchi filmlar namoyish etilgan. Katta yoshdagi odam ishirilgan rezinka qo'g'irchoqni mushtlari bilan urib, uning sha'niga qo'pol luqma tashlagan, so'ngra uni taqdirlashgan shirinlik bilan mehmon qilishgan yoki urishishgan koyiganlar, filmdan so'ng bolalarga filmda ishtirok etgan o'yinchoqlarni mustaqil o'ynash imkoniyati berilgan. Natija shuni ko'rsatdiki, agressiv obrazli taqdirlangan odam modeli ishtirok etgan filmni ko'rgan bolalarda agressiv xulq-atvor darajasi yuqori bo'lgan. Manipulyativ eksperemental tadqiqotlar doirasida bola xulq-atvoriga tobe o'zgaruvchi modelning turli xarakteristikalarini ta'siri mustaqil o'zgaruvchi o'rganilgan. Model xarakteristikasini turlarga tavsiflash jinsi, yoshi, etnik mansubligi obro'-e'tibori hokimlik va pulga munosabati sinaluvchi kuzatuvchilarning xulq-atvor strategiyasiga ta'sir ko'rsatuvchi bir qator omillarni aniqlash imkonini berdi.

Qo'llab-quvvatlash taqlid qilish asosida yuzaga kelgan xulq-atvorni saqlash uchun zarur.

O'tmishdagi xulq-atvorni bevosita tashqi qo'llab quvvatlash qo'zg'atuvchi va axborot funksiyasini bajaradi. A.Bandura bilvosita qo'llab-quvvatlash ya'ni modelni rag'batlantirishni kuzatish va o'z-o'zini qo'llab-quvvatlashning o'z xulq-atvorini ijobiy baholash xuddi shunday ahamiyatini e'tirof etgan. SHunday qilib, Skinner talqini bo'yicha agar radikal keskin, qat'iy bixeviorizm, xulq-atvor stimullar termini va qo'llab-quvvatlovchi oqibatlar orqali tushuntirilishini tasdiqlasa, A.Bandura nuqtai-nazarida esa xulq-atvorning tashqi holatli omillarning o'zaro determinizmida masalan, rag'batlantirish va jazolash va ichki kognitiv ketish, ong, idrok qilish qabul qilish haqida gapirish lozim.

Modelni kuzatish qaysi xulq-atvor to'g'ri va u qanday oqibatlarga olib kelishi mumkinligi haqida xulosa qilish imkonini beradi, biroq ko'plab murakkab xulq-atvor aktlariga o'rgatishni tushuntirish uchun velosipedda yurish, xirurgik operatsiyalarni bajarish imitatsiya taqlid qilish o'xshatish mexanizmi etarli emas. A.Bandura faqatgina kuzatuv orqali yangi xulq-atvor aktiga o'rganish mumkin emasligi haqidagi qarshilikni e'tirozni hisobga olgan. O'zining ijtimoiy o'rgatish nazariyasi nomli asarida u S-R chizmasiga qanday qilib modelning taqlidi sub`ektda yangi xulq-atvor aktini shakllanishiga olib kelishini tushuntirish uchun zarur bo'lgan 4 oraliq jarayonni kiritgan kuzatish orqali o'rgatish komponentlari diqqat jarayonlari, saqlab qolish, harakat ijrosi va motivatsiya quyidagilar bilan aniqlanadi:

- modelga diqqatni qaratish va tushunish anglash quyidagilar bilan aniqlanadi;
- model xususiyatlari ijtimoiy xarakteristika, obro'-e'tiborni namoyon bo'lishi, kompetentlik, shaxsiy jozibadorlik;
- harakat namunasining xarakteristikalarini funksional amaliy ahamiyati, yangiligi, zaruriyati;

-avvalgi qo'llab-quvvatlash bilan bog'liq bo'lgan kuzatuvchining o'zini sensor qobiliyati pertseptiv ustanovkasi va motivatsiyalari.

2. Modelning eslab qolib, saqlab qo'yishi kognitiv tashkil etish, obrazli va verbal kodlashtirish yordamida amalga oshiriladi.

3. Motorli reproduktiv jarayonlar xotirada ramziy kodlashtirilgan ma'lumotlarni, muvofiq bo'lgan harakatlarga, real xulq-atvorga o'tkazishni amalga oshiradi. Ushbu aniq muvozanatlashgan harakatlarga o'rganish mumkin va zarur jismoniy qobiliyati, teskari aloqa aniqligi inobatga olinadi.

4. Motivatsion jarayonlar qo'llab-quvvatlashni o'zgarish xarakteri bilan bog'liq bo'lgan kuzatishdan real xulq-atvorda model ijrosiga o'tish sodir bo'lishini aniqlaydi tashqi bilvosita o'z-o'zini qo'llab-quvvatlash.

A. Bandura ijtimoiy kognitiv o'rgatishni murakkablik darajasi bo'yicha bir qancha turli ko'rinishlarini ta'siflagan modelning oddiy taqlidi imitatsiya o'xshatish nusxa olish ma'lum bir harakatlarni o'tkazilishini uzatilishini ta'minlaydi shirinlik bilan mehmon qilish ko'rishganda salomlashmoq mavhum abstract modellashtirish orqali kuzatuvchi o'zining aniq namunalar doirasidan chetga chiquvchi xulq-atvorini tartibga soladi.

Mavhum abstrakt modellashtirish ongli tafakkurga asoslanadi qachonki kuzatuvchi tashqi turli reaksiyalardan umumiy qirralarni ajratib olib, tamoyillarni aniqlaganda qoidalarni shakllantiradi. Bunday tarzda xulq-atvor nutqning ma'lum bir usuli uslubi tuzilishi mumkin mehribon, xayrixox, muloqatchan yoki qaysar, agressiv, berahm inson bo'lish ijtimoiy o'rgatishni birmuncha darajada murakkab ko'rinishi kreativ ijodiy modellashtirish ta'sirning turli manbalarini innovatsion sintezi natijasi sifatida ijod elementlarini qamrab oladi. 1980-yillar o'rtalaridan boshlab A. Bandura ko'p e'tiborini aynan rivojlanishning ichki omillariga qaratadi o'z-o'zini baholash, nazorat qilish, muvaffaqiyat garchi modellashtirish uning ishlarini muhim mavzusi bo'lib qolishda davom etsada, u shaxs shakllanishi va o'zgarishini tushuntirish uchun shaxs mahsuldorligining kognitiv mexanizmini taklif qilgan.

Bolalar rivojlanishini taraqqiyotini o'rganishning didatik tamoyili

Ijtimoiy o'rgatish yo'nalishining boshqa vakili R. Sirsning asosiy diqqatini predmeti ota-ona va farzand munosabati bo'lgan R. Sirs ilk bolalik davridagi har bir

bola xulq-atvorni ona va bola xulq-atvori birligini ifodalovchi o'ziga xos diadik birlik ichida keluvchi davr sifatida ko'rib chiqishni muhim deb hisoblagan. U bolaning rivojlanishiga ota-onaning ta'sirini amalga oshiruvchi vosita bo'lgan mexanizmi tushuntirish uchun o'rgatish nazariyasi doirasida psixoanalitik atamalarni engish regressiya, identifikatsiya qo'llagan. R.Sirs tomonidan bolaning rivojlanishida xulq-atvorning umumiy motivatsiyasi xarakteriga ko'ra farqlanuvchi uchta yoshga bog'liq faza ajratilgan. R.Sirs bo'yicha xulq-atvor shakllanishi motivatsiyasi hayoti davomida orttirilgan hosil bo'lgan ehtiyojlar-tobelik yoki qaramlikdan bevosita bog'liqlikda bo'ladi. Boshlang'ich fazada bola o'zining organik sezgisiga yuklangan va autik. Biologik ehtiyojlarni qondirilishi ochlik va chanqovni qondirmoq sovuqlik va og'riqdan xalos bo'lish onaning harakatlari bilan bolani bog'laydi, bu birinchi o'rgatish tajribasini tashkil etadi. Bunday tarzda onaga tobelik bog'liqlik tug'iladi. Bola ijtimoiylashuvni boshlanishi diadik o'zaro ta'sirni ortganligini unga kim g'amxo'rlik ko'rsatayotgan bo'lsa ular bilan birlamchi harakatini ko'rsatadi.

Maktabgacha tarbiya yoshida bolaga birmuncha darajada etukroq xulq-atvorni shakllantirishga yordam berib, quvvatlashning asosiy vakili sifatida namoyon bo'luvchi ona-ota, oilaning boshqa a'zolari muhim ta'sir ko'rsatadi. Bola o'quvchi oila a'zolaridan kamroq darajada qaram bo'ladi. SHu o'rinda uni o'qituvchi tengqurlari do'stalaridan qaramligi ortadi. Tobe qaram xulq-atvorning xarakterli shakllari ilk bolalik davrida shakllanadi, ular ba'zan hayot davomida o'rganiladi mustahkamlanadi va saqlab qo'yiladi. Ular orasida diqqat bilan qidirish sening ish va yumushlaringda boshqa insonning ishtirokini ta'minlashga intilish va'da xususida iltimos rahbariyatga yupanch yordam so'rab murojaat qilish, jismoniy tegish ushlab turish va fazoviy yonida bo'lish yaqinlikka intilish. Juda kuchsiz qaramlik adekvat ijtimoiy xulq-atvorni shakllantirish uchun zarur bo'lgan motivatsion bazalarni ta'minlay olmasa, juda kuchli qarshilik esa individni shaxsiy motivatsiyasiga o'tishga, mustaqil, erkin bo'lishiga to'sqinlik qiladi. Ota-onalarning bola bilan o'zaro ta'sirda bo'lish uslubi rag'batlantirish va jazolash nuqtai nazari bilan uyg'unlashgan, juda chuqur o'ylangan bo'lishi kerak.

SHuningdek Dj.Gevirts etuklik va go'daklik yoshidagilarning ijtimoiy motivatsiyasi va qaramligini yuzaga kelish shartlarini o'rgangan. Uning yondashuvini yangiligi shundaki, unda bolaning xulq-atvori ota-ona xulq-atvoriga quvvatlovchi ta'sir manbasi sifatida talqin qilingan. Ota-ona rag'batlantirish va jazolash tizimlarini qo'llagan holda o'z farzandining xulq-atvorini shakllantiradi lekin bola hatto go'dak chaqaloq ham jilmayish, kulish, yig'lash vokalizatsiyani namoyish etib, ota-onasida turli xil ko'rinishdagi xulq-atvorini shakllantirishi va nazorat qilishi mumkin. R.Sirsning ota-ona va farzand munosabatini asosi sifatidagi diadik tamoyili haqidagi g'oyalari keyinchalik qayta ishlab chiqilgan. Ijtimoiy xulq-atvor har qanday xulq-atvorning umumiy qonuniyatlariga bo'ysunadi, biroq muhitning stimulli qo'zg'atuvchi, rag'batlantiruvchi ta'siri boshqa odamlar xulq-atvori bilan asoslanadi. Dj.Gevirts aniq bir bola uchun u yoki bu stimullarning ta'sirchanligi xususidagi masalani alohida ta'kidlaydi. Bolaning individual rivojlanishida aynan bir xil stimullar ham turli qo'zg'atuvchi kuchga ega bo'lishi mumkin. Ijtimoiy-motivatsion rolni bajarish uchun stimulyatsiya qo'zg'atuvchi rag'bat ahamiyatli funktsional bo'lishi kerak. Muntazam ravishdagi tanbeh pand-nasihat bolaning xulq-atvoriga ta'sir ko'rsatmay qo'yadi.

1.Bolaning psixologik tabiati haqidagi tasavvurlarni o'zgarishi. SHunday qilib, XX asrning ikkinchi yarmida amerika psixologiyasida rivojlanish asta-sekin bolaning psixologik tabiati haqidagi tasavvurlarga o'zgaradi. Bola nafaqat o'z atrofidagilarning ta'sirini his qiluvchi balki o'zi ham ularga ta'sir ko'rsatuvchi ya'ni o'zaro aloqa bo'yicha hamkor sub'ekt sifatida faol mavjudot sifatida ko'rib chiqila boshlandi. YAngi yondashuvning ayrim aspektlari nuqtai nazari A.Bandura va Dj.Gevirts g'oyalari ifodasida yangradi chunonchi masalan hayotning ilk bosqichlarini mustaqil ravishda kuzatish orqali o'rgatish haqiqiy amaliyligini xulq-atvor harakatlari tuzilishida ichki kognitiv o'zgaruvchilarni ajratishni ichki quvvatlovchi javoblar ahamiyatini e'tirof etgan XX asrning 70-yillari o'rtalariga kelib, psixika ontogenezini tadqiq qilish uchun ijtimoiy o'rgatish nazariyasi va manipulyativ eksperiment metodidagi asosiy qiyinchilik yo'nalishning o'zini ichida aniq bo'ldi:

-ma'lumotlar aniqligi va to'g'riligiga urinishda qidiruv eksperimentidan voz kechish yuz berdi eksperimental metod o'z-o'zidan ma'lum bo'lgan faraz bilan laboratoriya testlariga muvofiqlashtirishdi;

-ko'pincha laboratoriya eksperimenti sun'iy xarakter kasb etgan real hayotiy muammolardan ajratib olingan va bolaning psixik rivojlanish jarayonlarini tushunish uchun yaroqsiz amaliyot talablariga javob bera olmaydi;

-tadqiqot natijalari yoshga bog'liq tafovutlar va kishilar xarakteristikalarini qayd etishni o'zida namoyon etgan, lekin ularning yordami bilan rivojlanish sabablarini va shartlarini aniqlab bo'lmagan- ko'p takrorlanuvchi empirik ma'lumotlarda tushunchani umumlashtiruvchilari kam sonli va kuchsiz edi;

-kattalar va bolalar, hayvonlar va insonlar psixik faoliyatining umumiy mexanizmlari mavjudligiga uqtirish insonning ontogenetik rivojlanishini o'ziga xos xususiyatlarning haqiqiy imkoniyatlarini tizimli ravishda pasayishiga olib keldi.

Ma'lum qilinishicha rivojlanish psixologiyasi "imkon qadar qisqa oraliq vaqt mobaynida qiziq bir inson bilan ajoyib o'zoro ta'sir vaziyatida bolaning g'alati xulq-atvori haqidagi fan" istexzoli bo'lish kerak emas deb uni U.Bronfenbrenner ta'riflagan. Ushbu qarama-qarshiliklarni anglash rivojlanishning amerika psixologiyasida yangi tendentsiya (g'oya) tabiiy tadqiqot g'oyasini tug'ilishiga bolaning psixik rivojlanishi tuzilishidagi aktsentlar aralashuviga olib keladi. XXasrning 80-yillari boshida ilmiy tadqiqotning majburiy xarakteristikalaridan biri ekologik validlik talabi bo'lgan. Ekologik validlik kundalik hayotdagi vaziyatlar xususiyati sinaluvchilarni tadqiqot vaziyatda qurshab turuvchi shart-sharoitlar muvofiqligi sifatida muhokama qilinadi. Tadqiqotchining dolzarb shiori bolaning bilish jarayonlari va har qanday faolligini bu uning tabiiy maqsadga yo'naltirilgan faoliyatida qanday o'rin egallasa shunday ko'rinishda o'rganish kerak eksperimental tadqiqot o'tkazishga yangi talablar ilgari surilgan edi:- sinaluvchiga ko'rsatmani maishiy (kundalik) tilda taqdim qilish eksperimentator faolligini cheklash, sinaluvchini diqqat bilan kuzatishi va uning hal etish strategiyasini qayd qilib borish o'zgarishlarni aniqlash o'rgatuvchi eksperimental tadqiqotlar

qo'llanilishidan voz kechish real hayotda aynan shu metod va mexanizmlar qo'llanilishiga kim kafolat beradi.

Ijtimoiy-madaniy yondashuv

Insoniyat taraqqiyotini tushunishga ekologik yondashuvda bu o'zgarishlar birmuncha darajada yaqqolroq ko'zga tashlanadi. U. Bronfenbrenner, D.Kyun, Dj.Vulvili, R.Makkol bolaning hayotini yaqin oilaviy qurshovdan boshlab, ijtimoiy, tarixiy kontekstgacha o'z ichiga oluvchi real sharoitlarida uning kundalik xulq-atvorini o'ziga xos xususiyatlarini diqqat bilan tadqiq qilish zaruriyatiga e'tiborini qaratadi. Analizga ekologik ahamiyatli o'zgaruvchilar sifatida bolaning barcha hayotiy jabhalari kiritiladi uy, oila, sinf, transport, bog` ijtimoiy rollar va funktsiyalar qiz, opa, o'quvchi xulq-atvor faolligini xarakteristikasi davomiylik, zo'riqish. U.Bronfenbrennerning ekologik tizim modeli keng mashhurlikka ega bo'ldi. Ular tomonidan bolaning rivojlanishi dinamik jarayon sifatida ko'rib chiqiladi bir tomondan ko'p darajali hayotiy muhit o'sib ulg'ayuvchi individga ta'sir ko'rsatadi va boshqa tomondan uning o'zi faol ravishda uni qaytadan tuzadi. U.Bronfenbrenner bolaning hayotiy muhitini to'rt darajasini ajratgan. Hayotiy muhitning mikrodarajasi individni uning yaqin atrofida gilar bilan o'zaro ta'sirini oila, bog`cha xarakterli bo'lgan mashg'ulotlar va ijtimoiy rollarni o'z ichiga oladi. Mezodaraja yoki mezotizim ikkita yoki undan ko'p mikrotizimlar o'rtasida rasmiy yoki norasmiy aloqalar yuzaga kelganda hosil bo'ladi masalan, oila va maktab oila va tengdoshlar guruhi o'rtasida. Ekzodaraja individ tajribasi bilan bevosita bog`liq bo'lmagan lekin unga bilvosita ta'sir ko'rsatuvchi keng ijtimoiy muhitni qamrab oladi. Ota-onaning bandlik xarakteri, mamlakatdagi iqtisodiy vaziyat, oilaviy axborot vositalarini roli va nihoyat makrodaraja yoki makrotizim qadriyatlar, an`ana odatlar, qonunlar hukumat dasturlarining madaniy va tarixiy kontekstini hosil qiladi. U.Bronfenbrennerning fikriga ko'ra, bu barcha quyi darajalarga muhim ta'sir ko'rsatadi. Tadqiqotchilarning ko'proq e'tiborini jalb qiladigan hayot davomida hayotiy yo'l insonning rivojlanish g'oyasini laboratoriyaning nazorat qilinuvchi sharoitlarida o'rganib bo'lmaydi. Nafaqat oldindan aytish mumkin

bo'lgan yoshga bog'liq o'zgarishlarni balki har bir yoshga bog'liq o'zgarishlarni balki har bir avlod uchun keng madaniy va tarixiy omillarni hisobga olishni talab qiladi. P.Baltes 3 turdagi omillarni ajratgan. 1.YOshga bog'liq me'yorlar. 2.Tarixiy me'yoriy. 3.Me'yoriy bo'lmagan omillar. YOshga bog'liq me'yoriy omillar bu aytish mumkin bo'lgan yoshdagi o'zgarishlarda biologik tishlarni yorib chiqishi, jinsiy etilishi (menopauza va b.q) va ijtimoiy (maktabga chiqish, harbiy xizmatga chaqiruv, nafaqaga chiqish va boshqalar) sodir bo'ladi. Tarixiy me'yoriy omillar- bu butun yosh davri kategoriyalariga (qatoriga) u yoki bu tarzda ta'sir ko'rsatadigan global (dolzarb) mashtabdagi tarixiy hodisalardir (urush, siyosiy va iqtisodiy tarzda o'zgarishi, epidemiya). Me'yoriy bo'lmagan omillar- hayotning aniq bir vaqti bilan bog'liq bo'lmagan, lekin uni bazan keskin (birdan) o'zgartirishga qodir bo'lgan, shaxs hodisalarini aks ettiradi (kasallik, jarohat, muhim inson bilan uchrashuv ajrashish va boshqalar). Aslida vaziyat bundanda murakkab chunki, ajratilgan omillar ta'siri bir qator boshqa xususiyatlar, xususan jins, yosh, irq, ijtimoiy mansubligi. So'z inson hayot yo'liga bu omillarning murakkab qorishgan ta'siri haqida bermoqda.

SHunday qilib biz inson psixik rivojlanishini aniqlovchi omillar muammosiga asosiy e'tborni qaratib, O.Uotsonning klassik bexiviorizm nazariyasi, B.Skinnerning operant o'rgatish nazariyasi, A.Banduraning ijtimoiy kognitiv nazariyasi va U.Bronfenbrennerning ekologik tizim modeli misolida rivojlanish psixologiyasidagi xulq-atvor yondashuvi evolyutsiyasini kuzatdik.

10-mavzu: Djulian Rotterning ijtimoy o'rganish nazariyasi

Reja:

1.Ijtimoiy o'rganish nazariyasining asosiy tamoyillari. 2.Xulq-atvorni prognoz qilishning asosiy formulasi.

3.Internal va eksternal lokus nazorati

Tayanch so'z va iboralar:

10-mavzu: Djordj Kelling shaxs kognitiv nazariyasi

Reja:

1. Konstruktiv alternativ.
2. Shaxs konstrukti: real voqelik modeli.
3. Kelling shaxs konstrukt nazariyasini asosiy postulati.
4. Kelli bo'yicha shaxs konstruktiv tiplari.

Tayanch so'z va iboralar: kognitiv, gumatinstik, ijtimoiy muxit, konstrukt,

Kognitiv dissonans

SHaxsga doir kognitiv nazariya gumanistik maktab vakillari qarashlariga yaqin bo'lsada, muhim tafovutlarga ham ega. Kognitiv nazariya asoschisi deb amerikalik psixolog Dj.Kelli (1905—1967) tilga olinadi. Uning fikriga ko'ra odam faqat bir narsani - hayotda nima ro'y berganini va ro'y berishi mumkinligini bilishni istaydi. SHaxs taraqqiyotining asosiy manbai, Kelli fikriga ko'ra, ijtimoiy muhit. Kognitiv nazariya inson xulqiga intellektual jarayonlar ta'siriga alohida urg'u qo'yadi. Mazkur nazariyada har bir odam bo'lajak hodisalarni oldindan bilish imkoniyatini beradigan ashyolar tabiati to'g'risidagi farazlarini tekshiruvchi olimga qiyoslanadi. Har qanday hodisa ko'pkar talqin etilish imkoniyatiga ega. Ushbu yo'nalishdagi asosiy tushuncha "konstrukt" tushunchasidir (ing. *construct* — qurmoq). Bu tushuncha ma'lum bilish jarayonlar xususiyatlarini (idrok, xotira, tafakkur, nutq) qamrab oladi. Konstruktlar sharofati tufayli odam nafaqat olamni anglaydi, balki shaxslararo munosabatlarni ham o'rnatadi. Mazkur munosabatlar negizida yotgan konstruktlar shaxsga doir konstruktlar deb nomlanadi (Fransella F., Bannister D., 1987). *Konstrukt* — bu odam o'zini va o'zgalarni idrok etish usulini belgilaydigan o'ziga xos klassifikator qolipdir.

Kelli nuqtai nazariga binoan, har birimiz faraz qilamiz va uni tekshirib yashaymiz, bir so'z bilan aytganda, xos konstruktlar (klassifikator) yordamida ko'rib turgan odamimiz aqlli yo aqlli emasligi,

qobiliyatli yo qobiliyatsiz ekanligi va h.,ni aniqlash muammosini hal qilish bilan shug'ullanadi. Har bir konstrukt «dixotomiya» (ikki qutbga)ga ega; «aqli/aqli emas», «qobiliyatli/qobiliyatsiz» va h. Odam hodisa tavsif etadigan ehtimolli yakunni aniqroq ifodalaydigan dixotomik konstrukt qutbini ixtiyoriy ravishda tanlaydi, ya'ni bashorat qilish imkonini beradigan konstruktдан foydalanadi. Ayrim konstruktlar tor doiradagi hodisalar tavsifini berish uchun yaroqli bo'lsa, boshqalari keng qo'llanilish ko'lamiga ega. Masalan, “aqli/ahmoq” konstrukti ob-havo tavsifini berishga yaroqsiz bo'lsa, “yaxshi/yomon” konstrukti turmushimizning barcha hodisalarini tavsif etish imkonini beradi.

Odamlar bir-biridan nafaqat konstruktlar miqdori bilan, balki ularning joylashuvi bilan ham farq qilishadi. Ongda tezkor o'zini namoyon qiladigan konstruktlar *dinat*, sekinroq namoyon bo'ladigan konstruktlar — *subordinat* deb nomlanadi. Masalan, kimgadir duch kelganda uni aqli yoki ahmoq nuqtai nazaridan baholayotgan bo'lsangizda, birozdan so'ng mehribon yo jahldor deb baholayotgan bo'lsangiz sizning “aqli/ahmoq” konstruktingiz *dinat*, “ezgu/yovuz” konstruktingiz *subordinat* sanaladi. Odamlar o'rtasidagi do'stlik, muhabbat va h., kabi normal munosabatlar odamlar konstruktleri monand bo'lsagina vujudga kelishi mumkin. Tasavvur qilib ko'ring, ikki kishi muvaffaqiyatli munosabatga kirishmoqchi bo'lganda birida “axloqli/axloqsiz” konstrukti ustivor bo'lsa-yu, boshqasida bunday konstruktning o'zi bo'lmasa nima ro'y berishi mumkin.

Konstruktarga doir tizim statik (o'zgarmas) hosila emas, u hayotiy tajriba ta'siri ostida muttasil o'zgarib turadi, ya'ni shaxs butun hayoti davomida shakllanadi va taraqqiy etadi. SHaxsda “ong” ustivorlik qiladi. Ongsizlik olis (subordinat) konstruktarga taalluqlidir. Mazkur konstruktlerden odam olamning idrok etilayotgan hodisalarini talqin etishda kamdan-kam foydalanadi. Kelli shaxs erkinligi cheklangan deb hisoblaydi.

Inson

hayotida

davomida shakllangan konstruktlar tizimi cheklovlarga aylanadi. Biroq u odam hayoti butkul determinatsiyalashgan (belgilangan) deb hisoblamagan. Har qanday vaziyatda odam muqobil bashoratlarni yaratish imkoniyatiga ega. Tashqi olam – ezgu ham, yovuz ham emas – u biz miyamizda qanday tasavvur qilsak – shunday. Kognitivistlar fikriga ko'ra odam taqdiri o'z qo'lidadir. Insonning ichki olami sub'ektiv bo'lib, uning ichki olami uning tasavvuri hosilasidir va odam tashqi olamni o'z ichki olami voqeligi orqali talqin qiladi. Mazkur kontsepsiyaning ustivor unsuri shaxsga doir konstruktlardir. U, o'z navbatida, ikki darajalidir:

1) ustivor konstruktlar bloki — konstrukt tizimi yuqorisida joylashgan 50 yaqin asosiy konstruktlar. Odam ushbu konstruktardan boshqa odamlar bilan o'zaro ta'sirga kirish maqsadida ko'p foydalanadi, ya'ni ong markazida turadi.

2) periferik konstruktlar bloki — qolgan barcha konstruktlar. Ushbu konstruktlar individual hosilalar bo'lgani bois bir necha yuzlabdan bir necha minggacha bo'lishi mumkin. SHaxs xususiyatlari mazkur ikki blok konstruktarning birgalikdagi ishlash natijasi sifatida namoyon bo'ladi. SHaxslarning ikki toifasi farqlanadi: *kognitiv murakkab shaxs* (ko'plab konstruktarga ega shaxs) va *kognitiv sodda shaxs* (oz miqdordagi konstruktarga ega shaxs).

Kognitiv	jihatdan	murakkab	shaxs	kognitiv	sodda	shaxslardan
quyidagi	sifatlari	bilan	ajralib	turadi:		
1)	psixik	salomatligi	ancha	durust;		
2)	stresslarni	samarali	bartaraf	etadi;		
3)	o'ziga	bergan	bahosi	yetarli	darajada	baland;
4)	yangi	vaziyatlarga	tez	moslashadi.		

SHaxsga doir konstruktarni baholashning (ularning sifati va miqdorini) maxsus metodlari mavjud.

Kognitiv psixologiya doirasida Festingerning kognitiv dissonans nazariyasi vujudga kelgan (1957). Kognitiv dissonans deganda Festinger

ikki yoki undan ortiq kognitsiyalar o'rtasidagi ziddiyatni tushunadi. *Kognitsiya* — muhit, inson o'zi yoki xulqiga doir har qanday bilim, fikr yoki e'tiqoddur. Dissonans shaxs tomonidan diskomfort (noqulaylik) holati singari his etiladi, shuning uchun shaxs undan qutulishga harakat qilish orqali, ichki kognitiv barqarorlik holatini tiklashga urinadi. Va aynan ushbu intilish inson xulqi va olamga bo'lgan munosabatini belgilaydigan omilga aylanadi.

Kognitsiyalar o'rtasidagi dissonans xolati bir kognitsiya natijasida inson taxmin qilgan boshqa kognitsiya namoyon bo'lmasa vujudga keladi. Odam hamisha ichki uyg'unlik, konsonansga erishishga intiladi. Masalan, semirishga moyil odam dieta saqlamoqchi bo'ldi (X kognitsiya), biroq sevimli shokoladidan voz kecholmaydi (U kognitsiya). Biroq ma'lumki, ozishga harakat qilayotgan odam shokolad yemasligi darkor – demakki, dissonans paydo bo'ladi. Uning paydo bo'lishi insonni dissonans reduksiyasiga, uni pasaytirish, bartaraf etishga qaratilgan xulqni namoyon qilishga undaydi.

Festinger fikriga ko'ra, buning uchun, ya'ni dissonansni bartaraf etishga qaratilgan, odamda uch yo'l mavjud:

- 1) kognitsiyalar birini o'zgartirish (ayni vaziyatda — yoki shokoladni iste'mol qilishdan voz kechish yoki dieta saqlamaslik);
- 2) dissonant munosabatlarga kirishayotgan kognitsiyalar ahamiyatini pasaytirish (semizlik unchalar ham katta kamchilik emas yoki shokoladni iste'mol qilish vazn ortishiga katta ta'sir ko'rsatmasligini ta'kidlash);
- 3) yangi kognitsiyani qo'shish (masalan, shokolad vazn ortishiga ta'sir tsa-da aqliy faoliyatni yaxshilaydi).

Kognitiv dissonans motivlashtiradi, ya'ni uni pasaytirishga majburlaydi, munosabatlarni o'zgartirishga undaydi pirovardda — xulqni o'zgartiradi. Kognitiv dissonans paydo bo'lishi va uning bartaraf etilishi bilan bog'liq ikki xolatni ko'zdan kechirsak.

- 1) odamning azaliy fikriga nomuvofiq bo'lgan vaziyatdagi xulq bilan bog'liq. Agar odam ixtiyoriy (taz'yiqsiz) ravishda yetarlicha tashqi oqlovga

ega bo'lmagan, o'z qarashlariga unchalar ham muvofiq kelmaydigan xulqni namoyon etishni taqozo qilmaydigan biron-bir narsani bajarishga rozi bo'lsa, keyinchalar uning fikri va e'tiqodi o'sha xulqqa muvofiqlashtiriladi. Agar, masalan, o'zining axloqiy qarashlariga zid bo'lgan xulqni namoyon qilishga rozi bo'lsa, oqibatda xulq va axloqiy qarashlar o'rtasidagi dissonans axloqiylik darajasi pasayishiga olib keladi.

2) mushkul qarorni qabul qilishdan keyin paydo bo'ladigan dissonans. Mushkul qaror deb tanlov zaruriyatini tug'dirayotgan muqobil variantlar yoqimlilikiga ko'ra o'zaro yaqin bo'lgan vaziyatga aytiladi. Bunday vaziyatlarda qaror qabul qilingandan so'ng odam quyidagi ziddiyatlar natijasi bo'lgan kognitiv dissonansni his etadi: tanlangan variantning salbiy jihatlari, rad etilgan variantning esa ijobiy jihatlari mavjud bo'ladi. Qabul qilingan qaror qisman yaxshi emas, biroq u qabul qilinib bo'lingan. Inkori etilgan variantning yaxshi tomonlari mavjud, biroq u rad etilib bo'lgan.

Eksperimental tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki: og'ir qaror qabul qilingandan so'ng vaqt o'tishi bilan tanlangan qarorning ijobiy jihatlari ortib inkori etilgan qarorning ijobiy jihatlari sub'ektiv yoqimliliği pasayadi.

Odam shu yo'sinda kognitiv dissonansdan qutuladi: u qabul qilgan qarori inkori etilgan qarordan ko'ra ancha yaxshi bo'lganligiga o'zini ishontiradi. Xulosa qilish mumkinki, mushkul qarorlar tanlangan qarorga muvofiq xulqni namoyon qilish ehtimolini oshiradi. Demak, kognitiv nazariyaga binoan, shaxs – odamning shaxsiy tajribasi qayta ishlanadigan (idrok etilayotgan va talqin qilinayotgan) shaxsga doir konstruktsiyalarning maxsus uyushtirilgan tizimidir. Mazkur yondashuv nuqtai nazaridan shaxs tuzilmasi individual jihatdan betakror konstruktlarning o'ziga xos ierarxiyasi sifatida tushuniladi.

5-Modul. Shaxsning dispozitsion va gumanistik nazariyasi

12-Mavzu: Gordon Olport: shaxsning dispozitsion nazariyasi

1.G.Olport nazariyasiga umumiy tasavvur.

2.Shaxs xususiyatlari konsepsiyasi.

Tayanch so'z va iboralar: tipologiya, xamkorlik, depressiya, emotsionallik, fe'l atvor,

SHaxs xususiyati tizimini fe'l-atvor pozitsiyasi doirasida urganish alternativ tipologiyadir (Eslatib utamiz, insonning uziga xos bulgan va turli vaziyatlarda namoyon buladigan sifatlari fe'l-atvor deyiladi. Ya'ni fe'l-atvor tugrisida fakat xolatlararo barkarorlik xolatlarida suzlash mumkin: axir xar bir inson xayoti davomida bir bora bulsa, mexribon, xalol, oliyjanoblik deb nomlansa buladigan xarakatlar kiladi, lekin bu uning kelajakda doimo shunday buladi degani emas. Bunda barcha guruxlar uchun emas, balki xususiyatlari boshkalardan ajralib turadigan aloxida insondagi fe'l-atvorni ifodalaydi. Agar shaxsni gurux portreti bilan takkoslaganda, fe'l-atvor - kuprok umumlashtirilgan obraz doirasidan chikadigan xarakteristikaga va konkret sub'ekning mantikiy xulk-atvoriga amal kilinadi. SHuning uchun tipologik yondashuv kuppina tandiklarga uchragani ajablanrali emas, fe'l-atvor nazariyasi esa shaxsga idiografik yondashuvga asos solgan G.Ollport orkali ishlab chikilgan. Ollport tipologik yondashuvni tankid kilib «Xar kanday tipologiya butun shaxs tizimida kandaydir segmentning ajralib chikishiga va shu segmentga uziga xos bulmagan darajada axamiyat berilishi asoslanadi. Barcha tipologiyalar chegara urinsiz joyda chegera urnatadi. Xar bir tadjikotchi tabiatni uzicha kiymalaydi va fakat uzining maxsulotini e'tiborga loyik deb e'tirof etadi»- deb yozgan edi.

Fe'l-atvor barcha individual sferada ajralib turishi mumkin – shaxsiyatda, xarakterida, zakovatda, lekin biz shaxs xususiyatini urganishga e'tiborni karatamiz. G,Ollport shaxs xususiyatiining kuyidagi sakkizta asosiy xarakteristikasini ajratib utadi(10,14):

1. SHaxs xususiyati – bu fakat nomigagina emas, balki mavjud belgi. Ya'ni ular nazariy asoslar natijasi emas, balki xakikatdan odamlarda mavjuddir.

2. SHaxs xususiyati odat emas kuprok umumlashgan sifatdir. Odatlar birlashib, xususiyatlarga kushiladi.
3. SHaxs xususiyatlari fe'l-atvorni xaraktlantiruvchi element xisoblanadi. Ya'ni xususiyatlar insonni ularni namoyon kiladigan vaziyatni kidirish yoki xosil kilishga moyillik bildiradi.
4. Xususiyatlarning borligini fakat tajriba yuli Bilan aniklash mumkin. Garchi ular bevosita kuzatishlarga izn bermaydi, psixologik metodlar ularni namoyon kiladi.
5. SHaxs xususiyatlari boshka xusuksiyaatlardan fakat nisbatan mustakildir. Xususiyatlar berkingan xolda yanada kuprok umumlashgan xulk-atvor xarakteristikasida namoyon buladi.
6. SHaxs xususiyatlari axlokiy yoki ijtimoiy baxoning sinonimii xisoblanmaydi. Va xususiyatning salbiy polyus kurinishi - bux ar doim «yomon», ijobiy esa xar doim xam «yomon» bulmaydi.
7. Xususiyatni u namoyon bulgan shaxs kontekstida yoki uning jamiyatda ommalashuvida kurib chikish mumkin.
8. Ayrim kiliklarning xususiyat bilan kelishmasligi insonda uning yukligini isbotlamaydi.

Dastlab G.Ollport umumiy xususiyatlarni xarakteristika tarzida madaniyati me'yorida bir-biridan ajralib turuvchi insonlarni va boshkalar bilan takkoslanmaydigan idividual (morfologik) insonlarni uzaro ajratib chikdi. Keyinchalik u oxirgilarni idividual dispozitsiya (G.Ollport idividual dispozitsiyani moslashuvchan xulk-atvorning muayyan turlarini neyropsixik elementlar kabi aniklaydi, xudi shular Ollportga kura shaxs psixologiyasi asosiy kizikishni ifodalaydi.

Dispozitsiyalar orasida kamrok va kuprok aks etganini ajratish mumkin. Eng axamiyatli dispozitsiya – bu insonning butun xayoti davomidagi yulini belgilaydigan xususiyatlaridir (masalan, «raxmdillikka moyillik»). Markaziy dispozitsiya – xulk-atvorning bu atrofdagilarning oson bilib oladigan tendentsiyasidir. Ikkilamchi dispozitsiya – bu insondagi afzal kurish va vaziyatga

moslashish namoyon buladigan xislat (10,14). Ollport uzining dispozitsiya xakidagi tushunchalarida atrof muxitning ta'siri va irsiyatga baravar axamiyat beradi. Tajriba yuli bilan aniklanadigan yondashuvga kelsak, bu amaliy izlanishlarda tasdiklanmagan, lekin shax xususiyatlarini urganishni konkretlashtirishda yordam berdi va rivojlanib bordi.

Psixologiyada xususiyatlarni belgilaydigan bir kancha usullar mavjud (5). Birinchi usul – bu kontseptualizatsiya ya'ni, nazariy tasavvurlarga javob beruvchi xususiyat izlanishi. Uzoq yillar davomida aynan shu usul asosiy edi va F.Galton, A.F.Lazurskiy isharida kullanilgan. Nazariy tasavvur kilish va xar kandy psixologik sifatni loyixalashtrish mumkinligi tushunarli, ammo, agar xususiyatni ajratishning ayrim talablariga rioya kilinmasa bu ishlar umuman befoyda bulishi mumkin. 1. Biror soddarak xususiyatni ajratib olish kerak. 2. Turli odamlardagi bir-biridan farklanadigan xususiyatga e'tibor karatish kerak. 3. Kuprok tarkalغان xususiyatni urganish kerak. 4. Xususiyatning boshka sifatlar bilan boglik bulgan turlarini tanlamok foydalidir.

Xususiyatni ajratishining keyingi usuli psixologik sifatning suz ma'nosiga asosan tuzilgan. Psixosemantik metodlar xar bir insonning, asosiy ulchami kuch-kudrat, aktivlik va baxo bulgan uz semantik maydoniga ega bulishiga asoslangan. SHunday kilib, xar bir ob'ekt va kurinish, inson uni xoxlaydimi yukmi, kuchli – kuchsiz, aktiv- passiv va mexribon- kaxrli kabi kabul kilinadi. Bu baxolash gayriixtiyoriy ravishda amalga oshiriladi, biroq psixosemantik metod, CH.Osgudning izlanishlarida asoslangan sinesteziyaning paydo bulishi (turli modallikning uzaro ta'sirini kuzgatadigan), ob'ektlarning maydon ichidagi uzaro joylashuvini ochib berishga imkon beradi. Agar bu ob'ektlar xususiyatlar bulsa, biz ular xakida xam bilan jiplashgan, shuningdek bir-biriga karama-karshi bulgan yoki ortogonal (mustakil) sifatlar axborotini olamiz. U xolda xususiyatlarni yaxlitlashtirish mumkin: axir bittasining mavjudligidan kolganlarini xam muxokama kilish mumkin.

Va nixoyat, uchinchi usul – bu bevosita kuzatuv ta'siriga buysinmaydigan xarakteristikada namoyon buladigan faktorli analizga asos bulib xizmat kiladi,

lekin bu butun bir tup xususiyatga ta'sir kilishi mumkin. Faktorlar bir necha darajada bulishi mumkin, faktor darajasi kancha yukori bulsa, shuncha kup psixologik sifatlarni aniklash mumkin. Bu ma'noda xususiyatlar shaxsning uziga xosligini ta'riflashi shart emas, shuningdek ular akl-idrokni xam tasvirlashi xam mumkin (R.Kettel va G.Ayzenkning faktorli analizga tayanganliklari shaxs psixologiyasiga xam, insonning intellektual kobiliyatlarini urganishda xam katta xissa kushgani tasodif emas).

Faktorli yondashuv G.Ollportning «umumiy sifatar» deb ta'riflangan reallikni, xamda inson indiviualligi masshtabini kurib chikishda nominativ va idiografik urtasidagi oralikni urgatadi.

SHaxsning faktorli strukturasi ajratishga birinchi urinishlar.

G.Ollport uz ishlarining boshida X.Odbert Bilan birgalikda inson kiyofasining tashki va ichki kurinishiga oid 18000 suzni taxlil kilib, ulardan shaxsning sifatlarini yakkol kursatib beradigan 4500 ta suzni tanlab olishdi (1,3,4,5,7,10,14). Korrelyatsion- faktorli izlanishlarga birinchilardan bulib Dj.Gilford, V.TSimmerman bilan birga kuyidagi 13ta shaxs faktorini ajratgan xolda murojaat kildi:

1. umumiy aktivlik (gayratlilik, xarakat tezligi, xarakatga moyillik),
2. ustun bulmok (tashabbuskorlik, uz xukuniki ximoya kilmok, liderlikka intilish),
3. mardlik (professional va noprofessional erkaklik kizikishlar, kurkmaslik, gamginlik yetishmasligi, xis-xayajon kuchsizligi),
4. uziga ishonch (chukur bilimga egalik, uzgalar tomonidan tanilganlikni sezish, ogir-vazminlik),
5. xotirjamlik (sovukkonlik va irodasini bushashtirmok, tolikish va achchiklanish, joriy faoliyatga yukori kontsentratsiya,
6. kirishimlilik (ijtimoiy aktivlik, ijtimoiy barkarorlik, liderlikka kizikish),
7. gayriextiyoriy xarakat (xayolparastlik, kizikuvchanlik, tomoshabin),
8. depressiya (emotsional va jismoniy tushkunlik, vaxima, bezovtalik),
9. emotsionallik (emotsiyaning yengil paydo bulishi va saklanishi,

kechinmalarning yuzakiligi, fantaziya kilish),

10. uzini cheklash (vazminlik, uzini nazorat kilish, jiddiylik),

11. ob'ektivlik (Amaliy, tugri baxo berish),

12. kungilchanlik (vaziyatga karab yengil uzgarish, samimiyat, yumshoklik),

13. xamkorlik (tanbexlarga chidamlilik, egoistlikning yukligi, ishonuvchanlik).

Yukorida aytib utilgan sifatlar ijtimoiy biologik tabiatning aralashmasiga ega, ularni aniklash usullari esa yaratilmagan edi.

13-mavzu: Reymond Kettel: shaxs nazariyasi strukturasi

Reja:

1. Shaxs xususiyatlari nazariyasining umumiy tamoyillari.

2. Shaxs xususiyatlari kategoriyasi: tuzilishli tamoyillar.

Tayanch so'z va iboralar: -ekstraversiya (jalb kilmok) kirishimlilik, - xayrixoxlik (yokimtoylik) –iliklik yoki dushmanlik, vijdonlik (ishonchlik) emotsional barkarorlik -madaniyatlilik, tajribaga ochiklik, urtamiyonalik, kizikishlar torligi.

SHaxsni tasvirlashda R.B.Kettell boshka yondashuvdan foydalangan, shaxs xususiyatlari ichidan ikkilamchi va birlamchi, dastlabki, konstitutsional, genetik shartlanganlik, tajriba ta'sirida rivojlangan va boshkalar, boshkacha kilib aytganda temperamental va xarakterilogik xususiyatlarni ajratish mumkin (5,7,10,14).

Kettel uzining empirik ishlarida G.Ollport ajratgan shaxslarga tegishli guruxlarni yaxlitlashtirish etiteti yulidan bordi va 171 gurux sinonimini, keyinchalik 36 bipolyar turlarga, undan keyin esa ularni boshka izlanishlarda 46 juftga tuldirdi.

SHaxs xususiyatlarini keltirib chikaradigan (dastlabki) sistemasi Kettellga kura xilma-xildir va kuyidagilarni uz ichiga oladi:

- kizikkonlik (konstitutsonallikni keltirib chikaruvchi) xislatlari, ya'ni emotsional, tezkorlik, reaktivlik va shaxsning atrofdagi ragbatlantiruvchi omillarga reaksiya energiyasi kabi idividual ta'sirlanish uslubini aniklaydigan xislatlar.

- ta'sirlanish samaraliligi aniklovchi kobiliyat-xislatlar,
- xarakatlanuvchi reaksiya kuchlariga taalukli va belgilarning ikkita sinfini tashkil kiluvchi dinamik xususiyatlar – erglar, insonning xulk-atvorini ifodalovchi (kurash va rakobatga yunaltirilgan, poda-poda bulib yashash tuygusi, avtonomlik) tugma xususiyatlar va ijtimoiy madaniyat meyorlari ta'sirida shakllanadigan shuningdek kizikshlarning namoyon bulishini uz ichiga oladigan sentimentlar, attiyudlar.

Katta yoshli insonni ta'riflashda R.Kettell uzi ajratib olgan 19 faktor, yosh bolalarni tasvirlashda esa 12 faktor yetarli deb xisoblaydi. Bu faktorlarni anik ilmiy (texnik), chegara bilan belgilangan va maishiy nomlarini sanab utamiz. Barcha faktorlar manfiy va musbat kutblarga ega, lekin bu muxim axamiyatga egaligini bildirmaydi: psixologik planda ular bir xil, manfiylik va musbatlilik esa muayyan vaziyatda bulishi mumkin. Fakat bolalarda topilgan faktorlar kalin shrift bilan ajratilgan (9).

Jadval 17

R.B.Kettell kursatib utgan xususiyatlar

<p>A+</p> <p>Affektotimiya (tsiklotimiya)</p> <p>Samimiylik, raxmdillik</p> <p>Alokada yengillik, egiluvchanlik, moslashuvchanlik, kungilchanlik, ochiklilik, ishonuvchanlik, begamlik, kirishimlilik</p>	<p>A-</p> <p>Sizotimiya</p> <p>Xolislik, yotsirashlik</p> <p>Janjalkash, printsiplarga kattik yopishib olish, sovukkonlik, sirini xech kimga aytmaydigan, kup gapirmaslik, ogirbosik, gumonsirashlik, egoistlik</p>
<p>V+</p> <p>Yukori akl-idrok</p> <p>Akilli</p> <p>Yukori akliy kobiliyat, zexni utkirlik, abstraktsiyalarni tushunish, keng</p>	<p>V-</p> <p>Past akl-idrok</p> <p>Kaltafaxm</p> <p>Past akliy kobiliyat, zexni sustlik, abstraktsiyani tushunmaslik, intellektual</p>

<p>itellektual kizikishlar, kat'iylik, tirishkoklik, bilimdon</p>	<p>kizikishlarning yukligi va kaysarlik, bilimsilik.</p>
<p>S+ «Men» kuchi Emotsional barkarorlik Nevrotik alomatlaridan ozodlik, soglik tugrisida tashvish yukligi, xotirjamlik, xayotga nisbatan reallik, tirishkoklik, kat'iylik, uzini kulga ola bilish, vazminlik</p>	<p>S- «Men» kuchsizligi Emotsional bekarorlik Nevrotik belgilarning kupligi, uz sogligi tugrisida kaygurish, kizikishlarda bekarorlik, masuliyatdan bosh tortish, ishni oxirigacha yetkazmaslik, uzini tuta olmaydigan, vaximachi</p>
<p>D+ Ta'sirchanlik Bezovtalik Sabrsizlik, namoyishkorlik, faollik, rashkchilik, uzi yukori baxolash, bekarorlik, andishasizlik</p>	<p>D- Lokaydlik Vazminlik Xotirjamlik, kanoatlilik, lokaydlik, rashksizlik, uz-uzini tankid kilishlilik, barkarorlik, xushmuomala</p>
<p>E+ Dominantlilik Tirishkoklik, gayratli, mustakillik, uziga ishonuvchanlik, maktanchoklik, ekstrapunitivlik, kupollik, andishasizlik, botirlik, janjalkashlik, kaysarlik</p>	<p>E- Konformlik Itoatkorlik, tobelik Buysinishlik, uziga ishonmaslik, kamtarlik, intrapunitivlik yoki impunitivlik, xushmuomalalik, tortinchoklik, extiyotkorlik, xayrixoxlik, itoatkorlik</p>
<p>F+ Surgency Beparvolik, kirishimlilik, serxarakatlilik, kupgaplilik, xotirjamlik, jonlilik, epchillik,</p>	<p>F- Desurgency Sertashvish Gam-gussa, kupchilikdan kochish, apatiya, indamaslik, bexalovatlik,</p>

<p>ishonuvchanlik, moslashuvchanlik</p>	<p>sustkashlik, extiyotkorlik, shubxalanuvchanlik, printsiplarga kattik yopishib olishlilik</p>
<p>G+ «Men-ortik» kuchi Yukori insoflilik Barkarorlik, tirishkoklik, majburiyatlilik, intizomlilik, ixchamlilik, xushaxloklilik, ma'suliyatlilik, odamlarga jonkuyarlik, tartibga talabchanlik</p>	<p>G- «Men-ortik» kuchsizlik Noinsoflilik Bekarorlik, uzgaruvchanlik, yengiltabiatlilik, uz xoxishlariga erk bermoklik, beparvolik, axloksizlik, ma'suliyatsizlik, kundalik xayotda pala-partishlik, landavurlik</p>
<p>H+ Parmia Jasurlik Kirishimlilik, karama-karshi jins vakili xuzurida jonlanishlilik, kuyinchaklilik, emotsionallik va artistlik, xayrixoxlik, ta'sirchanlik, betashvish, omma oldiga chikishga moyillik</p>	<p>H- Threcita Jur'atsizlik Tortinchoklik, karama-karshi jins vakili oldida xijolat tortish, vazminlik, kizikishlarni chegaralash, adovatlik, extiyotkorlik, xayot oldida vaximaga tushish.</p>
<p>I+ Premia Kungilchanlik, muloyimlilik Besabrlilik, talabchanlik, tobelik, sertakalluflik, xissiyotlilik, sezgirlik, fantaziyaga moyillik, uziga va atrofdagilarga yumshoklik, ipoxondriya, sogligi xakida jonsaraklik</p>	<p>I- Harriet Kattiklik, shafkatsizlik Emotsional yetuklik, mustakillik, rialistlik, ratsionallik, akl-idrok sezgisiga buysunish, ishbilarmonlik, mantik borligi, surbetlik, sogligi xakida tashvishi yukligi</p>

<p>J+</p> <p>Cjasthenia</p> <p>Extiyotkorona individuallik</p> <p>Yakka xarakat kilishga moyillik, odamovilik, umumiy kizikishlarga tuskinlik kilish, charchoklik, umumguruxlik me'yorlariga sovukkonlik bilan munosabat</p>	<p>J-</p> <p>Zeppia</p> <p>Umumiy ishlarda katnashishga kizikish</p> <p>Birgalikdagi xarakatga moyillik, e'tiborga moyillik, shaxsiy kizikishlarini guruxliga buysindirish, kuch, faollik, umumguruxlik me'yorlarini kabul kilishga kobiliyat</p>
<p>K+</p> <p>Comention</p> <p>Madaniy karamlik</p> <p>Xushmuomalalik, madaniy yetuklik, ma'suliyatlik, buysinishga kobiliyat, kattalarning nuktai nazarini faxmlamok</p>	<p>K-</p> <p>Abolition</p> <p>Madaniyatni kabul kilmaslik</p> <p>Odotsizlik, madaniy yetuk emas, ma'suliyatsizlik, uzini kursatishlik, ijtimoiy kiyinchiliklarni tushunmaslik</p>
<p>L+</p> <p>Protension</p> <p>Gumonsirashlik</p> <p>Ishonmaslik, kizganchiklik, kuraolmaslik, omadsizliklarga karab kolishlilik, jizzakilik, zolimona xukmdorlik, rakobatlikka moyillik, manmanlik va uziga yukori baxo berishlik</p>	<p>L-</p> <p>Alaxia</p> <p>Ishonuvchanlik</p> <p>Xaddan tashkari ishonuvchanlik, kizganmaslik, begarazlik, kiyinchiliklardan oson chalgishlik, kunuvchanlik, chidomlilik, kechirimlilik, tushunuvchanlik, kungilchan, uzini axamiyatsizligini sezish</p>
<p>M+</p> <p>Autia</p> <p>Xayolparastlik</p>	<p>M-</p> <p>Praxernia</p> <p>Ishbilarmon</p>

<p>Uzining dunyokarashlariga berilib ketishlik, abstrakt muammolarga kizikuvchanlik, fantaziya kilishlik, tajribasiz, betgachoparlik, zavkka tulganlik</p>	<p>Amaliy savollargni yechishga moyillik, shaxsiy ishlarini uyushtirish, gayrioddiylikdan kochishlik, ob’ektiv reallikni boshkarish, amaliy masalalarda ishonchlilik, xotirjamlik, kat’iyatlilik</p>
<p>N+ Shrewdness Ziyraklik Nazokatlilik, uzini tuta bilishlik, aklilik, emotsional sipolik, sun’iylik, xulk-atvorida yasamalilik, estetik ustamonlik, atrofdagilarga ziyraklik, izzattalab, extiyotkorlik (Makiavelli kutbi)</p>	<p>N- Natural forthrighness Soddalik Tugrisuzlik, betakalluflik, aklning konkret emasligi, emotsional tartibsizlik, tabiiy, samimiylik, didning oddiyliigi, asoslarni taxlil kilishda tajribasizlik, erishilgan yutuk bilan kanoatlanmoklik, odamlar bilan mulokatda bexurmatlik (Russo kutbi)</p>

Jadvalda keltirilganlardan tashkari shaxsning kup darajali strukturasiida dastlabki faktorlarni taxlili natijasida olingan va arifmetik xisoblanadigan ikkinchi tartibning 4 faktori (ekstraversiya –introversiya, tashvishlilik-moslashganlik, contertia – pathemia (bosh miya kobigining tirikligi), mustakillik – itoatkorlik), xamda asosan ilmiy izlanishlarda urganiladigan uchinchi tartibning 5 faktori mavjud (nerv sistemasining kuzgalish kuchi, uzini tankid kilishlik, ma’suliyatning darajasi, uzi xakida gam yeyishlik, ijtimoiy adaptatsiya darajasi)(7,9).

SHaxs strukturasiining diagnostikasi uchun ishlab chikilgan surovnoma (16PF) uning yakkol noananaviy yunalishida bulganligi sababli juda ommalashgan, va Rossiyada uchta formada – 187 ta tasdikni uz ichiga olgan A va V parallel formalaridan, Sankt-Peterburgda ishlab chikilgan va 123 ta punktni uz ichiga olgan s formasidan foydalaniladi. SHuningdek kichik yoshdagi maktab bolalarini tekshirish uchun muljallangan bolalar formasi xam mavjud.

Kettellning muxim yutuklari shulardan iboratki, u shaxs xususiyatlarining rivojlanishida irsiyatning va atrof muxitning xissasini representativ izlanishlarini utkazishga muvafak buldi. Egizaklik metodidan foydalanib olingan ma'lumotlarga ishlov berishning maxsus ish tartibini ishlab chikib, xususiyatga genetik ta'sirning yukligini va xususiyatlarning turli tabiatga ega ekanligini anikladi. Masalan, neyrotizm va uzini uzi anglashda genetikaning ta'siri yarmidan kamrok bulgan bir paytda intellektning taxminan uchdan ikki variatsiyasi va uziga bulgan ishonchi irsiyat bilan boglikdir. Kettellning fikri buyicha, shaxs xarakteristikasining taxminan uchdan ikki kismida atrof-muxitning ta'sirida va uchdan bir kismida irsiyat ta'sirida aniklanadi(12).

Atrof-muxit va irsiyat faktorlarining anik bir bulimiga intilish karama-karshi ma'lumotlarga olib kelgan kupgina kushimcha izlanishlarni tugdirdi, irsiyat kursatkichlari fakat ozgina kursatkichlar buyicha axamiyatli darajaga kutarildi (turli avtorlarda S,F,I,J,O.Q2,Q3,Q4 faktorlari buyicha monozigotli juftliklarda uxshashlik belgilanadi), ammo ular uzaro kelishmaydi. Kupgina tadkikotchilar kuzatilayotgan xususiyatlarning farqlari - egiz vaziyatlar uxshashligida katta xissasi borligini ta'kidlaydilar.

SHuning uchun bir kancha tadkikotlar aynan ushbu vaziyatni – ichkijuftlik munosabatlar tipini urganishga bagishlandi. Ma'lum bulishicha xal kiluvchi monzigot egizaklarning jinsi ekanligi ishonarli kilib kursatilgan edi. SHunday kilib, ayollar juftligida 12 faktor buyicha uxshashlik, erkaklarda esa fakatgina 7 faktor buyicha topilgan. Moxiyati buyicha olingan natijalar fakat irsiyat roli alokalarda atrof-muxit muammolaridan uzoklashtiradi – bunga sabab shundaki, kizlar egizaklar kandy bulishi kerakligi tugrisidagi ijtimoiy tasavvurlarga sezgirrok ekanligidir. Ya'ni irsiyat va ijtimoiy madaniyat tasavvurlari bu vaziyatda bitta natijaga «ishlaydi». Xususiyatning genetik shartlanganligi fakat sotsial ekstraversiya (kirishimlilik, faollik, neyrotizm) bilan boglikligini ishonch bilan aytish mumkin, ammo yosh utgan sari genetik shartlanganlik darajasi asta-sekin pasayib boradi(7,14).

Kettell ijtimoiy guruxlar (gurux ichida xususiyatning uzgarish diapazoni -

sintality - синалъностъ deb ataladi) xarakati izlanishlariga xam katta xissa kushdi, shuningdek Ollportning umumiy va individual xususiyatlar mavjudligi tugrisidagi fikrni rivojlantirib bordi.

Katta beshlik modeli.

Va nixoyat shaxsning faktorli nazariyasini yaratishga yana bitta urinish 80 yillarning oxirida, «leksik modelъ» deb nomlangan G.Ollport, R.B.Kettell, L.Terstoun izlanishlarini davom ettirish doirasida kilingan edi(97,90). Mazkur yondashuvning asosiy goyasi shundan iborat ediki barcha bor psixologik va axlok farqlari albatt tilda kayd etiladi, demak, shaxsning sistema yaratuvchi yadrosini aks ettirishda ishonchli bulishi uchun, insoniy kiyofaga taalukli maishiy va adabiy ifodalarni urganish yetarlidir. Yondashuvning cheklanishi shundan iboratki, turli xarakteristikalarning uzaro boglikligini shaxsning ichki sistemasining asosi xisoblangan «gorizontal» va «vertikal» ulchamlarini kiritmasdan turib, aniklash kiyin. Modelъ tilda ommabop kilib tasvirlanadigan uzgaruvchanlikka asoslangan; «tillik shaxsni» barkaror aniklanadigan 5 faktor ifodalaydi. Ularga kuyidagilarni kiritish mumkin:

-ekstraversiya (jalb kilmok) – kirishimlilik, gayratlilik yoki xotirjamlik, passivlik.

-xayrixoxlik (yokimtoylik) – mexribonlik, ishonuvchanlik, iliklik yoki dushmanlik, egoizm, ishonchsizlik.

-vijdonlik (ishonchlik) – xamjixatlik, jiddiy, ishonchli yoki begam, e'tiborsizlik, ishonchsizlik.

-emotsional barkarorlik – zaiflik, vazminlik, kat'iyatlik yoki nevrotizm – nervozlik, jizzakilik.

-madaniyatlilik, tajribaga ochiklik – spontanlik, kreativlik yoki cheklanganlik, urtamiyonalik, kizikishlar torligi.

Xozirgi vaktida besh faktorli modelъ yoki Katta Beshlik Modeli (FFM, five factor model) psixometrik izlanishlar tufayli uz tasdigini topdi; u eng kup tadjik kilinadigan modeldir, chunki aniklangan faktorlar turli yondashuvlarda namoyon buladigan turli organizmlarda bir xil tashki muxit ta'sirida o'xshash belgilarning

paydo bo'lishi yukori validligiga ega.

Postulatlar (isbotsiz xam ábul kílinaveradigan dastlabki koida, faraz) shaxsning beshfaktorli nazariyasi kuidagilarni uz ichiga oladi:

1. Barcha katta yoshdagi kishilarni fikrlarga, sezgi va axlokiga (individuallikda) ta'sir kiluvchi uziga xos kombinatsiyalarda shaxs xususiyatlarini ta'riflab berish mumkin.
2. Urganilayotgan shaxs xususiyatlari endogen baza tendentsiyasidir (kelib chikishi).
3. Xususiyatlar bolalikdan rivojlanadi, katta yoshda batamom shakllanadi va moslashgan sub'ektlarda uzining doimiy uzgarmasligi saklab koladi.
4. Xususiyatlar boskichma-boskich tashkil kilingan, tor va spetsifikdan to keng, kuprok umumiy dispozitsiyagacha (struktura xakida).

Muxokama kilinayotgan modellarning vatanimizda rivojlanayotgan psixologiya fanida individuallikning maxsus nazariyasi bilan yukori ichki uxshashlikni ta'kidlab utish kerak. SHu bilan bir vaktida xususiyatlar nazariyasi – bu «oralikdagi», tipologik va idiografik (klinik) orasidagi individuallikni urganishga yondashuv ekanligini tan olmok muxim.

Lekin, xar kandy nazariya evrestik imkoniyatlari me'yorida uzining chegarasiga ega. SHuning uchun situatsion barkaror kurinishni chegarani deb aniklab, bu fikrni shubxa ostiga olmok kerak(14).

R.B.Kettell inson axlokini prognoz kilish kiyinligini buyniga olib, buning uchun spetsifikatsiyani baravarlashtirish deb nomlangan sodda formuladan foydalanishni taklif etdi:

$R = (S, R)$, bu yerda R – insonning spetsifik javob reaksiyasi, S – ragbatlantiruvchi vaziyat, P esa – shaxs strukturasi.

Ammo tuzatishlarga karamasdan, ularni kiritish faktining uzi ajratish, urganish, ulchash, va shaxs xususiyatini oldindan aytib berishning printsipial imkoniyatini aks ettiradi.

14-mavzu: K.Rodjersning insonparvarlik psixologiyasi

Reja:

- 1.Inson tabiati haqida K.Rodjers tasavvurlari.
- 2.K.Rodjers fenomenologiyasi.
- 3.K.Rodjers bo'yicha shaxsning "Men"-konsepsiyasi. "Men"-konsepsiyasining rivojlanishi.

Tayanch so'z va iboralar: A.Maslou, extiyojlar, gumanizm, real men, ideal men,tug'ma moyillik, motivatsiya

SHaxsga doir gumanistik nazariyada ikki asosiy yo'nalishlar farqlanadi. Birinchisi, "klinik" (klinikaga yo'naltirilgan) amerikalik psixolog K.Rodjers qarashlarida o'z ifodasini topgan yo'nalish. Ikkinchisi "motivatsion" yo'nalish. Uning asoschisi amerikalik psixolog A.Maslou dir. mazkur ikki yo'nalish o'rtasida muayyan tafovutlar bo'lsa-da, ularni bog'lab turgan jihatlar ko'p uchraydi.

Gumanistik psixologiya yo'ndashuvi vakillari shaxs taraqqiyotining asosiy manbai deb avtoaktualizatsiyaga bo'lgan tug'ma moyilliklarni nazarda tutadilar. SHaxs taraqqiyoti deb ushbu tug'ma moyilliklarning namoyon bo'lishiga aytishadi.K.Rodjersga fikriga ko'ra, inson psixikasida ikki tug'ma moyillik mavjud. Birinchisi, muallif tomonidan "avtoaktualizatsiya tendentsiyasi" deb nomlangan moyillik inson shaxsining bo'lajak xususiyatlari negizini o'zida jo etgan.

Ikkinchi tug'ma moyillik – "organizmik nazorat jarayoni" –shaxs taraqqiyotini idora etuvchi mexanizmdir. Mazkur moyilliklar asosida odam taraqqiyoti davomida "Men"ning alohida shaxsga doir tuzilmasi paydo bo'ladi. U o'z ichida "ideal Men" va "real Men"ni qamrab oladi. "Men" tuzilmasining ushbu osttuzilmalari murakkab munosabatda bo'ladi: to'kis uyg'unlik holatidan (kongruentlik) to'liq nomuvofiqlik (disgarmonik) darajasigacha (Rodjers K., 1994). K.Rodjersga binoan, hayot maqsadi – tug'ma salohiyatni to'kis namoyon

etishdir, “o‘z vazifalarini to‘liq ro‘yobga chiqarish”, ya‘ni o‘z qobiliyatlari va talantidan foydalanadigan, o‘z salohiyatini ro‘yobga chiqarish davomida o‘zini, o‘z kechinmalarini anglash sari harakat qiluvchi, o‘zining asl abiatini ifodalashga intiluvchi odam bo‘lishdir.

A.Maslou shaxs taraqqiyoti negizida yotadigan ehtiyojlarning ikki ko‘rinishini ajratib bergan: ularni qondirish mobaynida o‘z-o‘zidan yo‘qolib ketadigan «defitsitar» ehtiyojlar hamda qondirilishi ularni kuchaytiruvchi “o‘shishga doir” ehtiyojlar. Maslou fikriga ko‘ra, motivatsiyaning besh darajasi mavjud:

- 1) fiziologik (oziqlanish, uxlash ehtiylari);
- 2) himoyalanganlik ehtiyoji (uy-joyga ega bo‘lish, ish joyiga ehtiyoj);
- 3) bir insonning boshqa bir insonga nisbatan ehtiyojini ifodalovchi mansublik ehtiyoji, masalan, oila qurishga;
- 4) o‘zini-o‘zi baholash ehtiyoji (o‘zini hurmat qilish, o‘z g‘ururini saqlash);
- 5) avtoaktualizatsiya ehtiyoji (ijod qilish, go‘zallikka intilish, to‘kis bo‘lish kabi metaehtiyojlar).

Ro‘yxat boshidagi ikki ehtiyoj defitsitar, uchinchisi – oraliq ehtiyoj, to‘rtinchi va beshinchi ehtiyojlar o‘shishni ta‘minlaydigan ehtiyojlar sirasiga kiritilgan.

Maslou motivatsiyaning mantiqiy ketma-ketlikda rivojlanish qonunini ifoda etgan. Unga ko‘ra odam motivatsiyasi quyidan yuqoriga qarab rivojlanadi, agarki quyi darajadagi ehtiyojlar qondirilmas ekan shaxsning yuqori darajadagi ehtiyojlarining shakllanishi amri mahol bo‘ladi.

Boshqachasiga aytadigan bo‘lsak, odamning bosh suqadigan uy-joyi bo‘lmas, qorni to‘ymas ekan u oila qurish imkoniyatidan mahrum bo‘ladi, oilasi yo‘q ekan o‘zini-o‘zi hurmat qilolmaydi yoki ijod bilan shug‘ullanishiga monelik qiladigan omillar ko‘payadi. Inson uchun eng muhim ehtiyojlar sirasiga avtoaktualizatsiya

taalluqlidir. Avtoaktualizatsiya – odam kamolotining pirovard holati emas. Hech bir inson barcha motivlarni inkor etish darajasida avtoaktuallashgan bo'la olmaydi. Har bir odamda hamisha taraqqiyotni davom ettirish imkoniyatini beradigan qobiliyatlari va iqtidori bo'ladi. Beshinchi darajaga yetgan odam “psixologik jihatdan sog'lom” sanaladi (Maslou A., 1999).

Mazkur yondashuv vakillari inson taraqqiyotida hal etuvchi yosh davrlari mavjud emas, shaxs butun hayoti davomida shakllanadi va taraqqiy etadi. Biroq hayotning ilk davri (bolalik, o'mirlik, o'spirinlik) shaxs taraqqiyotida alohida o'rin egallaydi. SHaxsda ratsional jarayonlar ustivorlik qiladi, ongsizlik vaqti-vaqti avtoaktualizatsiya jarayoniga to'sqinlik qilib u yoki bu sabablarga ko'ra vujudga kelib turadi. Gumanistlar shaxs iroda erkinligiga to'liq egadir deb hisoblaydilar. Inson o'zini, o'z xatti-harakatlarini anglaydi, rejalar tuzadi, hayot mazmunini qidiradi. Inson – o'z shaxsi va o'z baxtini ni o'zi yaratuvchisidir.

Insonning ichki olami, uning o'y-fikrlari, tuyg'ulari va emotsiyalari voqelikning to'g'ridan-to'g'ri aks etishi emas. Har bir odam reallikni o'zining sub'ektiv idrokiga muvofiq talqin etadi. Botiniy olam uning o'zigagina to'liq kashf bo'lishi mumkin. Odam hatti-harakatlari negizini sub'ektiv idrok va sub'ektiv kechinmalar tashkil etadi. Faqatgina sub'ektiv tajriba konkret shaxs xulq-atvorini tushunish imkoniyatini beradi.

SHaxsning gumanistik modelini kontseptual “birliklari” sifatida quyidagilar ilgari suriladi:

- 1) «real Men» — “ayni dam va shu yerda”gi o'y-fikrlar, tuyg'ular, kechinmalar yig'indisi (Rodjers K., 1994);
- 2) «ideal Men» — inson o'zining shaxsiy salohiyatini namoyon qilishi uchun zaruriy sanagan o'y-fikrlar, tuyg'ular, kechinmalar yig'indisi.
- 3) avtoaktualizatsiyaga bo'lgan ehtiyoj — shaxs taraqqiyoti va kamolotini belgilaydigan tug'ma ehtiyojlar (Maslou A., 1997).

“Real Men” va “ideal Men” amorf (mavhum, noaniq) tushunchalar sirasiga taalluqli bo’lsada, ularning kongruentligini (o’zaro muvofiqligini) o’lchash imkoniyatlari mavjud. Kongruentlikning yuqoriligi “real Men” va “ideal Men” o’rtasidagi nisbiy uyg’unlik belgisidir (o’ziga berilgan yuqori baho). Kongruentlikning quyi darajasi (o’ziga berilgan past baho) xavotirlilik, depressiya alomatlari belgisidir.

Tug’ilish paytida “Men”ning ikkala osttuzilmalari to’kis kongruent bo’lgani bois, odam fitratida ezgulik mavjud. Keyinchalar, tashqi muhit bilan o’zaro ta’sirga kirish natijasida “real Men” va “ideal Men” o’rtasida nomuvofiqlik vujudga kelgani sabab reallikni yanglish idrok etish – subtseptsiya – hosil bo’ladi. “Real Men” va “ideal Men” o’rtasidagi davomiy va kuchli nomuvofiqlikda psixologik muammolar paydo bo’la boshlaydi.

SHaxs taraqqiyotiga to’sqinlik qiluvchi bloklar sifatida A.Maslouning ehtiyojlar shajarasi ilgari suriladi. SHaxs to’kisligini “real Men” va “ideal Men” o’rtasidagi kongruentlik ta’minlaydi. Ular o’rtasidagi nisbat birga yaqin bo’lishi lozim. SHaxs to’kisligi – o’z imkoniyatlarini to’liq ro’yobga chiqarayotgan shaxsning asosiy sifatidir. Tarbiya mazmuni va shaxs korrektsiyasi uning to’kisligini ta’minlashdan iborat.

To’kis shaxs, birinchidan, o’z yaqinlari va do’stlari bilan qoniqarli psixologik aloqa o’rnatishga harakat qiladi, o’z his-tuyg’ularini oshkor qilishdan qo’rqmaydi, sir-sinoatlari hisobda mavjud emasligi bilan ajralib turadi; ikkinchidan, aslida kim ekanini (real Men) va kim bo’lishini (ideal Men) aniq biladi; uchinchidan, yangi tajribani o’zlashtirishga maksimal darajada ochiq va hayotni “ayni damda va shu yerda” qanday bo’lsa shundayligicha qabul qiladi; to’rtinchidan, barcha odamzotga shartsiz ijobiy munosabatni namoyon qiladi; beshinchidan boshqa odamlarni tushunishga, o’zida empatiyani rivojlantirishga, olamga o’zga odam nigohi bilan qarashga intiladi.

To'kis shaxs sifatleri:

- 1) reallikni samarali idrok etadi;
- 2) xulqi tabiiy va sodda;
- 3) muammoni va vazifani hal etishga yo'nalgan;
- 4) olamni "bolalarcha" idrok etadi (hayrat);
- 5) oliy kechinmalarni boshdan o'tkazadi, shavq tuyadi;
- 6) odamzotga samimiy yordam berishga intilish;
- 7) chuqur shaxslararo munosabatlarni o'rnatish;
- 8) yuqori darajadagi axloqiy mezonlar.

Demakki, gumanistik yondashuvga binoan, shaxs – odamiy Menning botiniy olamidir, u esa – avtoaktualizatsiya natijasidir. SHaxs tuzilmasi - "real Men" va "ideal Men" o'rtasidagi nisbatning individual ko'rinishidir; shuningdek, ehtiyojlar va avtoaktualizatsiya taraqqiyotining individual darajasidir.